

ISSN 2010-720X

# ILIM HÁM JÁMIYET



# FAN VA JAMIYAT

2024 (№5/2)

ISSN 2010-720X

2004-jildin mart ayidan boshlab shiga basladi

**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASI JOQARI  
BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR  
MINISTRILIGI**



**ÁJINIYAZ ATÍNDAGÍ NÓKIS MÁMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALÍQ INSTITUTÍ**



**ILIM hám JÁMIYET**

**Ilimiy-metodikaliq jurnal**

**Seriya: Pedagogika ilimleri. Psixologiya ilimleri**

**Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat  
pedagogika instituti**

**FAN va JAMIYAT**

**Ilmiy-uslubiy jurnal**

**Seriya: Pedagogika fanlari, Psixologiya fanlari**

**Нукусский государственный педагогический  
институт имени Ажинияза**

**НАУКА и ОБЩЕСТВО**

**Научно-методический журнал**

**Серия: Педагогические науки, Психологические науки**

**Nukus State Pedagogical Institute  
named after Ajiniyaz**

**SCIENCE and SOCIETY**

**Scientific-methodical journal**

**Series: Pedagogical sciences, Psychological sciences**

**№5/2**

**Shólkemlestiriwshi: Ájiniyaz atındaǵı Nókis**  
**mámleketlik pedagogikalıq institutı hám jurnal redakciyası jámaáti**  
**Shólkemlestiriw komiteti bashǵı: QODIROV Q. – NMPI rektori w.w.a.**  
**Bas redaktor: PAZÍLOV A.**

**REDKOLLEGIYA AǴZALARÍ**

ps.i.d., prof. **Abdirasulov R.** (Jizzax);  
 ps.i.k., prof. **Elmuratova A.** (Nókis);  
 f.i.d., prof. **Galiullina G.R.** (Rossiya);  
 p.i.d., prof. **Xodjaniyazov S.** (Urgench);  
 p.i.k., doc. **Jumabaev N.** (Nókis);  
 p.i.d., doc. **Jumasheva G.** (Nókis);  
 f.i.d., prof. **Ibragimov Yu.** (Nókis);  
 f-m.i.f.d. (PhD), doc. **Kalxanov P.** (Nókis);  
 f.i.k., prof. **Kochanov Q.** (Nókis);  
 p.i.d. (DSc), doc. **Qodirov Q.A.** (Nókis);  
 p.i.d. (DSc), prof. **Qarlibaeva G.** (Nókis);  
 f.i.d. (DSc), doc. **Qurambaeva G.** (Toshkent);  
 f.i.d. (DSc), doc. **Qurbaniyazov G.** (Nókis);  
 p.i.d.(DSc),prof.**Qurbaniyazova Z.** (Nókis);  
 p.i.k., doc. **Makovchuk A.V.** (Minsk);  
 p.i.k., doc. **Mamirbaeva D.** (Nókis);

f.i.f.d., prof. **Moon Hee Cho** (AQSh);  
 f.i.d., aǵa il.xız. **Najimov P.** (Nókis);  
 p.i.k., prof. **Nauruzbaeva A.** (Nókis);  
 f.i.d., prof. **Nurjanov P.** (Nókis);  
 p.i.k., prof. **Pazilov A.** (Nókis);  
 p.i.d. (DSc), prof. **Pazilova M.** (Nókis);  
 f.i.b.f.d., prof. **Pedakar P.** (Turkiya);  
 f.i.d. (DSc), doc. **Pirniyazova A.** (Nókis);  
 f.i.d. (DSc), prof. **Salqınbay A.** (Almata);  
 p.i.k., doc. **Tajieva A.** (Nókis);  
 p.i.k., prof. **Tlegenov A.** (Nókis);  
 p.i.d., prof. **Utebaev T.** (Nókis);  
 p.i.k., doc. **Vaxobov A.** (Tashkent);  
 p.i.k., doc. **Yakovlena E.A.** (Minsk);  
 p.i.d., prof. **Yusupov Q.** (Nókis);

**D.Dogarova - juwaplı xatker**  
**Z.Xodjekeeva - korrektor**  
**N.Allamuratova - operator**

**Juwaplı redaktorlar:**  
 f.i.k., doc. **S.Matyakupov** – ózbek tili boyınsha  
 f.i.d. (DSc), doc. **G.Kdirbaeva** – rus hám inglis  
 tilleri boyınsha  
**Q.Biysenbaev** – qaraqalpaq tili boyınsha

**Jámiyetlik máslahátshiler:**

p.i.d. (DSc), doc. **Abilova G.** (Nókis);  
 b.i.d., prof. **Reimov P.** (Nókis);  
 f.i.d. (DSc), doc. **Qazaqbaev S.** (Nókis);  
 f.i.d., prof. **Keruenov T.** (Nókis);  
 b.i.d., prof. **Mambetullaeva S.** (Nókis);  
 p.i.d. (DSc), doc. **Matjanov N.** (Nókis);  
 ps.i.d. (DSc), prof. **Utebergenov M.** (Nókis);

*Jurnal 1992-jıldan «Qaraqalpaqstan muǵallımı» atamasında shıǵarıla baslaǵan. 2004-jılda «Ilim hám jámiyet» atamasına ózgerilip, 01-022-sanlı gúwalıq penen Qaraqalpaqstan Respublikası Baspasóz hám xabar agentligi tárepinen dizimge alınǵan.*

*2020-jılı 07-avgustta Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administracyası janındaǵı xabar hám ǵalaba kommunikacyalar agentligi tárepinen qayta dizimge alınıp, 1098-sanlı gúwalıq berilgen.*

*«Ilim hám jámiyet» jurnalı Ózbekstan Respublikası Ministirler kabineti janındaǵı Joqarı Attestaciya Komissiyası kollegiyasınıń qararı menen tómende kórsetilgen pánler boyınsha ilim doktori dárejesin alıw ushın maqalalar járiyalanıwı tiyis bolǵan ilimiy basılımlar dizimine kirgizilgen:*

- 01.00.00 – fizika-matematika ilimleri;
- 03.00.00 – biologiya ilimleri;
- 05.00.00 – texnika ilimleri;
- 07.00.00 – tariyx ilimleri;
- 10.00.00 – filologiya ilimleri;
- 11.00.00 – geografiya ilimleri;
- 13.00.00 – pedagogika ilimleri;
- 19.00.00 – psixologiya ilimleri.

**Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutına 90 jıl!**

**QARAQALPAQSTANDAǴI MATEMATIKA ILIMI RAWAJLANIWI  
TÁRIYXINA QISQASHA SHOLIW**

**B.B.Prenov** – fizika-matematika ilimleri doktori

*Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutu*

Matematika iliminiń Qaraqalpaqstandaǵı rawajlanıwı elimizdegi tungısh joqarı bilim dárgayı, Qaraqalpaq mámleketlik pedagogikalıq institutınıń ashılıwı menen tikkeley baylanıslı. Pedagogikalıq institut (Qaraqalpaqstan muǵallimler institutu) 1934-jılı, sol dáwirdegi Qaraqalpaqstannıń paytaxtı bolǵan Tórtkúl qalasında ashılıp, 1934-1935-oqıw jılında tek ǵana tayarlıq bolımı jumıs baslaǵan.

1935-1936-jılları Qaraqalpaqstan muǵallimler institutınıń fizika-matematika fakulteti shólkemlestirilip, bul fakultette fizika-matematika ilimleri kafedrası ashıldı hám onı Rossiya oqıw orınlarınan shaqırılǵan ilimpaz M.V.Sheglov basqardı.

1936-jılı Orta Aziya mámleketlik universitetiniń fizika- matematika fakultetin pitkeren O.Buleshov, 1937-jılı Buxara pedagogikalıq institutın pitkeren M.Galekeev kafedraǵa jumısqa keldi hám óz ómirleriniń aqırına deyin, dáslep pedagogikalıq institutta, keyin Qaraqalpaq mámleketlik universitetinde Qaraqalpaqstan jaslarına matematikalıq bilim berip, ustazlıq qıldı.

1948-1949-oqıw jılında fizika-matematika ilimleri kafedrası matematika hám fizika kafedralarına bólinde. 1950-1960-jılları matematika kafedrasında fizika-matematika ilimleriniń kandidatları F.V.Tomashevskiy hám B.V.Levin, pedagogika ilimleriniń kandidatı A.Z.Nasirovlar jumıs islep, oqıw-tárbiya islerin alıp barıw menen bir qatarda dáslepki ilim kandidatların jetilistiriwge de óz úleslerin qostı.

1954-jılı kafedra aǵzası O.Buleshov óziniń kandidatlıq dissertaciyasın jaqlap, Qaraqalpaqstandaǵı birinshi, fizika-matematika ilimleriniń kandidatı boldı. 1965-jılı pedinstitut pitkeriwshisi, kafedra aǵzası J.Qutlimuratov Moskva mámleketlik universitetinde kandidatlıq dissertaciyasın jaqladı. Sońınan Qaraqalpaqstanda birinshi bolıp matematikadan professor ilimiy ataǵına iye boldı.

1969-jılı matematika kafedrası «Matematikalıq analiz» hám «Ulıwma matematika» kafedralarına bólinde. «Ulıwma matematika» kafedrasın M.Galekeev basqarıp, bul kafedrada 14 oqıtıwshı jumıs isledi, olardıń qatarında fizika-matematika ilimleriniń kandidatları O.Saparniyazov hám I.Maxsudov, pedagogika ilimleriniń kandidatı T.Tawbaevlar bar edi.



1970-1976-jılları Tashkent, Moskva, Kiev, Novosibirsk, Kazan hám t.b. qalalarda bilim alıp kelgen S.Qallibekov, X.Baymuratov, A.Otarov, S.Pirnazarovlar kafedranıń ilimiy potencialın jáne de kóterdi.

1976-jılı pedinstitut bazasında Nókis mámleketlik universiteti ashılıp, bul universitetniń matematika fakultetiniń quramındaǵı «Ulıwma matematika» kafedrasınıń professor-oqıtıwshıları qaraqalpaqstan jaslarına matematikalıq bilim beriwde óz úleslerin qostı hám házirgi «Matematika oqıtıw metodikası» kafedrası usı «Ulıwma matematika» kafedrası tykarında óz jumısın dawam etti. Ulıwma matematika kafedrasınıń 1975-1976-jıllardaǵı aǵzaları(súwrette): J.Tólewov, T.S.Pak, M.G. Galekeev, S.Qallibekov, A.Otarov, S.Tańirbergenov, I.Madreyimov, O. Auezov, A.Jalalov, A.Matmuratov, K.Uzakov.

1976-1990-jıllar aralıǵında Qaraqalpaqstanda tek ǵana bir joqarı oqıw ornı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti jumıs isledi. Bul dáwir ishinde matematika pániniń rawajlanıwına Moskva, Kiev, Novosibirsk, Krasnoyarsk, Tashkent h.t.b. ilim oraylarında bilim alıp kelgen jas matematik-oqıtıwshılar óz úleslerin qostı. Ótken ásirdiń 90-jıllarında, 15 ten artıq usınday joqarı kvalifikaciyalı kadrlar professor-oqıtıwshılar qatarına kelip qosıldı. Qaraqalpaq mámleketlik universitetiniń matematika fakultetinde 4-5 matematika pánine tiyisli, kafedralar jumıs isledi. Bul waqıtları, usı qatarlar avtorı «Matematikalıq analiz» kafedrası baslıǵı, sońınan kóp jıllar dawamında fizika-matematika hám matematika fakulteti dekanı lawazımında miynet qıldı. 2000-jıllarǵa kelip kafedralarda ilim doktorları (N.Uteuliev, S.Qosbergenov) payda boldı.

1976-jıldan baslap usı dáwirge shekemgi QMU deǵı matematika iliminiń rawajlanıwı basqıshların sáwlelendiretuǵın óz aldına maqala jazıw maqsetke muwapıq dep esaplayman.

1990-jıldıń 1-sentyabr kúni Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutu qaytadan ashıldı. Bul institutnıń injener-pedagogika fakulteti quramında matematika-informatika kafedrası jumıs basladı.

1996-jılı fakultet quramında joqarı matematika, matematikanı oqıtıw metodikası, Informatika hám esaplaw texnikası kafedraları bar edi.

1999-jılı 24-avgust kúni «Joqarı matematika» hám «Matematikanı oqıtıw metodikası» kafedraları biriktirilip, «Ulıwma matematika» kafedrası atı menen ataldı. Kafedranı docent S.Tańirbergenov (1999-2002jj, 2007-2012jj), docent M.Qasimov (2002-2007jj), docent J.Seypullaev (2012-2014jj), docent T.Qurbanbaev (2014-j) hám 2014-2015 jılları fizika-matematika ilimleri kandidatı A.Xodjanıyazov basqardı.

2015-jılı «Ulıwma matematika» kafedrası «Matematika oqıtıw metodikası» kafedrası dep qayta ataldı. 2015-2016-jılları kafedraǵa fizika-matematika ilimleri kandidatı G.Qaypnazarova basshılıq etti.



2016-jıldan baslap búgingi kúnge shekem «Matematika oqıtıw metodikası» kafedrasın professorı B.Prenov basqarıp kelmekte. 2017 jıldı kafedrada 28 professor-oqıtıwshı jumıs islep, ilimiy dárejililik 28,5% bolǵan. Sol dáwirden baslap Respublikada ilimge, bilimge degen kóz qarastıń keskin ózgeriwi, bul baǵdarda Prezidenttiń bir neshe pármanları hám qararlarınń shıǵıwı hám usı tiykarda alıp barılǵan salmaqı jumıslardıń nátiyjesinde kafedrada ilimiy dárejege iye professor-oqıtıwshılardı tayarlaw, oqıw resursların jaratıw, oqıtıwdıń mazmunına itibar kúsheydi. Sonıń nátiyjesinde kafedranıń ilimiy potentsialı jıl sayın ósip bardı. Solay etip, házirgi waqıtta kafedra quramında ulıwma 50 ge jaqın professor-oqıtıwshı bolıp, olardan 35 professor-oqıtıwshı tolıq shtatta jumıs isleydi hám kafedra ilimiy dárejililigi 50% ten joqarı kórsetkishke iye.



Kafedra, búgingi kúnde, matematika páninen dúnyadaǵı xalıqaralıq reytinglerde joqarı orınlardı iyelep turǵan, bir neshe joqarı oqıw orınları menen baylanıstı

jolǵa qoyǵan. Olardan Novosibirsk mámleketlik universiteti, Sibir Federal universiteti, Kazan Federal universiteti, Al – Farabi atındaǵı Qazaqstan mámleketlik universiteti, Gumilev atındaǵı Evraziya mámleketlik universiteti, Ózbekstan milliy universiteti, Urgench mámleketlik universiteti, Qaraqalpaq mámleketlik universitetlerin atap kórsetiw múmkin. Búl atap ótilgen universitet professor-oqıtıwshıları institut talabalarına online-offline kóriniste sabaq berip kelmekte. Sonday-aq, kafedranıń professor-oqıtıwshıları, búl - dúnyanıń jetekshi universitetlerinde, tájiriye almasıw, bilimin jetilistiriw kursların ótip atır.

Kafedranıń professor-oqıtıwshıları matematikadan ziyrek talabalar menen islesiwdi de yolǵa qoyǵan, sonıń nátiyjesinde songı jılları bir neshe talabalar ataqı stipendiyalardı, institut tariyında birinshi márte matematikadan xalıqaralıq olimpiadalarda siylı orınlardı, jeńip alıwǵa eristi.

Adette, bolajaq ilimpazdı óz tarawı boyınsha jumıs alıp baratuǵın ilimiy seminarlar jetilistiredi, shınıqtıradı.

Kafedrada «Matematikanıń teoriyalıq hám onı oqıtıwdaǵı mashqalaları» (Ilimiy basshıları: B.Prenov, B.Otemuratov) atlı ilimiy-metodikalıq seminar, bir neshe jıllardan beri, úziliksiz islep, bul seminarda bolajaq ilim doktorları ózleriniń ilimiy jumısların hár tárepleme dodalap paydalı másláhátler alıp turıwı, nátiyjege unamlı tásin kórsetpekte.

Ilimiy dárejege iye joqarı kvalifikaciyalı kadrlar tayarlaw máselesinde kún tártibinde tur. Bir neshe jas oqıtıwshılarımız teoriyalıq matematikadan jetekshi universitetler ilimpazları basshılıǵında stajirovka, doktorantura hám aspiranturalarda ilimiy jumısları menen shuǵıllanbaqta. Mısal retinde, tek ǵana bir Novosibirsk mámleketlik universitetinde (Matematika baǵdarı boyınsha QS reytingte TOP100 de) úsh jas oqıtıwshımız teoriyalıq matematikadan aspiranturada oqıp atır.

Álbette, bul islengen jumıslar bugingi kúndegi mámleketimiz basshıları tárepinen joqarı bilimlendiriwge qoyılıp atırǵan talaplarǵa tolıq juwap beredi degen pikirden awlaqpız. Ele ilim hám bilimlendiriw tarawında islenetúǵın jumıslarınıń kóp, olardı ámelge asırıwǵa kafedramız professor-oqıtıwshıları ele de belsendilik kórsetedi dep oylayman.

Xámmege, Qaraqalpaqstanıń tunǵış ilim hám bilimlendiriw dárgayınıń 90 jıllıq bayramı qutlı bolǵay!

## PEDAGOGIKA ILIMLERI

### Pedagogika teoriyası hám tariyxı

#### BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGINI MATN TAHLILI ASOSIDA BAHOLASH

**N.Abdurazakova** – *stajyor o'qituvchi*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

**Tayanch so'zlari:** ta'lim olish, baholash, bilim, ko'nikma, malaka, milliy dastur, integratsiya, ona tili, kriteriya.

**Ключевые слова:** обучение, оценка, образование, опыт, национальная программа, интеграция, родной язык, критерия.

**Key words:** education, assessment, knowledge, skill, qualification, The national program, mother tongue, integration.

So'nggi yillarda xalq ta'limi tizimini modernizatsiya qilish ta'lim mazmuni va shaklida ko'plab yangilanishlariga asos bo'ldi. Mazkur yangilanishlarda o'quvchilarning davlat ta'lim standartida ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishini to'laqonli ta'minlash ta'lim sifatini baholashda asosiy mezon vaziyasini o'tamoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-dekabrda "Umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy tekst tizimini joriy etish to'g'risida"gi 646-son qarorining qabul qilinishi ayni muammoning dolzarbligidan dalolat beradi. Darhaqiqat, ta'lim tizimida baholash ta'lim natijasini belgilashning yetakchi omilidir. Baholashning lug'aviy etimologik ma'nosini "O'zbekiston pedagogic ensiklopediyasi so'zligi"da quyidagicha qayd etilgan: "Baho-(forscha baho-narx, qiymat)-o'qituvchi yoki talabaning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini hamda shaxsiy sifati darajalarini belgilashning shartli ifodasi" [1:65].

"Baholash,- deb yozadi metodist K.Jalilov, - biror bir dotenning (bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalar majmuining) ta'lim oluvchilardagi shakllanganlik darajasini o'lchash jarayoni" [2:89]. Ta'lim natijasini baholash esa ilimiy-metodik jihatdan sohaga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'zining chuqur aksini topgandir. Jumladan, Milliy o'quv dasturining "Filologiya fanlari tavsifi va integratsiyasi" da nazorat kriteriyalariga asos bo'ladigan umumiy talablar belgilab berilgan. Bu talablar negizida boshlang'ich ta'lim alohida o'rin tutadi. Boshlag'ich sinfda deyiladi mazkur dasturda, - o'quv savodxonligi o'quvchilarda to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirishi tevarak-atrof, bolrlq haqidagi bilimlarini kengaytirishi, ularning nutqi va tafakkurini o'stirishi, matndagi g'oya va obrazlarga og'zaki hamda yozma shakllarda munosabat bildirish, o'zlashtirilgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilish" [3:87].

Ko'rinadiki, boshlang'ich sinflarda o'quvchilar nutqi va tafakkurini rivojlantirishdek global muammo shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'quvchilarni o'zligini anglash, dunyoqarashini shakllantirish, e'tiqodini mustahkamlash, kishilik duyosi haqidagi tasavvur-tushunchasini boyitish orqali hayotga tayyorlashda ona tili va o'qish savodxonligi ta'limi zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi va uning yechimi bevosita boshlang'ich ta'lim sifati hamda samaradorligi natijasini baholashga borib taqaladi.

Milliy dasturda boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi orqali o'quvchilarning nutqi va tafakkurini rivojlantirishga doir nazorat shakllari va ularni o'tkazishda belgilangan me'yorlarga amal qilish nazarda tutilgan.

O'quvchilarning o'qish savodxonligini aniqlashda kundalik o'quv faoliyati maqsad mohiyati va mavzu xarakteridan kelib chiqib og'zaki savol-javob, ijodiy topshiriqlar, test va matn ustida ishlash belgilangan.

Afsuski, an'anaviy ta'limda baholashga yillar davomida qat'iy amal qilinmadi. O'quvchilarning og'zaki nutqini baholashda matn mazmunini qayta hikoyalatish va shunga yarasha savol-javobdan nariga o'tilmadi, o'quvchilar tafakkurini boyitishga doir mantiqiy topshiriqlarga kam o'rin berildi, diktant va bayon kabi yozma ishlarda tinish belgilanishining ishlatilishidagi turli holatlar hisobga olinmasdan, uning sonini sanash bilan cheklanildi. Uslubiy xatolarga jiddiy e'tibor berilmadi. O'quvchilarning bilimini, asosan,

imloviy xatolariga qarab baholashga o'tib olingan edi. O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni bartaraf etish bo'yicha mashqlar doimiy tashkil etilmadi. Kuzatishlarga qaraganda ayni kamchiliklar turli shakl va darajada hozir ham davom etayotgani davlatimiz rahbarining chiqishlarida qayta-qayta tilga olinishi bejiz emas. Bizningcha, buning obyektiv-subyektiv sabablaridan biri maktab dasturidan o'rin olgan mavzular va darsliklarda o'quv materiallarining DTS talablariga to'la javob bera olmasligidir. Qolaversa, fanga ajratilgan soat ham uni DTS talablari darajasida bajarish uchun imkonsizdir. Jahon ta'lim tizimi asosida maktab ta'limiga zamonaviy yondashuvlar o'quvchilarning o'quv-biluv ko'nikmalarini baholash usullarini takomillashtira borishni taqozo etadi. Shu tufayli hozirda maktab ta'limiga formative baholash va summativ baholash tizimining kiritilishi ona tili va o'qish savodxonligi ta'limida alohida o'rin tutadi.

Aslini olganda, kundalik nazorat formativ nazoratga, bo'lim va chorak oxiridagi nazorat summativ nazoratga to'g'ri keladi. Biroq manbalarda hozirgi baholash tizimida "inson omilini imkon darajasida minimallashtirish ko'zda tutilganin"i qayd qilingan" [4:87]. Formativ baholash har bir darsda o'quvchilar bilimining baholanib borishini taqozo etadi. Mazkur yondashuvning asl mohiyati o'quvchilar bilimini baholashgina emas, balki o'qituvchining ham o'z darsini baholashga, unga qanday o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni o'ylab ko'rish maqsadining ko'zda tutilishi bilan xarakterlanadi.

Ta'limda o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini oshirishda ularni muntazam ruhlantirish, bilimlarni egal-lashga kuchli havas va ishtiyoq uyg'otish talab etiladi.

Formativ baholashdagi rag'batlantirish usuli o'quvchilarning ta'limiy maqsadi tomon ildam intilishga imkon beradi, o'quvchi o'quv - o'rganishga har qashongidan yaxshiroq harakat qiladi.

Summativ baholash ma'lum davrda yoki ma'lum bob yuzasidan berilgan bilimlar darajasini aniqlashga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Fikrimizsha, ta'lim jarayonida qaysi bir usulda bo'lmasin o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini doimiy ravishda hisobga olib borilishi ta'lim sifatini baholashning tub mohiyatini tashkil etadi. Ta'limda bundan ko'zlangan maqsad ikkita: biri o'quvchining jamiyat a'zosi sifatida hayotda o'z yo'lini topishiga, kelajakda farovon yashashi uchun zarur bo'lgan kasb-korni, mutaxassislikni egallashiga ko'maklashish bo'lsa, ikkinchisi o'qitish jarayonining sifatini oshirish, ya'ni o'quv dasturi, darslik va o'qitish metodlarining muvofiqligini aniqlash hamda ularni takomillashtirib borishdir. Bu esa o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini muayyan kriteriyalar asosida hisobga olib borishni taqozo etadi.

Pedagogik faoliyatimiz davomida boshlang'ich sinflarda ta'lim sifatini aniqlashning quyidagi omillarini oldindan belgilab olish zarur degan xulosaga keldik:

1. "Ona tili ham o'quv savodxonligi" darsliklaridagi o'quv materiallarining o'quv-uslubiy ta'minotini ta'minlash.

2. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish darajasini belgilash kriteriyalarini ishlab chiqish.

3. O'qituvchining pedagogik mahoratini, o'quv materiali ustida o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlash qobiliyatini

rivjilantirishga doir metodik tavsiyalar tayyorlash.

Mazkur mezonlar asosida 2- sinf “Ona tili ham o‘quv savodxonligi” darsligi o‘quv materiallarining dastur talablariga ko‘ra berilishi ta‘lim sifati va samaradorligiga erishishning muhim sharti sifatida ko‘zdan kechirildi. Natijada darslik matnlarining badiiy saviyasi hikoya sifatida kiritilgan “Ferma”, “Er yurak odam” kabi gazeta maqolasi darajasidagi talay matnlarning badiiyatdan xoliligi, “Ot”, “G‘ozlar”, “Bola ham oq uloq”, “Kim bo‘lsam ekan?”, “Sog‘inamiz qishda-da”, “Bahor kelsa” kabi ko‘plab she‘rlarning ko‘rsatilmaganini ma‘qullab bo‘lmaydi.

Hozirgi ta‘lim jarayonini kuzatishimiz davomida o‘quvchilarni darsga jalb etishda mushkulliklar mavjudligi, xususan, o‘qituvchilarning o‘qitish metodi va usullaridan samarali foydalana olmayotganliklarining guvohi bo‘ldik. O‘qituvchilarning metodik tayyorgarligiga ma‘sul malaka oshirish institutlari, maktab ma‘muriyati o‘qituvchilar faoliyatiga ta‘sir qiluvchi holatlarni o‘rganishi va ularni yaxshilashga doir chora-tadbirlar ishlab chiqishlari umumiy o‘rta ta‘lim oldidagi dolzarb muammolardandir.

“Ta‘lim sifati baholash xalqaro dasturlarida ishtirok etish, - deb yozadi A.Matkarimov,- milliy ta‘lim sifati baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro dasturlarda qo‘llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi” [1:36].

Shunga ko‘ra aytish joizki, boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligiga erishish, ta‘lim sifati va o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasi bilan belgilanadi. O‘qish savodxonligini nazorat qilishda o‘qish ko‘nikmalarini ta‘minlovchi quyidagi omillar nazarda tutiladi:

1. O‘qish savodxonligi dasturiga kiritilgan badiiy asarlarning mavzu doirasi o‘quvchilar hayoti va yosh xususiyatlari bilan hamohang bo‘lishi, hajmi, qurilishi murakkab bo‘lmashligi, badiiy jozibadorligi bilan o‘quvchini o‘ziga tortishi.

2. O‘quv-biluv topshiriqlari o‘quvchilarning o‘qish konikmalarini takomillashtirish, mantiqiy fikirlash, og‘izaki va yozma nutqini o‘stirishga xizmat qilishi.

3. Darslikdagi o‘quv materiallari yuzasidan o‘quv-biluv topshiriqlarining mazmun-mundariyasini o‘quvchi shaxsini shakllanishiga yo‘naltirilishi, dunyoqarashini boyitish va e‘tiqodini mustahkamlashga qaratilishi.

4. Metodik qo‘llanmalarda har bir mavzudan ko‘zlangan maqsadga erishishni ta‘minlovchi aniq yo‘l-yo‘riqlar tavsiya qilinishi – metodik qo‘llanmalar o‘qituvchining va o‘quvchi o‘quv faoliyatining nazorat shakllari xarakterida ishlab chiqilishi.

5. O‘quvchilarning savodxonligini BKMLarini nazorat qilish va baholash yo‘riqnomasi har bir fanning mazmun-mundariyasi doirasida sinflar kesimida aniq belgilanishi va h.k.

Amaldagi mavjud ta‘lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini jahon standarti (PIRLS) talablari asosida monitoring qilishda o‘qish va matnning tushinish sifati aniqlash ko‘zda tutilgan. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini kundalik dars jarayonida shakllantirish va nazorat qila borishni taqozo etadi. Bu xildagi nazorat turida o‘qituvchi matn tahlili yuzasidan individual tarzda o‘quvchilar ishini kuza-tadi, o‘zlashtirilgan va o‘zlashtira olmagan ko‘nikmalarini qayd etadi hamda shunga yarasha chora-tadbirlar belgilash orqali o‘quv-biluv motivatsiyasiga urg‘u beradi.

Dotsent H.Bakiyeva 4-sinf o‘qish darslarida adabiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish“ nomli metodik qo‘llanmasida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini PIRLS dasturi asosida aniqlashga qaratilgan. Ilmiy izlanishlarida o‘quvchilarning badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o‘qish qobiliyatini quyidagicha 4ta mezon

bo‘yicha baholaydi:

Matnda berilgan ma‘lumotni aniqlash;

Matn mazmuni yuzasidan xulosalarni shakllantirish;

Matnga tegishli ma‘lumotlarni talqin qilish va umumlashtirish

Matn mazmunini va uning til xususiyatlari hamda tuzilishini tahlil qilish va baholash” [1:54].

Olimaning mazkur fikr-mulohazalarini qo‘llab-quvvatlagan holda aytish kerakki, badiiy matndan shunchaki ma‘lumot emas, balki yetakchi g‘oya va uning badiiy ifodasi aniqlanishini ham qayd qilmoq joiz. Buning uchun “o‘quvchilarning kommunikativ savodxonligini (so‘z boyligi, ijodiy tafakkur darajasini kengaytirish, ijtimoiy muloqot – yozma va og‘zaki ifodali fikrlash mahoratini yuksaltirish, mustaqil matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish) oshirish...matn turlarini farqlash (nazmiy, nasriy, ilmiy, badiiy, publisistik, Grammatik, ma‘rifiy, badiiy-ramziy, xat-hujjat, monologik, diologik)ga o‘rgatish” [5:90] metodik zaruratdir.

PIRLS dasturida faoliyatini baholash tizimi o‘quv topshiriqlarining xususiyatidan kelib chiqib belgilanadi. Kuzatilishlarga qaraganda, o‘quv topshiriqlarini qiyidagi yo‘nalishlarda tuzish ijobiy samara beradi:

1. To‘g‘ri javobni aniqlash bilan bog‘liq topshiriqlar.

2. Badiiy asar sujeti voqealari tasvirining ketma-ketligi bilan bog‘liq topshiriqlar.

3. Matnning leksik-uslubiy xususiyatlari bilan bog‘liq topshiriqlar.

4. Matnning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini tahlil qilish bilan bog‘liq topshiriqlar. Mustaqil fikirlashga oid topshiriqlar.

5. Nutq va tafakkur uyg‘unligiga oid topshiriqlar.

PIRLS nazoratida mazkur topshiriqlarning murakkabligiga qarab o‘quvchilar bilimiga 1 balldan 3 ballgacha berilishi qayd etilgan. Matn tahliliga bunday yondashuv o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligi bo‘yicha belgilangan maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi.

PIRLS nazorati asosida asar tahlili o‘quvchilarni formativ baholash mezonlarining namunasi sifatida ham qaralishi mumkin. Shu maqsadda uyushtiriladigan badiiy asar tahlilining ta‘limiy ahamiyati quyidagilarda o‘z aksini topadi:

1. Asarda tasvirlangan sujet voqealarining kompozitsion jihatdan izchilligi va o‘zaro sabab-natija bog‘liqligini aniqlashga doir bilimlarning o‘zlashtirilishini ta‘minlaydi. Adabiy-nazariy tushunchalar bilan qurollantiradi, darsning samaradorligini oshiradi.

2. Badiiy matndagi jumla, ibora va so‘zlarning lug‘aviy ma‘nolari va uslubiy vazifalarining tushinilishli o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini rivojlantirishga asos bo‘ladi.

3. Matndagi ifodalangan yetakchi g‘oyani aniqlash orqali hayotiy, mantiqiy xulosalarga kelishi o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi, jamiyatda o‘z xatti-harakatini boshqarishga tayyorlaydi, dunyoqarashini kengaytiradi.

Zero, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ta‘lim natijalarini diagnostika va korrekciya qilishning ilmiy asoslangan yechimini topish o‘quvchi DTS talablari bo‘yicha belgilangan bilim va ko‘nikmalarini egallash bilan bir qatorda, o‘z bilimlarini boyitish va shu orqali intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan bir qatorda dars davomida mantiqiy mashqlarga bog‘liq o‘quv qurollari, mevalar, mehnat qurollari, qushlar, uy hayvonlari, baliqlar, yovvoyi hayvonlar, poliz ekinlari kabi turmush talabiga mos mavzular ustida ishlash ham o‘quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

#### Adabiyotlar

1. O‘zbekiston pedagogik ensiklopediyasi so‘zligi. -T.: «Chashma print», 2019.

2. Jililov K. Baholash nazariyasi asoslari. -T.: «Akademnashr», 2022.

3. Filologiya fanlari tavsifi va integratsiyasi. // MO‘D. – T.: 2020.

4. Matkarimov A. PISSA xalqaro baholash dasturi asosida o‘quvchilarning tayanch kompetentsiyalarini shakllantirish. PFFD (PhD). Avtoref. –Chirchiq: 2022.

5. Bakiyeva H. 4-sinf o‘qish darslarida adabiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish. –T.: «Nodirabegim», 2021.

**REZYUME.** Maqolada boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini matn tahlili asosida baholash tizimi yoritilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье описана оценка навыков чтения учащихся начальных классов на основе анализа текста.

**SUMMARY.** The article describes assessment of reading skills of elementary school learners based on text analysis.

## ТУРЛИ БИЛИМ СОҲАЛАРИГА НИСБАТАН КОМПЕТЕНЦИЯНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МОДЕЛЛАРИНИ ЯРАТИШ МЕТОДОЛОГИЯСИ

**Т.Агжанов** – катта ўқитувчи

*Нукус кончилиқ институти*

**Таянч сўзлар:** методология, моделлар, ахборот маданияти, тизим, тадқиқот, муҳандислик тайёрлаш.

**Ключевые слова:** методология, модели, информационная культура, система, исследование, инженерная подготовка.

**Key words:** methodology, models, information ethics, system, investigation, engineer training.

С.Г.Антонованинг таъкидлашича, мутахассиснинг ахборот маданияти жамиятнинг ахборот маданиятига боғлиқ ҳолда шаклланади, бу эса, унинг фикрига кўра, инсон ўз ахборот маданиятини шакллантиришнинг муайян босқичларида ўзлаштирган, инсонни ривожлантириш жараёнида эгаллаган билим ва кўникмалар тизимидир" [1:82-88]. Дарслик каби ўқув нашрлари жамият ва шахснинг ахборот маданияти ўртасидаги ўзаро алоқани ўрнатишнинг самарали усули бўлиши мумкин. Бу фаолиятнинг турли соҳаларига тегишли бўлган фанлар бўйича ўқув нашрлари мазмунини моделлаштириш учун зарурдир. Бунинг учун жамият ахборот маданиятининг ушбу фаолият соҳаси учун муҳим бўлган сифат ва микдорий хусусиятлари ва кўрсаткичларига таяниш ва унинг ҳозирги ҳолатини ҳисобга олган ҳолда ушбу фаолиятнинг турли жиҳатларида иш тузилишини кўриб чиқиш керак. Университет ўқитувчиси ўқув жараёнини имкон қадар ҳар бир талабанинг индивидуал хусусиятларини ҳисобга оладиган тарзда ташкил эта олиши муҳим. Бундан ташқари, билимларнинг турли соҳалари ва фаолият соҳаларига нисбатан бундай моделларни яратиш методологиясини ишлаб чиқиш керак.

Илмий билиш усули сифатида моделлаштиришдан фойдаланиш узоқ вақтдан бери маълум. Бу усул универсал бўлиб, объектнинг ҳақиқий намоён бўлиши ўрнига унинг моделини ўрганишдан иборат. Махсус объект мавжуд бўлиб, унда ўрганилаётган объектнинг тўлиқ аниқланган хусусиятлари уни ўрганиш учун қайта яратилади.

В.В.Краевскийнинг фикрига кўра, “модел тадқиқот объектнинг индивидуал жиҳатлари ва функцияларини тақрорлайдиган элементлар тўпламидир” [2:326].

Е.С.Репатсевичнинг фикрига кўра, “модел, ўрганилаётган объектнинг аналогически ўрнини босувчи ҳисобланади. Моҳиятан, модел - бу ўрганиш учун бошқа тизим ҳақида маълумот олиш усули қўлланиладиган тизим” [3:720].

Кўпчилик олимлар моделни ўрганилаётган объектнинг асл деб аташ мумкин бўлган қандайдир тасвири деб ҳисоблашади. Бундай ҳолда, модел асл нухани фақат қисман, фақат тадқиқот мақсади ва воситаларига қараб алоҳида қиймат ва аҳамиятга эга бўлган сифатларда акс эттириши мумкин. Оддий шароитларда моделни ўрганиш туфайли олиш жуда қийин бўлган ўрганилаётган объект ҳақида янги маълумотларни олиш учун оригинал ва модел ўртасида чамбарчас боғлиқлик мавжуд.

Моделлаштириш мураккаб объектларни ўрганиш усули бўлиб, бунда уларни соддалаштириш орқали ўрганилади. Бошқа соддалаштирилган моделлардан фойдаланиш туфайли турли билим соҳаларидаги назарий тадқиқотлар натижаларининг тўғрилигини янада аниқроқ текшириш мумкин. Модел тушунчаси бу усулда асос бўлади.

Моделлаштиришни апробация қилиш турли хил ўқув материалларини ишлаб чиқишда қўлланиладиган ўқув тадқиқотлари соҳасига кириб келди. Бу турли соҳалар бўйича мутахассислар тайёрлаш жараёнида педагогик жараёнлар ва омиллар ўртасидаги объектив

қонуниятлар ва муносабатларни ўрганиш учун янги уфқ ва истикболларни очди.

Юрий Константинович Бабанский педагогик тадқиқотларда моделлаштиришдан фойдаланиш визуализациянинг энг юқори ва ноёб шакли, шунингдек, ахборотни тизимлаштиришнинг самарали воситаси деб ҳисоблайди [8:250].

Таълим тадқиқотида бажариладиган функцияларга қуйидагилар қиради: тушунтириш, башорат қилиш ва иллюстратив. У тизимнинг ишлашини кўрсатиши, унинг асосий қоидалари ҳақида гапириши ва ишнинг натижасини аниқлай олади, бу содир бўлиши керак бўлган нарсага мос келади. Бунинг ёрдамида тизимнинг ишлашига керакли ўзгартириш ва тузатишлар киритиш ва шу билан уни оптималлаштиришга ҳисса қўшиш мумкин бўлади.

Кўпинча компетенцияга асосланган ёндашувдан фойдаланган ҳолда ахборот технологиялари соҳасидаги мутахассисларнинг муҳандислик тайёргарлигини моделлаштиришни ишлаб чиқиш ва ўтказишга қаратилган илмий-тадқиқот ишларининг етишмаслиги мавжуд.

Таҳлилларимиз орқали биз ахборот технологиялари муҳандисларининг касбий маҳоратини ривожлантириш асосидаги асосий хусусиятлар ва жараёнларни ҳар томонлама кўриш ва чуқур тушунишни таъминлашни мақсад қилганмиз. Бу компетенцияга таъсир этувчи элементлар ўртасидаги муносабатлар ва ўзаро таъсирларни ўрганишга, шунингдек, уни шакллантириш жараёнида педагогик тенденция ва қонуниятларни аниқлашга алоҳида эътибор берилади. Бунинг учун мақсад, вазифалар, тамойиллар, таълим шароитлари ва баҳолаш мезонлари каби асосий элементлар ва хусусиятларни ўз ичига олган моделни ишлаб чиқиш таклиф этилади. Ушбу модел талабаларнинг билим олиш самарадорлигини оширишга ва касбий кўникмаларнинг ривожланиш даражасини объектив ўлчашга қаратилган.

Биз ўз ишимизда ушбу компетенцияни шакллантиришга ёрдам берадиган технологияларни моделлаштириш учун тизимли ёндашувдан фойдаланамиз. Тизимли ёндашув тўлиқ қўлланилиши мумкин ва кенг қамровли ва универсал таъсирга эга. Россиялик олимлар, масалан, В.П.Беспалко, Н.В.Кузмина ва Ю.Г.Татур ўз тадқиқотларини педагогик тизимларга бағишлади.

Тизимли ёндашув тушунчаси бутун тизимни лойиҳалаш, иш фаолиятини ташкил этиш ва баҳолашни қамраб олади. Бунда қуйидагиларни эътиборга олиш зарур: ҳар бир тизим, ўз навбатида, каттароқ тизимнинг бир қисми бўлган ҳолда ўзининг таркиби орқали намоён бўлади; Тизимнинг ишлаши кетма-кет ҳаракатлар кетма-кетлиги сифатида ифодаланиши мумкин: кириш - ўзгартириш – чиқиш.

Ахборот технологиялари соҳасида муҳандиснинг касбий маҳоратини ривожлантиришга қаратилган назарий моделни ишлаб чиқиш учун қуйидаги асосий элементлар асос бўлади:

– педагогик тадқиқотларда ва таълим тизимини яратишда тизимли моделлаштиришдан фойдаланиш, бу таълим тизими элементларининг тузилиши ва ўзаро

таъсирини ўрганиш, шунингдек, таълим соҳасидаги конуниятларни аниқлаш имконини беради;

– таълим тизимининг таркибий қисмларини кластерли таҳлил қилиш, бу уларнинг роли ва ўзаро таъсирини чуқурроқ тушунишга ёрдам беради;

– педагогик жараён ва ҳодисаларни ҳар томонлама таҳлил қилишни, шунингдек мақсадли компетенцияни баҳолаш мезонларини шакллантиришни таъминловчи касбий қобилиятларни ривожлантириш жараёнига тизимли ёндашувни қўллаш;

– ўрганилаётган компетенцияни ривожлантириш жараёнига фанлараро ёндашувни интеграциялашувни, бу турли фан ва таълим соҳаларидаги билим ва назариялардан фойдаланишни ўз ичига олади.

– ахборот технологиялари соҳасида муҳандисларни ўқитишнинг қийматга ва компетенцияга йўналтирилган усуллари.

Ахборот технологиялари соҳасида муҳандиснинг касбий компетенциясини шакллантириш жараёни моделилаштириш тизимидаги услубий позициялар ва йўналишларни аниқлаш орқали биз ушбу модели бевоқиф асослашга ўтишимиз мумкин, у қуйидаги блокларни ўз ичига олади: мақсад, мазмун, ташкилий-процессуал, педагогик шартлар мажмуи, натижа-мезонлари.

Касбий таълим мазмуни ахборот технологиялари соҳасида муҳандиснинг касбий компетенциясини шакллантиришнинг ҳал қилувчи омили ҳисобланадими? Мутлақо ҳа. Талабалар учун касбий тайёргарлик мазмунини шакллантириш учун белгилаш ва амалга ошириш жараёнида минтақавий компонентга алоҳида аҳамият берилади. Чунки у ҳудудларнинг ахборот технологиялари соҳасига ихтисослашган муҳандисларга бўлган эҳтиёжини тартибга солади.

Шунга кўра, ўқитувчилар педагогик мулоқот усуллари ва таълим технологияларидан фойдаланган ҳолда ўқувчилар билан биргаликда таълим мазмунини ишлаб чиқади.

АТ-муҳандиснинг касбий компетенциясини самарали шакллантиришни таъминлаш учун зарур педагогик шарт-шароитларни яратиш керак. Бу жамиятнинг ушбу соҳадаги мутахассисларнинг касбий тайёргарлиги даражасини ошириш зарурати билан боғлиқ.

Жамиятнинг мутахассисларга бўлган эҳтиёжининг ўзгариши муносабати билан уларни тайёрлашга ёндашувни ўзгартириш зарур.

АТ соҳасида муҳандиснинг касбий компетенциясини ривожлантириш учун аввало ҳал қилинадиган мақсад ва вазифаларни аниқлаш, шунингдек, маълум тамойилларга амал қилиш керак. Педагогик мулоқотнинг бир қисми бўлган функцияларга мутахассисларни касбий тайёрлаш мазмунини амалга ошириш шакллари, усуллари ва технологиялари киради. Ушбу соҳада, кўриниб турибдики, муҳандиснинг шахсиятини ривожлантириш жараёни унинг умумий касбий фаолиятининг асосини ташкил этувчи билим ва қадриятларнинг бутун мажмуасини ўзлаштириши кераклигидан бошланади.

Гиперматли технологияларни ўз ичига олган электрон дарсликда маълумотларнинг етарли даражада

намоиш этилишини таъминлаш учун турли хил ИКО моделларидан фойдаланиш керак. Бу ҳар бир фойдаланувчининг ахборот маданиятини шакллантириш учун зарур ва етарли ҳажмдаги маълумотларга риоя этилишини таъминлабгина қолмай, балки ўз соҳаси бўйича малакали бўла оладиган малакали мутахассисни шакллантиришга ҳам хизмат қилади. Ўқув жараёнини шундай ташкил эта олиш, ўрганиш қизиқарли ва қулай бўлиши муҳимдир.

Ахборот-коммуникация тизимларини яратиш жараёнида библиографик усуллардан фойдаланиш универсал ечим эмас. В.А.Кривова томонидан ишлаб чиқилган ўқув қўлланмада асосий вазифа талабаларга ахборот технологияларининг энг сўнгги ютуқларини, умумий маданий ва касбий кўникмаларини шакллантиришни, шунингдек, фикрлашнинг гуманистик принципларини умумлаштиришни ўргатишдан иборат [4:7]. Тадқиқот муаллифларининг фикрича, бундай турдаги тадқиқот натижалари университет ўқитувчиларига ахборот технологияларини ўқитиш услуб ва усуллари мувофиқлаштиришда ёрдам бериши мумкин.

О.Б.Сладкова ўз тадқиқотида ахборот-коммуникация кўникмаларини ривожлантириш учун мониторинг муҳимлигини таъкидлаб, унинг ахборот муҳитида одамларнинг ўзаро таъсирини таҳлил қилиш ва башорат қилишда муҳимлигини таъкидлайди [7:117-119]. Бизнинг фикримизча, ахборот технологиялари мутахассислари учун АТ-дан фойдаланишни таҳлил қилиш ва башорат қилиш қобилияти уларнинг касбий тайёргарлигининг асосий қисмидир. Талабалар глобал ахборот маконидан хабардор бўлишлари, компьютер технологиялари соҳасида аниқ билимларга эга бўлишлари ва ахборотдан фойдаланиш маданиятини намоён этишлари учун ахборотни қайта ишлаш ва ҳимоя қилиш усуллари эгаллашлари керак. Геннадий Николаевич Полутин ахборот технологияларини ўзлаштириш даражасини мутахассиснинг турли манбалардан фойдаланган ҳолда керакли маълумотларни топиш, муҳим маълумотларни танлаш, уларни таҳлил қилиш ва олдиндан белгиланган мақсадларга эришиш учун ўз касбий вазифалари доирасида самарали ишлатиш қобилияти деб белгилайди [5:47-49].

Ч.С.Хошимовнинг сўзларига кўра «Ахборот таълим муҳити доирасида ташкил этилган ўқув жараёнининг муҳим афзаллиги таълимнинг устувор йўналишларидан бирини - турли педагогик технологияларни уйғунлаштирган ҳолда (ҳамкорликда ўрганиш, кўп босқичли ўрганиш, ўзгарувчан таълим, ўрганишни индивидуаллаштириш, лойиҳа фаолияти, контекстли таълим технологияси, модулли ўқитиш технологияси, ўз-ўзини тарбиялаш, ўз таълим йўлигини лойиҳалаш ва бошқалар) ўқувчиларга йўналтирилган таълимни ташкил этишни амалга ошириш имкониятидир [6:34-36].

"Ахборот маданияти" мавзусидаги мақолаларни кўриб чиқиш ва адабиётларни таҳлил қилиш шуни кўрсатдики, мутахассислар фаолият соҳаси ва унинг шаклланиш соҳасига қараб АК таърифи бўйича турли хил фикрларга эга.

#### **Адабиётлар**

1. Антонова С. Г. Информационная культура личности: Вопросы формирования // Высшее образование в России. 1994. №1. – С. 82-88.
2. Краевский, В.В. Соотношение педагогической науки и практики [Текст] / В.В. Краевский. -М.: 1978. –С. 326.
3. Педагогика. Большая современная энциклопедия [Текст] / Рапацевич Е.С. -Минск: «Современное слово», 2005. –С. 720.
4. Кривова В.А. Профессиональная подготовка студентов на лабораторных занятиях // Информатика и образование. – 2001. № 7. – С. 7
5. Полутин Г.Н. Обще учебные умения – основа самообразовательной деятельности студента // Среднее профессиональное образование. № 9. 2001. -С. 47-49.
6. Хошимова Ч. С. Проектирование современной информационной образовательной среды на основе дидактических возможностей Web-технологий // Молодой ученый. 2017. №9. -С. 34-36.
7. Сладкова О.Б. Роль мониторинга в формировании информационной культуры личности. //Информационное общество: культурологические проблемы: Материалы междунар. науч. конф. – Краснодар: 1997. -С.117-119.

8. Бабанский, Ю.К. Оптимизация процесса обучения: общедидактический аспект [Текст] / Ю.К.Бабанский. -М.: Педагогика, 1977. -С. 250.

**РЕЗЮМЕ.** Мақолада, жамият ва инсоннинг маълумот маданияти билан муносиб муносабатларини таъминлашга ёрдам берувчи таълим нашрлари моделини яратиш методологияси масалалари кўриб чиқилган. Ушбу соҳа фаолияти учун аҳамиятли бўлган жамият маълумот маданияти хусусиятлари билан саноатдаги а хусусиятлар ва кўрсаткичларни эътиборга олиб, жорий ҳолатини ҳисобга олган ҳолда бу фаолиятнинг турли асослари бўйича фаолиятнинг тузилишини кўриб чиқарилади.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассматриваются методологические вопросы создания модели образовательных изданий, способствующих обеспечению соответствующих отношений между обществом и людьми, обладающими информационной культурой. Принимая во внимание характеристики и показатели отрасли с особенностями информационной культуры общества, что важно для деятельности данной сферы, рассматривается структура деятельности на различных основах этой деятельности с учетом сложившейся ситуации. ситуация.

**SUMMARY.** The article examines the methodological issues of creating a model of educational publications that help to ensure appropriate relations between society and people with information culture. Taking into account the characteristics and indicators of the industry with the features of the information culture of the society, which is important for the activity of this field, it considers the structure of the activity on various bases of this activity, taking into account the current situation.

## **BALALARDA KOORDINACIYALIQ QÁBILETLERDI RAWAJLANDIRÍWDA GIMNASTIKALÍQ ELEMENTLERDEN PAYDALANÍW ÓZGESHELIKLERI (5-6 JASAR BALALAR MÍSALÍNDÁ)**

**R.D.Allambergenova – tayanish doktorant**

*Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti*

**Tayanch so'zlar:** gimnastika, koordinatsion qobiliyat, sport, forma, obraz, jismoniy tarbiya, mashg'ulot, akrobatika, harakat funksiyalari, gimnastik elementlar.

**Ключевые слова:** гимнастика, координационные способности, спорт, униформа, имидж, физическая подготовка, тренировка, акробатика, двигательные функции, гимнастические элементы.

**Key words:** gymnastics, coordination abilities, sports, uniform, image, physical fitness, training, acrobatics, motor functions, gymnastic elements.

Balalıq hár bir insan ushın júdá zárúr dáwirlerden biri bolıp esaplanadı. Sebebi, insanniń fizikalıq jaqtan jaqsı jetilisiwine, salamatlıǵınıń bekkemleniwine, háreketshenlik qábiletleriniń qalıplesiwine, ulıwma dene mádeniyati, ádep-ikramlılıq pázıyetleriniń tárbiyalanıwına tiykar bolıwshı dáwir bolıp esaplanadı. Balalardıń salamatlıǵı hám fizikalıq jaqtan rawajlanıwına tásir etiwshı kópshilik faktorlar, social-ekonomikalıq, demografıyalıq, mádeniy, gıgienalıq h.t.b ishinde koordinaciyalıq qábiletlerin rawajlandırıwshı dene tárbiya procesi tásirshen kúshi boyınsha zárúr orın iyeleydi. Búgingi kúnde oqıw hám bilim alıwdıń intensiv kóleminin keñeyiwı mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń organizmindegi rawajlanıwdıń úziksizligin dene tárbiya shınıǵıwlarısız kóz aldımızǵa keltire almaymız.

Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń «Gimnastika sport túrlerin jáne de rawajlandırıw is-ilajları haqqında»ǵı Qararında «... balalardı, dene tárbiya, á sirese gimnastikaǵa tiykarlangan turaqlı dene shınıǵıwlarına qızıqtırıw hám shuǵıllanıw arqalı olarda jigerlilikti, qatánlıqtı, sonday-aq, ózin-uslap biliw ádebi hám fizikalıq pázıyetlerdi qalıplestiriw» [1] boyınsha wazıypalar belgilengen.

Balalardı mekteplerge qabil etiw procesin qadaǵalawshı alımlardıń pikirinshe 5-6 jasar balalarda awır keselliklerdiń ósiw tendenciyası kóbeyip atırǵanlıǵın aytıp ótedi. Jáne bir ádebiyatlarda bolsa, dene tárbiya shınıǵıwları tiykarınan belgili bir muǵdardaǵı háreket kónlikpelerin ózlestiriwge qaratılǵan bolıp, degen menen mektepke shekemgi jastaǵı balalarda tiykarǵı háreketshenlikti hám fizikalıq sıpatlardı nátiyjeli tárbiyalawǵa qatnası joq ekenligin kórsetedi.

Bunday pikirlerdi talqılawdıń nátiyjeleri boyınsha «Balalar baqshasında tálim hám tárbiya dástúri» menen islew turaqlı túrde tálim-tárbiya formaları hám onıń usıllarınıń birdey formada paydalanıwına alıp kelip, «pedagogikalıq dóretilshenliktiń imkaniyatların sheklep ǵana qoymastan, balanı tárbiyalawdıń jeke standartqa baǵdarlangan, rawajlanıwdıń individual ózgesheliklerin esapqa alıw» [2] itibardan shette qalıp baratırǵanlıǵın kórsetedi.

Bunnan kórinip turǵanıday 5-6 jastaǵı balalardı fizikalıq jaqtan tárbiyalawdıń jańadan formaları, usılları hám metodların izlew aktual másele bolıp esaplanadı.

5-6 jasar balalardıń koordinaciyalıq qábiletin rawajlandırıwdı gimnastika arqalı obrazlı shınıǵıwlar kompleksinen quralǵan, balalardıń háreketshenligin jetilistirowge qaratılǵan dástúr hám modellerdi islep shıǵıw maqsetin payda etedi.

Onıń ushın tómende kórsetilgen wazıypalardı ámelge asırıw tiyis boladı:

-5-6 jasar balalardıń háreketshenligin jetilistiriwshı faktorlardı anıqlaw;

-5-6 jasar balalardıń fizikalıq jaqtan rawajlanıwı hám tayarlıq dárejesin úyreniw;

-balalarda fizikalıq sıpatların hám háreketshenligin jetilistirowge baǵdarlangan dástúr normaların islep shıǵıw;

-5-6 jasar balalardıń mektepke shekemgi bilimlendiriw mekemeleri hám shańaraqtaǵı kún tártibinde fizikalıq belsendiliktiń mazmunı hám shólkemlestiriw modelin islep shıǵıw;

-balalardıń shólkemlestiriwshı hám erkin háreketshenligin xoshametlewdiń pedagogikalıq texnologiyasınıń nátiyjeliligin bahalaw.

Izertlew obykti esaplangan 5-6 jasar balalardıń koordinaciyalıq qábiletlerin rawajlandırıwshı gimnastikalıq shınıǵıwlar arqalı dástúriy shınıǵıwları ámelde qollanıw procesi belgilengen wazıypalardı orınlaw ushın pedagogikalıq, medicinalıq hám biologiyalıq usılların kompleks tárizde qollanıladı. Dene tárbiya shınıǵıwlarında 5-6 jasar balalar ushın koordinaciyalıq qábilette rawajlandırıwshı gimnastikaǵa tiykarlangan shınıǵıwlarıń kompleks is baǵdarlamasın islep shıǵıwı kerek [3]. Bul shınıǵıwları ótkeriwdiń tiykarǵı formalarınan biri retinde 5-6 jasar balalardıń dene shınıǵıwların orınlaw barısında koordinaciyalıq qábiletlerin tárbiyalawǵa járdem beredi.

Maǵlıwmat ornında aytıp ótiw kerek «Koordinaciya» latin tilinen alınǵan sóz bolıp birlestiriw, tártiplilik, izbeizlik degen mánini ańlatıp, insandardıń háreketshenligine qarata ayıladı. Yaǵnıy, insan háreketlerin tábiyat talapları sheńberinde muwapıqlastırıw dárejesin kórsetedi. Máselen, ápiwayı júrip baratırǵanda súrnigip yamasa qanday da bir nársege ayaǵımız ilip ketiw jaǵdayın alıp qaraytuǵın bolsaq, koordinaciyalıq qábileti onsha qalıplespegen insan bul jaǵdayda qulaydı, al koordinaciyalıq qábileti jetiliske insan, qulap túsiwge qarsı túrli háreketlerdi ámelge asırıw arqalı qáddin tikleydi, jıǵılmaydı. Bunday insanda háreketlerdi muwapıqlastırıwshı koordinaciyalıq qábiletler joqarı dárejede jetiliskeenligin kóriwimiz múmkin.

Usı orında qanday da bir háreketke ámelge asırıwda insanniń tayanish háreket sistemasın basqarıw yaǵnıy koordinaciyalıq qábiletin qalay anıqlaw múmkin degen soraw payda boladı. Bunıń ushın dene tárbiyası metodologiyasında uzaq waqıtqa shekem jeńillik teoriyası kórsetkishi bar edi. Degen menen 1970-jıldan baslap, onıń

ornına koordinaciyalıq qábiletler ataması kóbirek qollanılıp basladı. Rus ilimpazı N.A.Bernshteyn koordinacion háreketler-deneniń motor sistemasın basqaratuǵın prefirikalıq hám oraylıq basqarıw funkciyalarınń óz ara tásiriniń birliǵi retinde kóredi hám «háreketlerdiń biomexanikalıq funkciyaları belgilengen wazıypalarǵa muwapıq qayta dúzilیدی»-degen túsiniklerdi beredi.

Ulıwma alǵanda koordinaciyalıq qábiletlerdi rawajlandırıw sistemalıq principlerge boysınıwdı talap etedi. Shınıǵıwlar arasındaǵı tiykarǵı tánepislerdiń aldın alıw kerek. Sebebi, bul sharshaw hám talıǵıwda deneniń sezim-tallıǵınıń joq bolıwına hám olardıń názik ústinligin payda etiwine alıp keledi. Bunnan tısqari, jańadan háreketlerdi ózlestiriw proceside áne usı sharshawdıń kúsheyip ketpewine baylanıslı boladı. Bul koordinaciyalıq qábiletlerdiń rawajlanıwına keri tásirin tiygizeri sózsiz.

Qániygelerdiń pikirinshe koordinaciyalıq qábiletlerdi rawajlandırıwdıń dáslepki basqıshında shuǵıllanıp atırǵan 5-6 jastaǵı balalarda jas ózgesheliklerine say keletuǵın shınıǵıwlar, atap aytqanda iyiliwshenlikti, tezlikti hám shaqqanlıqtı qalıplestiriwden baslaw kerek eken. Bulardıń qaysı birine birinshi gezekte itibar beriw kerek ekenligi tómendegishe belgilenedi.

**Birinshiden** tezlik, kúshlik tezlik sıpatları hám koordinaciyalıq qábiletlerdi rawajlandırıwǵa tiykarlangan bolıw kerek. Bunda ústinlik jas ózgesheliklerine say bolıw tiyis ekenligin bildirse;

**Ekinshiden** fizikalıq dene shınıǵıwları arasındaǵı óz-ara baylanıstı itibarǵa alıp 5-6 jastaǵı balalarda koordinaciyalıq qábiletterdi rawajlandırıw kerek ekenligin itibarǵa alıw tiyis.

Sonıń menen birge 5-6 jastaǵı balalardı shınıqtırıwdıń hár túrli baǵdarların, atap aytqanda gimnastikalıq elementlerge say keletuǵın baǵdardı úyreniw ótkerilgen izertlew jumslarınıń búgingi kúnde aktual ekenligi kóplegen ilmiy dereklerde de keltirip ótilgenligin kóriwimiz múmkin. Kópshilik ilimpazlar balalarda tezlikti jetilistiriwshi texnikalarǵa baylanıslı shınıǵıwlar, úyrenilip atırǵan háreket kónlikpelerine jaqın, oǵan uqsas bolǵan shınıǵıwlar menen tolıqtırıp barıw kerek ekenligin aytıp ótedi. Bul boyınsha S.S.Korovin 6-10 jastaǵı oqıwshılardı dene tárbiya shınıǵıwlarında shıdamlılıǵın jetilistiriw barıwdıń ózine say ózgesheligine itibar beriw zárúr ekenligin, bunda úyrenilip atırǵan shınıǵıwlarǵa háreket texnikasına jaqın yamasa uqsas háreketlerdi qollanıw múmkin ekenligin aytađı.

«Umumiy ta'lim tashkilotini boshqarish samaradorligi» tushunchasi V.E.Chirkin tomonidan to'liq ochib berilgan, bu kontsepsiya orqali u boshqaruv faoliyatining maqsadlariga erishish natijasini tushunadi. Maktabni boshqarish samarali bo'lishi uchun belgilangan maqsad va natijalarga resurslarni tejash va ma'lum vaqt oralig'ida erishish kerak [1].

Umumiy ta'lim tashkilotini boshqarish samaradorligiga bir qator omillar ta'sir qiladi [3]. Barcha omillar bir-birini to'ldiradi va birgalikda harakat qiladi. Iqtisodiy vaziyat har kuni o'zgarib, ma'lumotlar hajmi o'sib bormoqda. Bunday sharoitda qayta tiklanmaydigan, nomoddiy resurs - vaqtni boshqarish qobiliyati alohida ahamiyatga ega bo'lib, belgilangan vaqt oralig'ida rejalashtirilgan natijalarga erishish imkonini beradi. Vaqtni samarali tashkil etish qobiliyati zamonaviy rahbarning professionalligining asosiy kompetensiyalaridan biriga aylandi.

So'nggi yillarda maktabni boshqarish samaradorligini oshirish uchun taym-menejment metodlarini foydalanish dolzarb bo'lib bormoqda. Umumta'lim maktablarini samarali boshqarishda vaqt omilini hisobga olish tashkilotning rivojlanishi va faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqidagi ilk fikrlar 1911-yili Amerikada bildirilgan. Shu bilan birga, mehnat samaradorligini oshirishga bog'liq yangi texnologiya va metodlar paydo bo'la boshladi. Klassik menejmentdan vaqtni boshqarish nazariyasi tashkilotda ish vaqtdan foydalanishni tashkil qilish, rejalashtirish va nazorat qilish vositasi sifatida,

shuningdek, xodimlar va butun tashkilotning samaradorligini oshirish uchun menejering shaxsiy vaqtini tashkil qilish vositasi sifatida paydo bo'ldi. Taxminan bir vaqtning o'zida «o'z-o'zini boshqarish» tushunchasi paydo bo'ldi, bu o'z vaqtini boshqarishda samaradorligi isbotlagan texnika va usullardan foydalanish qobiliyatini anglatadi. Dastlab, o'z-o'zini boshqarish faqat tashkilot rahbarlariga qaratilgan edi. Biroq, menejer nafaqat o'z vaqtini to'g'ri boshqara olishi, balki tashkilot o'z maqsadlari va funksiyalariga samarali erishishi uchun o'z qo'l ostidagilarning ish vaqtini eng maqbul tarzda tashkil qilishi kerak.

Bugungi kunda taym-menejment shunchalik mashhur bo'ldiki, ko'plab metodlar paydo bo'ldi, vaqtni boshqarish bo'yicha ko'plab qo'llanmalar va darsliklar yozildi. Taym-menejment usullari universaldir va ulardan nafaqat ta'lim muassasalari rahbarlari, balki menejerlar, talabalar va maktab o'quvchilari, ota-onalar ham foydalanishlari mumkin.

Rossiyalik fiziolog Nikolay Vvedenskiy ta'kidlaganidek: «Biz juda ko'p ishlaganimiz uchun emas, balki yomon ishlaganimiz, uyushmagan holda ishlaganimiz, ahmoqona ishlaganimiz uchun chorchaymiz» [5]. Siz, ehtimol, bir necha marta payqagandirsiz: kun rejalashtirilmaganda, aniq vazifalar belgilanmaganda bir narsadan ikkinchi narsaga sakiraymiz, chalg'iyamiz. Natijani kechqurun, xulosa qilib, kun davomida hech qanday foydali narsa qilinmagani, kun behuda o'tkanligini achchiq bilan xulosa qilamiz. O'z vaqtinigizni maqsadli nazorat qilishda amalda taym-menejmentda turli usullar qo'llaniladi. Vaqtdan samarali foydalanishning juda ko'p usul va texnologiyalar ro'yxati mavjud, ular bir-biridan ish jarayonini turli tomonlardan ko'rib chiqishlari bilan farq qiladi:

1. Pareto tamoyiliga, "80:20 nisbati" tamoyili.

Bu ish jarayonida 20% da sarflangan vaqt (xarajat)da 80 % natijalar (ishlab chiqarish)ga erishilishini bildiradi. Vaqtning qolgan 80 % umumiy yakunining faqat 20 %ni beradi. Demak, boshidan eng oson, qiziqroq yoki vaqtni kamroq sarflanishini talab qiluvchi ishlarga kirishish kerak emas. Masalalarga ularning muhimligiga muvofiq kirishish zarur: dastavval ozgina "hayotiy muhimlar", keyin ko'p sonli "ikkinchi darajalilar"ga.

Agar barcha vazifalar ularning yakuniy natijalardagi ulushlariga muvofiq tahlil qilinsa va keyin ABV usuli tahlil qilish yordamida toifalar bo'yicha taqsimlansa, Pareto tamoyili aniqlanib olinadi. Bunda tahlil shundan kelib chiqadiki, juda muhim va kamroq muhim ishlarning umumiy sonidagi foizlardagi ulushi umuman o'zgarmasdan qoladi. Pareto tamoyiliga ko'ra, menejering barcha ishlarini uchta guruhga bo'lish mumkin:

- eng muhim ishlar (A kategoriyasi) ishlarning umumiy sonidan 15% yaqinni tashkil qiladi, ularning ahamiyati esa (maqsadga erishishga qo'shilgan ulush ma'nosida) 65% ga yaqinni tashkil qiladi;
- kamroq muhim bo'lgan ishlar (B kategoriyasi) ularning umumiy sonidan 20% ga yaqin, ularning ahamiyati 20% ni tashkil qiladi;
- muhim bo'lmagan ishlar (V kategoriyasi) ularning umumiy sonidan 65 %, ammo ularning ahamiyati ishlarning umumiy ahamiyatligidan faqat 15% ga yaqin.

2. Vazifani ABV usuli bo'yicha tahlil qilib chiqish tavsiya etiladi, buning uchun:

- 1) ma'lum vaqt (o'n kunlik, kun va h.k.)da hal qilish kerak bo'lgan barcha vazifalarning ro'yxatini tuzish;
- Agar siz vaziyatni nazorat qilishni istasangiz, bu sovg'a osmondan tushmaydi. Ko'rib chiqish va nazorat qilish tizimini yaratish bilim va amaliy ko'nikmalarni talab qiladi.

Hayot tezlashmoqda, axborot oqimining intensivligi oshib bormoqda, ko'p narsalarni nazorat qilish va zavqla-nish uchun stressiz ishlash tobora qiyinlashmoqda. Shaxsiy samaradorlikni sifat jihatidan oshirishga, «aravadan mashinaga o'tishga» imkon beradigan texnologiyalar kerak.

S.I.Kalinin asarlarida vaqtni boshqarish nazariyasi universal qonunlarga asoslanishini qayd etadi: «Merfi qonuni», «Pareto qonuni», «vaqtning qaytarilmasligi qonuni», «Zipf qonuni» [4]. Taym-menejmentning asosiy metodlari bir-birini to'ldiradi va ulardan kompleks foydalanish maksimal samaraga beradi. Taym-menejmentning asosiy vazifasi birinchi navbatda nima qilish kerakligini aniqlashdir. Har qanday ta'lim tashkilotining faoliyati bolalar ta'limi maqsadlariga muvofiq tashkilot faoliyatining yo'nalishlarini tavsiflovchi yillik reja asosida amalga oshiriladi. Qisqa muddatli vazifalarni amalga oshirishda taym-menejment vositalaridan foydalanish samaralidir. Umumta'lim maktablarini boshqarish samaradorligini oshirish uchun quyidagi usullar ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [5]:

- **xronometraj** (yozma qayd qilish va keyin to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish orqali o'z vaqtini sarflashni hisobga olishdan iborat); xronometraj natijasi – ish kunining barcha samarasiz daqiqalaridan voz kechishdir);

- **vakolatlarni taqsimlash** (boshqaruvchining topshiriq berish shakli bo'lib, unda faqat faoliyat maqsadi qo'yiladi va bo'ysunuvchining o'zi harakatlar algoritmi orqali o'ylaydi, algoritmi tuzadi va tashabbus ko'rsatadi);

- **rejalashtirish** (rahbarning shaxsiy ish rejasini tuzish, vakolatlarni topshirish va xodimlar o'rtasida topshiriqlarni to'g'ri taqsimlash va uning bajarilishini muntazam nazorat qilish);

- **prognozlash** (ish vaqtini malakali va oqilona taqsimlash, hatto o'quv yilining eng qizg'in va gavjum paytlarida ham ishbilarmonlik muhitini saqlashdan iborat);

- **vaqtni birlashtirish** (ayniqsa muhim va jiddiy ishlarni bajarish uchun vaqtni birlashtirish va ajratish);

- **axborot oqimlarini optimallashtirish** (e'lonlar, elektron pochta, shoshilinch yig'ilishlar va boshqalar orqali bo'ysunuvchilarga alohida muhim ma'lumotlarni birlamchi va darhol taqdim etishdan iborat).

A.Makkenzi shunday deydi: «Band bo'lishdan oson, unumli bo'lishdan qiyinroq narsa yo'q» [6:23]. Axborot hajmi doimiy ravishda o'sib borayotgan, maktab o'quvchilari va pedagogik xodimlarga talab ortib borayotgan zamonaviy sharoitda maktabni samarali boshqarish uchun nafaqat rahbar, balki unga bo'ysunuvchilar uchun ham taym-menejment va o'zini o'zi boshqarish usullarini o'zlashtirish zarur. Ta'lim tashkilotini samarali boshqarish maqsadni to'g'ri belgilash, vakolatlarni topshirish, ustuvor vazifalarni aniqlash va ularni hal qilish algoritmini yaratish qobiliyatiga asoslanadi. Bundan tashqari, nafaqat ish vaqtini, balki dam olish vaqtini ham boshqarish muhimdir, chunki dam olgan xodim va menejer samarali hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlar kunlik ishlarini tahlil qilishlarida, ma'lum bir vazifani bajarish uchun qancha vaqt sarfladim yoki shunga yaqin, turdosh bo'lgan vazifani bajarishga qancha vaqt sarfladim u, qanday xatoliklarga yo'l qo'ydim va bu xatolarimni tuzatishga qancha vaqt ketdi, bu ortiqcha sarflangan vaqt davomida qancha muhim ishlarni amalga oshirishim mumkin edi kabi savollarga javob topishlari vaqtini to'g'ri taqsimlash va faoliyatni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

#### Adabiyotlar

1. Чиркин В.Е. Государственное управление. Элементарный курс. - М.: «Юрист», 2003. -С. 320.
2. Сластёнин В.А. «Психология и педагогика: Учебный курс». - М.: «Юрайт», 2013. -С. 543.
3. Ронькова Н. В. «Эффективное управление образовательной организацией. Сущность понятия «эффективное управление». Критерии оценки эффективности управления образовательной организацией». // Молодой ученый. № 23. 2016. - С. 512- 517.
4. Калинин С.И. Тайм-менеджмент: практикум по управлению временем. / С.И. Калинин. - СПб.: «Речь», 2006. -С. 371.
5. Архангельский Г.А. Тайм-менеджмент. Полный курс: Учебное пособие / Г.А.Архангельский, М.А.Лукашенко, Т.В.Телегина, С.В.Бехтерев; Под ред. Г.А.Архангельского. - М.: Альпина Паблишер, 2012. -С. 311.
6. Адамс Б. Время. Секреты управления. - М.: «АСТ: астрель», 2007, -С. 304.

**REZYUME.** Ushbu maqolada taym-menejment texnologiyasining xususiyatlari, turlari va yo'nalishlari, metodlari, darajalari tahlil qilinadi. O'quv jarayonida taym-menejment texnologiyasidan foydalanish imkoniyati asoslanadi.

**PEZIOE.** В данной статье анализируются характеристики, виды и направления, методы и уровни технологии тайм-менеджмента. Обоснована возможность использования технологии тайм-менеджмента в образовательном процессе.

**SUMMARY.** This article analyzes the characteristics, types and directions, methods and levels of time management technology. The possibility of using time management technology is substantiated in the educational process.

## QARAQALPAQ BALALAR OYIN FOLKLORININ ETNOPEDAGOGIKALIQ OZGESHELIKLERI

**Q.Biysenbaev – tayanish doktorant**

*Ajiniyaz atindagi Nokis mamleketlik pedagogikalik instituti*

**Tayanch so'zlar:** bolalar o'yin folklori, etnopedagogika, etnofolkloristika, o'yin qo'shiqlari, tarbiyaviy jihatlar.

**Ключевые слова:** детский игровой фольклор, этнопедагогика, этнофольклористика, игровые песни, воспитательные аспекты.

**Key words:** children's game folklore, ethnopedagogy, ethnofolkloristics, game songs, educational aspects.

Bugingi künde dünya folklorını iliminde balaların ádebiy sana-sezimin hám estetikalıq talgámın ósiriw maqsetinde jaratılğan xalıq awızeki dóretiwshiligi janrlarınıń payda bolıw procesi hámde tariyxıy-poetikalıq, evolyuciyalıq rawajlanıw jolın anıqlawğa arnawlı túrde itibar qaratilmaqta. Folklorın kishi jastağı balalarga arnalğan lirikalıq úlgeri etnopedagogikalıq ashıp beriw bolsa etnofolkloristika tiykarların ashıwda, xalıq awızeki dóretiwshiliginiń pedagogika hám etnografiya sıyaqlı ilimler menen integraciyalıq rawajlanıwında tariyxıy áhmiyetke iye esaplanadı. Xalqımızdın kóp ásirler dawamında qalıplesken milliy qádiriýatların tiklewde folklor en tiykarğı dereklerden biri esaplanadı. Onın bir bólegi bolğan balalar folklorın úlkenler folklorı kontekstinde

izertlew mine usınday aktual máseleleriniń biri.

Qaraqalpaq xalqınıń ásirler boyı dóretken folklorınıń barlıq janrlarında xalıqtın awır turmısı qanday dárejede bolsa, tap sonday dárejede óziniń sawleleniwin tapqan. Bulardıń bárin xalıq qosıqları arqalı turmısqa engizip otırğan. Demek, balalar ádebiyatın dóretken xalıq dúnyadan, jámiyetimiz, ekonomika, siyasat, mádeniyattan ózleriniń en súykimli bolğan balalarına olardıń jas ózgesheligine qaray elementar túsinipler, násiyatlar, beriwdi maqset etip qoyğan. Solay etip balalar turmısınan qosıqlar dóretken. Olar balalar folklorına kiredi. Sonlıqtan da balalar qosıqlarınıń hár qaysısı óz aldına tariyxı, kelip shıǵıw dereklerine iye. Hár bir qosıqtın ózine tán ózgesheligi, mazmunı, ideyası kórkemlik belgileri, xarakter, tárbialıq belgileri boladı.

Balalar qosıqları ózgesheliklerine qarap N.Dawqaraev: «Bul ózgeshelikler eń aldǵı menen olardıń jámaat bolıp aytıwında, ekinshiden, olar xalıq oynların atqarıw, úshinshiden, olar soraw-juwap formasında aytıladı, dep olar tematikalıq jaqtan hár-túrli ekenligin» belgilep beredi hám olardı túr hám janrlarǵa ajratadı [2:136-137]. Ilimpaz folklordaǵı balalar ádebiyatınıń atqarıwshıları, atqarıw tártibi, olardıń balalar oy-pikiriń óstiriwdegi roli máselelerin úyrenedi.

Q.Ayimbetov bolsa «oyın-zawıq qosıqları balalar oyını ekenligin, balalar jámaat bolıp oynaǵanında oynlarınń ayırımları poetikalıq qosıqlar menen atqarıladı», dep jazadı [1:23-24].

Oyın formasına qurılǵan qaraqalpaq xalqınıń awızkei ádebiyatında orın alǵan «Teppek», «Mańlay shertpek», «Awelemen-dúwelemen», «Ańǵalaq», «Arpa-gúrpe», «Qasharman», «Jasırınbaq», «Go-kek» usaǵan oynlar balalarınń birligin, doslıǵın, awızbirshiligin bekkemlese, ekinshiden qaraqalpaq xalqınıń ótmishtegi balalarınń qanday oynlar menen oynaǵanlıǵın bilse, úshinshiden bul oynlarınń tárbıyalıq áhmiyetin túsiniw aladı.

Balalar oyın qosıqları yaqı balalarǵa arnalǵan basqa shıǵarmalar oynlar menen jaqın baylanısta boladı. Sebebi, balalar hár qıylı oynlar oynaw menen birge, birinshiden, ózleriniń organizmin fizikalıq jaqtan shınıqtırsa, ekinshiden, olar usı oynlarǵa qosıp, hár qıylı qosıqlar hám basqa ádebiy shıǵarmalar úlginen atqarıp, oy-pikiriń rawajlandıradı, basqasha qılıp aytqanda aytqanda, ruwxıy talabın qanaatlandıradı. Ádebiy dóretilwshilik penen oynınıń únles bolıwı haqqında ádebiy teorıyashılardan qımbatlı pikirler bayan etilgen.

«Aq terekpe, kók terekpe» qosıǵı folklorlıq úlginde

Aq terek pe, kók terek,

Bizden sizge kim kerek,- deydi.

Ekinshi topardaǵı balalar:

Aydı-aydın jol kerek,

Sheber-sheber qol kerek,

Kim ádepli tártipli,

Bolsa bizge sol kerek.

Qosıq usı formada dawam ettirilip, bir balanın atı ayıp shaqırıladı. Bala juwırıp barıp ekinshi topardıń uslasıp turǵan qolların jazdırsa, qolı jazdırılǵan balanı ózi menen birgelikte óz toparına alıp ketedi. Eger úze almasa ózi sol toparǵa barıp qosıladı. Qosıqta shaqırılıp atırǵan balanın qábiyetine, ózgesheligine qarap qosıq tekstinde improvizaciya qollanıladı.

Jazıwshı hám ilimpaz sıpatında I.Qurbanbaev qaraqalpaq balalar ádebiyatın ulıwma jer júzlik jáhán balalar ádebiyatınıń tájiriwbelerine súyenip te mınaday juwmaqlı, zárúrli specifikalıq ózgesheliklerge bólip toqtawı orınlı: «Balalarǵa arnalǵan shıǵarmalar tiykarınan tómendegidey tórt túrli ózgeshelikke iye: birinshiden, balaların waqıya mańızın tez qabıl etiwı ushın baǵdardıń, ideyanıń anıq bolıwı, bayanlaw; súwretlew sheberlikleriniń ápiwayılıǵı, olardıń balaların sezimlerine tez tásirshenligi gózzallıq sezimlerin oyata biliwshiligi; ekinshiden, shıǵarmanın mańızın balaların tez uǵınıwı ushın syujettiń jenil, sheber qurılıwı, ápiwayıdan quramalǵa qaray rawajlanıp barıwı hám ondaǵı qaharmanların minez-qulqınıń hár túrtiliginiń ayqınlıǵı; úshinshiden, waqıyalar, syujet, balaların ishki dúnyasına tez tásir etiwı, sanasında uzaq saqlanatuǵın tańbalar qaldırılıwı tiyis bolǵan názik, sulıw sezimler menen shınıqlıqqa tiykarlanıp bayanlanıwı tiyis. Óytkeni, bunday shıǵarmalar óziniń sulıw sezimleri menen balaları jarqın keleshekke, mártlikke tárbıyalawı tiyis...» [4].

Álbette, bulardıń barlıǵın izertlewshi I.Qurbanbaev qaraqalpaqlar ádebiyatın ilimindegi bir qansha ilimiy juwmaqlardı paydalanıw, oqıp izertlew arqalı ayıp, óz pikir juwmaqların bildiredi. Solardan ayqın bir misal, qaraqalpaq ádebiyatshısı qazaq balalar ádebiyatın izertlewshilerinıń biri Sh.Axmetovtıń mınaday pikir oyların keltirgen: «Balalar ádebiyatı jas óspirimniń sana-sezimin oyatıp, aqıl-oyn rawajlandıratuǵın, olardı adamgershilik, ádep-ikramlılıqqa tárbıyalatuǵın ómir sabaqlıǵı. Onıń maqseti mektep jasına deyingi úsh jasar baladan baslap on jeti jasqa deyingi oqıwshılardı kórkem tilde jazılǵan joqarı mańızlı shıǵarmalar beriwden ibarat», degen eken tuwısqan xalıqtıń ádebiyatshı alımı [4:18].

Mine, usınday ilimiy pikirlerge súylene otırıp, ayrıqsha qaraqalpaq folkloridaǵı balalarǵa arnalǵan kórkem dóretpelerge olardıń tárbıyalıq, estetikalıq áhmiyetine itibar berip tallaw áhmiyetli ekenligi sózsiz. Sonlıqtan besik jırlarınan baslap, tusaw kesiw, aytıs hám házil, balalar oynlarındaǵı gózzallıq sezimleriniń tárbıyalıq áhmiyetine óz aldına dara-dara toqtaw, bulardı qaraqalpaq ádebiyatınıń payda bolıw derekleri sıpatında izertlew júrgiziw ilimiy áhmiyetke iye.

Hátteki qaraqalpaq folklorınıń qımbatlı dóretpeleri bolǵan «Qırıq qız», «Alpamıs», «Qoblan» sıyaqlı eposların balalar oyın folklorı elementleri bar bolǵan ayrıqsha tárbıyalıq áhmiyeti basım miyraslar qatarına kiritiw múmkin. Dástanlardı balalar folklorınıń belgili úlgeri sıpatında alıp qaralsa, ilimiy etikalıq-psixologiyalıq, pedagogikalıq áhmiyetin kóriw múmkin. «Qırıq qız» daǵı óz elin bir qasıq qanın da ayamay jawdan qorgawshı Gúlayım, tuwılǵan jeri, hadal muhabbatı ushın jan ayamay gúresiwshe «Alpamıs» taǵı batır jigit Alpamıstıń obrazı, qaharman jigit Qoblannıń mártligi hám taǵı basqalar, álbette, balalarǵa ayrıqsha qızıǵıwshılıǵın payda etpey qoymaydı. Sonlıqtan olardı jazba túrdegi balalar ádebiyatınıń negizgi milliy tiykarları, derekleri dep úyreniliwi tiyis.

Búgingi kúnde mazmunı basım, balalar oyın folklorına tiyisli bolǵan qızıqlı, ózine tartımlı hám ıqsham tekstlik materiallardı tallaw arqalı olardıń tárbıyalıq áhmiyetin ashıp beriw múmkin. Misalı:

Ğaz-ğaz balam, ғаз balam!

Qırısқан бойды jaz, balam!

Tusawındı keseyik,

Beliñe belbew eseyik...

Ğaz-ğaz, balam, ғаз balam!

Qırısқан бойды jaz, balam!

Adımındı kóreyik,

Kóz tiymegey tükireyik.

....Kúle berme, háy, kelinshek,

Balam bolmasın erinshek!...

Mine, bular haqıyqatında kópshilikke burınnan onsha málim emes ádebiy tekstler sıpatında da belgili qızıǵıwshılıq oyatıp, balalar oyın folklorına úlken súyispenshilik arttıradı desek artıqmaslılıq emes.

«Hár qanday jaqsı sózdi jaqsı inıldı menen maqtaw sózlerdi de balanın ózine qonımlı sesler arqalı sezetuǵını málim. Bala buǵan da quwanıp, ómirge súysinip alǵa talpınadı. Balanın ayaq basıp júrgen waqıttaǵı quwanışı, kóp kúletuǵını da usınnan kórinedi. Mine, bala júrgenine qosıq penen, soǵan ılayıq inıldı nama menen quyılǵan turmıslıq ómir sabaǵı, keleshekke úlgeri menen tárbıyalana basladı» [4].

Biz usı sıyaqlı misallardı taǵı da keltiriw arqalı ilimpazdıń bul pikirlerin tolıq quwatlap, olardı jas óspirimler, keleshek áwlad tárbıyası ushın ilimiy teorıyalıq hám ádebiy

metodikalıq áhmiyetke iye ekenligin taǵı da atap ótpek-shimiz.

Men apamnıń tuǵışımın,  
Jawma kúnim, jawma!  
Qazan qırar qırǵışımın,  
Jawma kúnim jawma!

Álbette, bulardı balalarga úyretip barıw, olardıń qubılıslar haqqında uǵımların keńeytedi.

Mine, bulardan tisqari «Hákke qayda?», «Áwelemen, dúwelemen!» hám taǵı basqa sıyaqlı balalar hám házil qosıqları oqıwshılarga kúshli tásir etip, kórkem ádebiyattı úyreniwshilerge de úlken sabaq bolıp, olardıń barlıǵı balalar folklorınıń aktiv nishanları sıpatında kózge taslanadı.

### Ádebiyatlar

1. Айымбетов Қ. Халық даналығы. – Нөкіс: «Қарақалпақстан», 1988. 23-24-б.
2. Дәўқараев Н. Шығармалары. – Т. II. – Нөкіс: «Қарақалпақстан», 1997. 136-137-б.
3. Кеңесбай Allamergenov, Ismayıl Qurbanbaev, Sarsen Kazaxbaev Qaraqalpaq balalar ádebiyatı tariyxı (Oqıw qollanba). – Tashkent: «Tafakkur avlodi», 2020.
4. Курбанбаев И. Қарақалпақ балалар әдебияты. – Нөкіс: «Билим», 1992.

**РЕЗЮМЕ.** Мақоллада қарақалпақ халқ ог'закі іјодига, jumladan bolalar o'yin folkloriga mansub o'yin qo'shiqlarining mustaqil janr sifatida tarbiyaviy jihatları takidlab o'tilgan. Shuningdek, bolalar o'yin folklorining etnopedagogik xususiyatlari tahlil qilingan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье подчеркивается воспитательный аспект игровых песен каракалпакского фольклора, в том числе детского игрового фольклора, как самостоятельного жанра. Также анализируются этнопедагогические особенности детского игрового фольклора.

**SUMMARY.** The article emphasizes the educational aspects of game songs belonging to Karakalpak folklore, including children's game folklore, as an independent genre. Ethno-pedagogical features of children's game folklore are also analyzed.

## BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY RIVOJLANISHIDA KOGNITIV TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

**A.T.G'aniyeva – mustaqil tadqiqotchi**

*Urganch davlat universiteti*

**Tayanch so'zlar:** bo'lajak o'qituvchi, kasbiy faoliyat, o'qituvchi shaxsiyati, o'qituvchiga qo'yiladigan talablar, professionalizm, kognitiv texnologiyalar, shaxsiy sifatlar, kasbiy sifatlar, kasbiy faoliyatning rivojlanish dinamikasi, pedagogik madaniyat, pedagogik jarayon, intellektual sifatlar, aql-zakovat, zukkolik.

**Ключевые слова:** будущий учитель, профессиональная деятельность, личность учителя, требования к учителю, профессионализм, познавательные технологии, личностные качества, профессиональные качества, динамика развития профессиональной деятельности, педагогическая культура, педагогический процесс, интеллектуальные качества, интеллект, смекалка.

**Key words:** future teacher, professional activity, teacher personality, requirements for the teacher, professionalism, cognitive technologies, personal qualities, professional qualities, dynamics of the development of professional activity, pedagogical culture, pedagogical process, intellectual qualities, intelligence, ingenuity.

Jamiyat hayotining rivojlanishi va ta'lim oldiga qo'yilayotgan talablarning kun sayin ko'payayotganligi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi va kreativligi har qachongidan ham jadalroq rivojlantirish zaruriyatini qo'ymoqda. O'zbekiston jamiyati va davlati pedagogik ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarishni davlat buyurtmasi darajasida muayyan qonun va qarorlar bilan mustahkamlab qo'ydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi, ta'lim to'g'risidagi qonun, O'zbekiston 2030-strategiyasi kabi huquqiy-me'yoriy asoslar shular jumlasidandir. Chunki o'qituvchining kasbiy-shaxsiy sifatlarini rivojlantirish orqali uning raqobatbardoshligini ta'minlashga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda [2].

Chunki o'qituvchi o'zining yuqori darajadagi kasbiy sifatlarini namoyon qilish orqali ta'lim sifatini oshirish hamda o'quvchilarni davr talablari asosida tarbiyalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki, bugungi kunda davlat va nodavlat muassasalarida yuqori darajada tarbiyalangan madaniyatli kadrlarga bo'lgan talab va ehtiyoj ortib bormoqda. Shaxsiy-kasbiy jihatdan rivojlangan, kreativ faoliyatiga ko'rsatish layoqatiga ega bo'lgan pedagoglarga O'zbekiston davlati va jamiyati tomonidan bir qator talablar qo'yilmoqda:

- bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kreativ faollikni shakllantirish;
- bo'lajak o'qituvchilarning yangi pedagogik bilimlar, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari uchun qulay imkoniyatlar yaratish;
- bo'lajak o'qituvchilarning o'z kasbiy-pedagogik

Xalq pedegogikasında balanın aqlıy, fizikalıq jaqtan jetik bolıwın, házir juwaplıqqa, tapqırılıqqa, hádiyselerge qızıǵıwshılıq penen qarawın táminlewge ázelden úlken itibar qaratıp kelgen. Sonıń ushın bul baǵdarda hátteki arnawlı xalıq qosıǵı – balalar oyın qosıqları sisteması qalıplesken. Mine, sonlıqtan balalar oyın qosıqlarında hám tálim, hám tárbiyalıq maqset estetikalıq tárbiya jónelisinde balanın sanasına jetkeriw kórinedi. Balalar oyın qosıqları xalıq pedagogikasınıń ajıralmas bir bólegi sıpatında ózine tán manawıy-ádebiy rawajlanıw basqışın basıp ótken. Olardı úyreniw arqalı kórkem awızeki dóretywshiliginde ushıraytuǵın dástúriy balalar qosıqlarınıń túrlerin anıqlaw menen birge, balalar folklorınıń ózine tán poetikalıq rawajlanıwın da tereńirek bilip alıw múmkin.

Xalq pedegogikasında balanın aqlıy, fizikalıq jaqtan jetik bolıwın, házir juwaplıqqa, tapqırılıqqa, hádiyselerge qızıǵıwshılıq penen qarawın táminlewge ázelden úlken itibar qaratıp kelgen. Sonıń ushın bul baǵdarda hátteki arnawlı xalıq qosıǵı – balalar oyın qosıqları sisteması qalıplesken. Mine, sonlıqtan balalar oyın qosıqlarında hám tálim, hám tárbiyalıq maqset estetikalıq tárbiya jónelisinde balanın sanasına jetkeriw kórinedi. Balalar oyın qosıqları xalıq pedagogikasınıń ajıralmas bir bólegi sıpatında ózine tán manawıy-ádebiy rawajlanıw basqışın basıp ótken. Olardı úyreniw arqalı kórkem awızeki dóretywshiliginde ushıraytuǵın dástúriy balalar qosıqlarınıń túrlerin anıqlaw menen birge, balalar folklorınıń ózine tán poetikalıq rawajlanıwın da tereńirek bilip alıw múmkin.

faoliyatlariga moslashishlarini ta'minlash;

- o'qituvchining kasbiy funksiyalari o'zgarishiga muvofiq tarzda pedagogik bilimlarini transformatsiyalay olishga erishishlari kabilar.

Pedagogik faoliyatni amalga oshirish o'qituvchi oldiga yuqori darajadagi talablar qo'yishni nazarda tutadi. Keng ko'lamdagi pedagogik burch va uni amalga oshirishga yo'naltirilgan kasbiy harakatlarni bajarish o'z oldiga qo'yilgan kasbiy vazifalarni kompetentlik va ijodiy yondashgan holda amalga oshirish, moslashuvchan xarakterga ega bo'lgan ilmiy tushunchalarga ega bo'lish, pedagogik muammolarni tezkorlik aniqlash ko'nikmasiga ega bo'lish kabilar.

Ma'lumki, bugungi kunda pedagogika fanida o'qituvchi kasbiy xarakteri bilan bog'liq bo'lgan bir qator, ma'lumotlar va ilmiy yondashuvlar mavjud. Mazkur ma'lumotlarni bo'lajak o'qituvchilar har tomonlama chuqur o'zlashtirishlari lozim. Shunday tushunchalardan biri o'qituvchining kompetentligi tushunchasidir. Kompetentlik pedagogik bilimlarni o'zlashtirish, DTS larini mohiyatini anglash layoqatiga ega bo'lish, o'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch va fanga oid kompetensiyalarni bilish layoqatidir [3].

Yuqori darajadagi kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni pedagogik ta'limning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. O'qituvchining kompetentligi quyidagilarga ko'ra alohida dolzarblik kasb etmoqda. Jumladan;

- 1) ma'lumki xalqning ijtimoiy-madaniy tajribasi muntazam transformatsiya qilinmoqda;

2) ta'lim jarayoni O'zbekiston jamiyati talablari asosida muntazam isloh qilinmoqda. Ya'ni xalqaro hamda milliy-madaniy tajribalar asosida boyitilmoqda;

3) yangidan-yangi mualliflik xarakteridagi pedagogik modellar vujudga kelmoqda;

4) jamiyatning o'qituvchilik kasbiga bo'lgan talablari tubdan o'zgarmoqda;

5) O'zbekiston jamiyatida turli madaniyatlarning muloqot doirasi kengaymoqda.

Shuning uchun ham oliy pedagogik ta'limda bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning turli yo'nalishlari tadqiq etilmoqda.

Ushbu masalalar R.Safarova, N.Muslimov, B.Ma'murov, X.Ibraimov, S.Turg'unov, B.Xodjayev, A.K.Markovoy, S.E.Shitovalarning ishlarida tizimli tarzda tadqiq etilmoqda. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini o'rganish natijasida talabalarining kasbiy tafakkuri sezilarli darajada o'zgarmoqda. Natijada quyidagi yondashuvlarni oliy pedagogik ta'lim jarayoniga tadbiq etish zaruriyati kuchaymoqda.

Bo'lajak o'qituvchining pedagogik yo'nalganlik asoslarini ishlab chiqish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik jihatdan muhim bo'lgan shaxsiy-kasbiy sifatlarni bir butunlikda shakllantirish va rivojlantirish ularning kasbiy mahorat sirlarini egallash imkoniyatlarini kengaytiradi. Pedagogik kreativlikning manbalarini aniqlash va bo'lajak o'qituvchilarda kreativlikni rivojlantirish ham alohida ahamiyatga ega. Pedagog shaxsining tarkibiy qismlarini tashkil etadigan 4 ta muhim komponentning mavjudligi mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan (R.Safarova, B.Xodjayev, Э.Ф.Зеep). Ular:

- kasbiy yo'nalganlik;
- kasbiy kompetentlik;
- kasbiy jihatdan zarur bo'lgan sifatlari;
- kasbiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan psixologik xususiyatlar.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ushbu komponentlar orasidagi aloqadorlik ta'minlanadi. Natijada bo'lajak o'qituvchilarda integrativ xarakterdagi kasbiy sifatlari tarkib topadi. Natijada, bo'lajak o'qituvchilarning raqobatdoshligi, kasbiy mobilligi, kreativligi ta'minlanadi. Mahsuldor kasbiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyati vujudga keladi. Natijada, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi kuzatiladi. Kasbiy malakalari hamda kasbiy mavqei rivojlanishi uchun qulay imkoniyat vujudga keladi. Bo'lajak o'qituvchilar oliy pedagogik ta'lim jarayonida pedagogga xos bo'lgan barcha sifatlarni egallashlari lozim.

Kasbiy kompetentlik hodisasining umumiy tavsifi bir qator mutaxassislarining ishlarida o'z ifodasini topgan. R.Safarova, Ma'murov, B.Xodjayev, V.A.Adolf, E.V.Bondarevskoy, N.V.Kuzmin kabilar. Mutaxassislar kasbiy kompetentlikning turli jihatlarini alohida-alohida tadqiq qilishga intilganlar. Jumladan, Markova kompetentlikni o'qituvchi egallashi zarur bo'lgan kasbiy jihatdan zarur bilimlar, ko'nikmalar, psixologik sifatlari sifatida talqin etgan. Ularning ta'lim va pedagogik faoliyat natijalariga ko'rsatadigan ta'sirini baholagan [4].

R.Safarova o'z tadqiqotlarida kasbiy kompetentlikni kreativlik va kognitiv xarakterdagi pedagogik jarayonlar bilan bog'lagan bo'lsa, B.Ma'murov kasbiy kompetentlikni bo'lajak o'qituvchining shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini loyihalashga oid faoliyatida ko'radi.

N.N.Lobanov esa kasbiy kompetentlikni shaxsning tizimli o'ziga xosligi tarzida tadqiq etadi. Bo'lajak o'qituvchi shaxsining kognitiv kompetentligi hamda uni shakllantirish dinamikasi 3 ta tarkibiy qismni o'z ichiga oladi. Ular:

- 1) kasbiy-ta'limiy;
- 2) kasbiy-faoliyatli;
- 3) kasbiy-shaxsiy kabilar.

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida 5 ta kompetensiyani shakllantirish talab qilinmoqda.

Savollar doirasi kompetensiyasi doirasida ayni bir talaba ushbu savollarga javob qaytarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda bo'lajak o'qituvchi o'zining egallagan kasbiy tajribasiga tayanadi. Tayanch kompetensiyalarning pedagogik tavsifi kompetensiyalarning mazmuni, ijtimoiy layoqatlilik kompetensiyasi mas'uliyatni o'ziga olishda namoyon bo'ladi. Talabalar yechimlar ustida ishlash hamda uni amalga oshirish jarayoniga ishtirok etish layoqatiga ega bo'lishlari talab etiladi. Bo'lajak o'qituvchilarda tolerantlikning namoyon bo'lishi ularning shaxsiy qiziqishlari bilan jamiyat ehtiyojlarining muvofiqlashuvida o'z ifodasini topadi. Ikki va undan ortiq tilda o'z fikrini og'zaki va yozma bayon etish imkonini beradigan kommunikativ texnologiyalarni o'zlashtirish ham bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligining tarkibiga kiradi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar asosida ishlash o'qituvchi kasbiy kompetentligining muhim tarkibiy qismiga aylanishi lozim. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda kasbiy axborotlarni izlash, to'plash, saralash va qo'llash o'qituvchi pedagogik faoliyatida muhim o'rin egallaydi. Uning kreativligi, mobilligi va tolerantligini ta'minlashga xizmat qiladi. Aniqlangan axborotlarga nisbatan tanqidiy-tahliliy munosabatda bo'lish mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlanish, kasbiy funksiyalarni ijodiy yondashgan holda bajarish, o'zi va o'z faoliyati natijalarini baholash, o'zining ta'limiy darajalarini muntazam rivojlantirishga kognitiv tayyorlikka ega bo'lish, o'zining shaxsiy imkoniyatlarini muntazam dolzarblashtirish va amalga oshirish ehtiyojiga ega bo'lish, yangi bilim va pedagogik ko'nikmalarni mustaqil egallash layoqatini namoyon etish, o'z-o'zini rivojlantirishga erishish, o'zining kasbiy kompetentligini muntazam boyitishga intilish, o'z-o'zini rivojlantirishga erishish, o'zining kasbiy kompetentligini muntazam boyitishga intilish, kognitiv yo'nalishga ustuvorlik berish asosida tashkil etilgan oliy pedagogik ta'lim jarayonining asosiy vazifalari kasbiy bilimlarni boyitishdan iborat. Bo'lajak o'qituvchilarni rivojlantirish va tarbiyalash esa o'quv jarayonining mahsuldorligini ta'minlovchi qo'shimcha imkoniyatlardir.

Bunday ta'lim jarayoni mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirilgan. Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda, shuni aytish mumkin, pedagog mutaxassisi va professionallikka ega bo'lgan o'qituvchi tushunchalarini o'zaro chegaralashni taqozo etadi.

Mutaxassis bu - pedagogik faoliyat ko'rsatuvchi shaxs. Mazkur mutaxassislik uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni egallagan shaxsdir.

Kasbiy professionalizmni egallagan pedagoglar esa zarur kasbiy sifatlari va kompetensiyalarni o'zida mujassamlashtirgan mutaxassislar bo'lib, ular o'ziga xos faoliyat uslubiga egaligi bilan mutaxassis o'qituvchilardan ajralib turadilar.

Bugungi kunda O'zbekiston jamiyati aynan yuqori darajadagi professionalizmga ega bo'lgan o'qituvchilarga ehtiyoj sezmoqda. O'qituvchining kasbiy professionalizmiga bir qator talablar qo'yilmoqda. Jumladan, yuqori darajadagi professionalizmga ega bo'lgan o'qituvchilar quyidagi ko'nikmalarni o'zlashtirgan bo'lishi lozim: gnostik, didaktik, tashkiliy-metodik, kommunikativ-rejissyorlik, prognozlash, refleksiv, tashkiliy - pedagogik kabilar.

Pedagog shaxsiyatining muhim tarkibiy qismi sifatida kasbiy zarur sifatlari namoyon bo'ladi. Pedagogik faoliyat subyekting o'ziga xos xususiyatlari o'quv jarayoni samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Bo'lajak o'qituvchi shaxsining faolligi bir qator o'ziga xosliklarga ega: o'z oldiga aniq maqsad qo'yish va maqsadga intilish, tenglik, o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlash istagining mavjudligi, favqulotda vaziyatlarda o'zini yo'qotmaslik

layoqatiga egalik, jozibadorlik, haqgo'ylik, adolatlilik, zamonaviylik, insonparvar, eruditsiyaga egalik, bilimdonlik, zukkolik, pedagogik taktga egalik, pedagogik tolerantlik, intizomlilik, pedagogik optimizmga egalik kabilar [3].

Zamonaviy o'qituvchi shaxsining asosiy sifatlaridan biri uning bilimdonligi va zukkoligidir. Bugungi kunda kasbiy faoliyatda yuqori natijalarga erishishi uchun o'qituvchilar o'quvchilarning ko'plab savollariga javob bera olishlari, o'z aql idroklari va kasbiy bilimdonliklari, kreativliklarini namoyon etishlari kerak. Bo'lajak o'qituvchi shaxsining professionallik darajasini ifodalovchi sifatlar ular hayotining intellektual hamda hissiy-irodaviy jihatlarini ko'rsatadi. Bu jihatlar o'qituvchilarning kasbiy – pedagogik faoliyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi hamda uning o'ziga xos ish uslubini belgilaydi. Bo'lajak o'qituvchining shaxsiy-kasbiy shakllanish jarayonini tahlil qilar ekanmiz, kognitiv kompetensiyalarning mazkur jarayonda tutgan o'rnini aniqlash taqozo qilinadi. Talabalar o'zlarining harakat rejaralarini mustaqil tarzda aniqlashlari muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak o'qituvchilar o'zlarining shaxsiy-pedagogik faoliyatini amalga oshirish shakllari, usullari, metodlarini mustaqil tanlash imkoniyatiga ega. Ushbu faoliyat usullarini bo'lajak o'qituvchilar nazariy tajribalar bilan uyg'unlashtirgan holda o'z faoliyatida qo'llash

imkoniyatiga ega bo'ladilar. Aksariyat kasbiy muammolarni yechishda bo'lajak o'qituvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalari muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ xarakterdagi kasbiy faoliyatni amalga oshirish talabalardan tafakkur mustaqilligini talab qiladi. Natijada ular o'zlari egallagan bilimlarning ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini chuqurroq anglashga muvaffaq bo'ladilar. Mazkur bilimlarni bo'lajak o'qituvchilar oliy pedagogik ta'lim jarayonida egallashga muvaffaq bo'ladilar. Shu bilan bir qatorda o'zlarining shaxsiy-ijodiy layoqatlarini namoyon etishga muvaffaq bo'ladilar. Pedagogik hodisalar va dalillarni tahlil qilishga erishadilar. O'quv-tarbiyaviy ishlar tizimini shakllantiradilar va amalga oshiradilar. Loyihalashtirilgan o'quv tarbiya jarayonida qo'llaniladigan topshiriqlarga yechim topishga intiladilar. Ilmiy-ijodiy xarakterdagi muammolarga yechim topish ko'nikmalarining shakllanishiga muvaffaq bo'ladilar. Amaliy faoliyatlarini rejalashtirish va amalga oshirish bo'lajak o'qituvchilar uchun muayyan imkoniyatlarni taqdim etadi. Natijada, ularning tadqiqotchilik faoliyatlari takomillashadi. Bu esa o'qituvchi kasbiy madaniyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Pedagogik madaniyat esa kasbiy faoliyatning o'ziga xosligini belgilab beradi. Uning sifatini ta'minlaydi.

#### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. -T.: 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27 fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
4. Safarova R. O'quvchilarning kreativ kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Metodik qo'llanma. – T.: «Bookmany print», 2023.
5. Safarova R. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar. Monografiya. – Toshkent.: "Science and innovation", 2024.

**REZYUME.** Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchining shaxsiy-kasbiy rivojlanishida kasbiy kompetensiyalar, kognitiv texnologiyalarning tutgan o'rnini, kompetentlikning tarkibiy qismlari, bo'lajak o'qituvchining mutaxassis va professional sifatida o'ziga xosligi, kasbiy professionalizm, uning xarakteri, O'zbekiston davlati va hamjamiyatining o'qituvchi kasbiga qo'yayotgan talablari, bo'lajak o'qituvchining shaxsiy-kasbiy sifatlari va uning rivojlanish dinamikasi haqida fikr yuritilgan. Shunga ko'ra maqola ilmiy-pedagogik jamoa uchun ilmiy pedagogik vazifasini o'taydi.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье рассматриваются профессиональные компетенции, роль когнитивных технологий в личностно-профессиональном развитии будущего учителя, компоненты компетентности, специфика будущего учителя как специалиста и профессионала, профессионализм, его характер, требования, предъявляемые государством и обществом Узбекистана к профессии учителя, личностно-профессиональные качества будущего учителя и динамика его развития. Соответственно, статья выступает научным педагогом для научно-педагогического коллектива.

**SUMMARY.** This article reflects on professional competencies in the personal-professional development of the future teacher, the role of cognitive technologies, the components of competence, the uniqueness of the future teacher as a specialist and professional, professional professionalism, his character, the requirements of the state and community of Uzbekistan for the teaching profession, the personal-professional qualities of the future teacher and the dynamics Accordingly, the article acts as a scientific pedagogical for the scientific and pedagogical community.

#### **TA'LIMIY RESURLAR YARATISHDA WEB-TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

**U.E.Kadirov** – *litseyi direktori*

*Ichki ishlar vazirligining Qoraqalpoq akademik litseyi*

**S.Q.Tursunov** – *pedagogika fanlari nomzodi, professor*

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti*

**Tayanch so'zlar:** web-texnologiya, ta'limiy resurs, infografika, raqamli texnologiya, multimedia plakatlar, slayd shou, grafik muharrirlar, interaktiv bilim kartasi, foydalanish, yaratish.

**Ключевые слова:** веб-технологии, образовательный ресурс, инфографика, цифровые технологии, мультимедийные плакаты, слайд-шоу, графические редакторы, интерактивная карта знаний, использование, создание.

**Key words:** web technology, educational resource, infographics, digital technology, multimedia posters, slide show, graphic editors, interactive knowledge card, use, creation.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarida, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan manfaatdor vazirlik va idoralar, biznes hamjamiyati va ilmiy doiralar vakillari hamda xorijiy ekspertlar ishtirokida "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi ishlab chiqilgan.

«Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari

to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmonida axborot tizimlari va resurslarini keng joriy etishni nazarda tutuvchi idoraviy raqamli transformatsiya dasturlarini ishlab chiqish va o'z vaqtida amalga oshirish kabi vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun qator tadbirlar amalga oshirilishi belgilangan. Jumladan, «bulutli» hisoblashlar asosida ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlarini rivojlantirish, foydalanuvchi talablariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining axborot resurslariga doimiy ulanishni ta'minlashdan iborat. Bu esa ta'lim oluvchilarni elektron o'quv resurslariga doimiy bog'lanish imkonini berib, o'z

navbatida mustaqil ta'limni tashkil etishda, masofadan o'qitishda yaxshi samara beradi. Bugun internetda ko'plab bunday xizmatlar uchraydi. Bular qatoriga Kahoot, Canva, Calameo, MindMeister, PhotoPeach kabi xizmatlarni kiritish mumkin. Ularning vazifalariga ko'ra ko'plab turlarga ajratish mumkin. Quyida bunday web xizmatlardan eng mashhur turlari va ularga misollar keltirdik (1-rasm).



1-rasm. Web-xizmatlar turlari

Bu xizmatlardan eng ommalashib borayotgan turi infografika yaratuvchilar bo'lib, ular tezkorlik bilan taqdim etilayotgan ma'lumotlarni infografikaga aylantirib beradi. Taqdim etilayotgan imkoniyatlarning kengligi va foydalanish mumkin bo'lgan shablonlarining ko'pligi va eng asosiysi foydalanish osonligi, alohida dasturiy ta'imotni qidirish va o'rnatishga ehtiyoj yo'qligi sababli foydalanuvchilar soni shiddat bilan ortib bormoqda. Shu o'rinda: «o'zi infografika nima?» - degan savolga javob beraylik.

**Infografika** – bu axborot, ma'lumotlar va bilimlarni taqdim etishning grafik usuli bo'lib, uning maqsadi murakkab ma'lumotlarni tez va aniq taqdim etishdir [1].

Ta'lim jarayoni barcha bosqichlarda – axborotni uzatish, saqlash va qayta ishlashda kommunikativ xarakterga ega. Ta'limni axborotlashtirish jarayonining zamonaviy rivojlanishi ushbu ro'yxatga yangi element – ma'lumot taqdimotini, shu jumladan, infografika yordamida yaratilgan vizual obyektlar ko'rinishidagi tasvirlar kiritish zarurligini taqozo etmoqda.

Infografika – bu ma'lumotlarning vizual ko'rinishda taqdim etish usulidir. Katta yoki murakkab ma'lumotlar yoki statistik ma'lumotlarni tez va samarali tushuntirish zarur bo'lganda infografikadan foydalanish juda qulay hisoblanadi. Infografikaning afzalligi shundaki, ular yordamida murakkab ma'lumotlarni aniq va qiziqarli qilish uchun foydalanish mumkin. Biroq, infografika tuzish juda qiyin bo'lishi mumkin, chunki juda ko'p ma'lumot to'plash va uni yaxshi loyihalash kerak bo'ladi. Ko'plab adabiyotlarda infografika yaratishni quyidagi ketma-ketlikka amalga oshirishni tavsiya etishadi:

- ☐ infografika kim uchun mo'ljallangan? auditoriyani aniqlab olish;
- ☐ g'oya va maqsadni aniqlab olish;
- ☐ infografika uchun zarur axborotlarni to'plab olish;
- ☐ uzatish formatini tanlash;
- ☐ sarlavha yoki nom tanlash;
- ☐ bezak berish ishlarini amalga oshirish;
- ☐ amalda infografikadan foydalanib tekshirib ko'rish;
- ☐ amalda joriy qilish harakat strategiyasi belgilash;

Odatda infografikani yaratish uchun an'anaviy tarzda Microsoft Office dasturlari yoki turli grafik muharrirlardan foydalanilgan. Biroq bugungi kunda internet tarmog'ida faol qo'llanilayotgan quyidagi infografika yaratish uchun onlayn xizmatlar mavjud. Ularni tasnifi ham infografika ko'rinishida taqdim etishni ma'qul ko'rdik (2-rasm):



2-rasm. Infografika yaratish uchun onlayn xizmatlar

Canva o'zining rasmiy [canva.com](https://canva.com) saytida infografikani quyidagi 20ta turga bo'ladi, bu esa uning har qanday maqsadda foydalanish mumkinligini anglatadi:

1. Xronologiya infografikasi;
2. Taqqoslash infografikasi;
3. Geografik infografika;
4. Statistik infografika;
5. Tarixiy infografika;
6. Ierarxik infografika;
7. Ijtimoiy infografika;
8. Infografikadagi jarayonlar;
9. Infografikadagi eslatmalar;
10. Infografikadagi ro'yxatlar;
11. Infografikada test kartalari;
12. Infografikadagi ko'rsatmalar;
13. Infografikadagi retseptlar;
14. Infografikadagi xulosa;
15. Animatsion infografika;
16. Interaktiv infografika;
17. Izometrik infografika;
18. Illyustrativ infografika;
19. Matnli infografika;
20. Interyerdagi infografika.

Biroq infografikalarning barchasi vizual taqdimot uchun umumiy vositalardan foydalanadi. Bular quyidagilar: rasmlar; ikonkalar; grafiklar; diagrammalar; blok-sxemalar; jadvallar; xaritalar; sarlavhalar; ro'yxatlar va boshqalar [2].

Keling endi «infografika yaratish uchun nimalarga ega bo'lishimiz kerak va qanday amallar bajarishimiz kerak?» - degan savolga javob topamiz.

Buning uchun shaxsiy kompyuter yoki mobil telefonga ega bo'lish yetarli. Alohida dasturiy ta'minot talab etilmaydi. Brauzer dasturini yuklash va [canva.com](https://canva.com) saytiga kirish hamda quyidagi ketma-ketliklarni bajarish talab etiladi:

- 1-qadam: kerakli formatni tanlang (Choose Your Format);

2-qadam: fon rangini tanlang (Select a Background Color);  
 3-qadam: zarur elementlarni qo'shing (Adding Elements);  
 4-qadam: element rangini o'zgartirish (Changing the Element Colors);  
 5-qadam: element o'lchamini o'zgartirish (Changing Element Size);  
 6-qadam: element joylashuvini o'zgartirish (Changing Element Location);  
 7-qadam: matn qo'shish (Adding Text);  
 8-qadam: matn rangini o'zgartirish (Changing Text Color);  
 9-qadam: matn shriftini o'zgartirish (Changing Text Font);  
 10-qadam: matn o'lchamini o'zgartirish (Changing Text Size);

11-qadam: saqlash va eksport qilish (Saving and Exporting);

Infografika yaratishda avvalo dasturiy vositani to'g'ri tanlash, infografika foydalanuvchisi yoshi va ularning turli xususiyatlarini hisobga olish, g'oya va maqsadni aniqlab olish, infografikani yaratish uchun zarur barcha axborotlarni to'plab olish (bunda biror axborot e'tibordan chetda qolmasligi), infografikani uzatish formatini oldindan aniqlab olish, infografikaga sarlavha yoki nom (mavzu) tanlash, uning dizaynini shakllantirish, bezak berish ishlarini amalga oshirish, dastlab sinash uchun amalda infografikadan foydalanib tekshirib ko'rish ishlarini to'g'ri amalga oshirish lozim bo'ladi. Yaratishining ana shu bosqichlaridan to'g'ri o'tish natijasida shakllangan infografika joriy qilinganda yaxshi samara beradi.

#### Adabiyotlar

1. Zakirova F.M., Shoymardonov T., Karimova V., Adashboyev SH.M. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalariy etish. Tarmoq va mintaqaviy markaz tinglovchilari foydalanishi uchun O'UM. - T.: BIMM. 2021. 108-b.
  2. [https://www.canva.com/ru\\_ru/obuchenie/infografika](https://www.canva.com/ru_ru/obuchenie/infografika) - canva rasmiy sayti.
  3. <https://translated.turbopages.org> - How to Create an Basic Infographic Using Canva.
- REZYUME.** Ushbu maqolada web-texnologiyalarga asoslangan xizmatlarni: Kahoot, Canva, Calameo, MindMeister, PhotoPeach kabi platformalardan elektron ta'lim resurslari yaratish vositasi sifatida foydalanish masalalari haqida so'z yuritiladi.
- РЕЗЮМЕ.** В данной статье рассматриваются вопросы использования сервисов на основе веб-технологий: таких платформ, как Kahoot, Canva, Calameo, MindMeister, PhotoPeach, как средства создания электронных образовательных ресурсов.
- SUMMARY.** This article discusses the issues of using services based on web technologies: platforms such as Kahoot, Canva, Calameo, MindMeister, PhotoPeach as a means of creating electronic educational resources.

## THE STATE OF TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN

**A.A.Khojaniyazova** – candidate of pedagogical sciences, associate Professor  
*Nukus state pedagogical institute named after Ajiniyaz*

**Taynch so'zlar:** metodologiya, ta'lim, o'quv dasturi, darslik, rus tili, ta'limni modernizatsiya qilish, islohot, strategiya, RCT.

**Ключевые слова:** методика, образование, учебные программы, учебник, русский язык, модернизация образования, реформа, стратегия, РКИ.

**Key words:** methodology, education, curriculum, textbook, Russian language, modernization of education, reform, strategy, RFL.

In Uzbekistan, targeted, large-scale work is being carried out to reform the entire education system. This process is accompanied by significant changes in pedagogical theory, in scientific and innovative activities and in the practice of the educational process. The educational system is being modernized - different content, approaches, behavior, and pedagogical mentality are being proposed. Measures are being implemented to stimulate teaching activities and to support innovators who successfully combine teaching, research and innovation activities.

Nowadays regulatory documents relating to education, science and innovation have been identified and developed in the republic. At the initiative of the President of the Republic of Uzbekistan, two most important laws were adopted, which laid a solid foundation for the creation of a coherent system of continuous education of a modern type - "On Education" and "On the National Program for Personnel Training". As a result of their implementation, during this short historical period, fundamental changes occurred not only in the form, but also in the essence of the country's education system [1].

"To understand and comprehend the greatness of our achievements, we should look at the past, trace the history of the development and formation of society," wrote the famous Karakalpak scientist Zh.A.Urumbaev in one of the fundamental studies characterizing the methodological heritage "Essays on the history of schools in Karakalpakstan" [2].

**SUMMARY.** The article is devoted to the problem of psychological characteristics of the formation of operational thinking in pre-school children. The age-related characteristics of children's operational intelligence are considered.

Әлбетте, балалардың ойлауының раўажланыуын үйрене отырып, биз баланың, оған тек ғана анық белгили мәселелерди шешіуе мүмкиншилик берип қалмай, ал оны шешіудің усылларын түсинип алыуына да мүмкиншилик беретугын, сөзликті хәм сөздің грамматикалық қурылысын өзлестіриуіне дыққат аударыуымыз керек.

Ойлаудың ислеп шығылған, онда ойлау процесі қабыл өтиуе, көз алдына елеслетиуе ямаса түсиникке тийкарланған, топар классификациясына тийкарлана отырып, биз ойлаудың төмендегі түрлерин айырып көрсете аламыз: предметли-хәрекетли; көрсетпели-образлы; аўызеки-логикалық. Ойлаудың раўажланыу процесі бул көрсетпели-хәрекетлиден көрсетпели-образлыға хәм оннан кейін сөз бенен айтып бере алыуға болатуғын ойлауға өтиу. Бала образлы ойлай баслайды, бірақ ол еле үлкен адамның ақыл менен ойлап көриу логикасына ийе емес. Хәм тек ғана мектепке шекемги жастың ақырында балада улыўмаластырыуға, байланысларды орнатуға бейимлик пайда болады. Бул процесс ақыл-ойдың алдағы ўақытта раўажланыуы ушын оғада әхмийетли, себеби ақыл-ойға тийкарланған мәселелердің көплеген түрлерин шешіу бәрхама образлы планда иске асырылады. Образлы көз алдына келтириу мәселениң шәртлерин, олардың хақыйкатлық пенен тиккелей байланысын түсиниуе, хәм ең баслысы шешіудің барысын қадағалауға жәрдем береді.

Ойлаудың хәм оның хәр қыйлы формаларының жоқарыда белгилеп өтилген түрлериниң раўажланыуын тезлетиуе болады, бірақ соның менен бирге олардың басқышпа-басқыш өтилиуін өзгертиуе болмайды. Ойлаудың бул түрлериниң барлығы ойлау хәрекетиниң қәлипсесіуі хәм раўажланыуында әхмийетли роль ойнайды. Солай екен, ойлау процесин тезлетиу ушын үлкен адам менен биргеликтегі предметли искерлик керек, бул баланың билим алыушылық раўажланыуының тезлесіуіне хәм муўапықластырылыуына тиккелей тәсир етеді.

Сонлықтан баланың алдына белгили бир мақсетлерди қоя отырып, оның ушын хақыйкатында да тәсир өтиуши болып табылатуғын, яғный бала ушын ең әхмийетлирек болған мақсетке умтылдырыушы себеплерлердің мазмунын есапка алыу керек. Мәселениң булайынша қойылыуы, бул басқышта оның өзиниң тилеклерине туўра келетуғын, үлкен адамның тапсырмаларын баланың әдеуір толығырақ хәм жақсырақ орынлауына себепши болыуы мүмкин. Турақлы болыуы тийис болған бирден бир қағыйда, улыўма мақсет, егер ол әзелден бала тәрәпинен унамлы қабыл етилген болса да, бәрқулла айырым алынған мақсетлерде анықластырылған болыуы тийис, сонда хәр бир бөлимдегі мақсетке ерисіу бир қанша аңсатырақ хәм хақыйқы болады.

Факторлар жыйындысы тийкарында мектепке шекемги жастың ақырына келип бала улыўмаластырыуға хәм предметлер хәмде жағдайлар арасындағы байланысларды орнатуға бейимлигин көрсетеди. Бул баланың ақыл-ойының алдағы ўақыттағы раўажланыуы ушын әхмийетли.

# **O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA O‘QUVCHILAR SO‘Z BOYLIGINI O‘STIRISHNING LINGVODIDAKTIK, LINGVOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**E.S.Shamuratova** – *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent*

**Sh.B.Sagidullaeva** – *doktorant*

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti*

**Tayanch so‘zlar:** o‘quvchi, shakllantirish, kitobxonlik, fikrlash, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya.

**Ключевые слова:** читатель, формирование, чтение, мышление, знание, навык, квалификация, компетенция.

**Key words:** reader, formation, reading, thinking, knowledge, skill, qualification competence.

**Kirish.** Har qanday faoliyatning muvaffaqiyati uni amalga oshirish uchun yaratilgan sharoitlarning qulayligiga bog‘liq. Bunda sharoit tushunchasining atrof-muhitdagi buyumlar va narsalarga munosabatini ham oydinlashtirish lozim. Mazkur munosabatni oydinlashtirmasdan turib kitobxonlik vositasida o‘quvchilarda badiiy adabiyot namunalari qiziqish uyg‘otish sharoitlari haqida fikr yuritish imkonsiz. Sharoitlar moddiy borliqqa nisbatan ko‘pqirrali hodisa hisoblanadi. U muayyan holatni ifodalab, muntazam rivojlanadi.

Ajdodlar tajribasi va zamonaviy yutuqlarni umumlashtirgan holda o‘quvchilarda badiiy adabiyot namunalari qiziqishni shakllantirish va ushbu jarayonda kitobxonlikdan foydalanish o‘zining umumiy va xususiy jihatlariga ega. Ular:

Birinchi sharoit o‘quvchilarning fikrlash faoliyatlarini jadallashtirishga xizmat qiladigan vaziyatlarni tashkil etishdan iborat. Mazkur vaziyatlarda o‘quvchilar farazlar, taxminlarni ilgari suradilar va mavjud holatlarni idrok etadilar. O‘quv maqsadiga erishishning turli variantlarini o‘ylab topadilar. Xatolar ustida ishlaydilar va ularni bartaraf etishga o‘z kuchlarini sarflaydilar. Bunday tarzda bilish faoliyati jarayonida o‘quvchilar o‘zlari uchun o‘ta muhim bo‘lmagan, ikkinchi darajali vazifalarni bajarishga ham duch keladilar. Ular mazkur vazifalarni yechishga zaruriyat sezadilar. Bunday sharoit o‘quvchilarning tafakkuri va mantiqiy fikrlash faoliyatini rivojlantirib, ularning intellektual taraqqiyotini ta‘minlaydi.

Ikkinchi sharoit – o‘quvchilarda shaxsiy bilish faoliyatining shakllanishi, rivojlanishi va ular shaxsiyatining takomillashuvidir [3]. Ushbu sharoit o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etish va optimallashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Aynan ushbu sharoit o‘quvchilarning jadal rivojlanishlarini ta‘minlashga xizmat qiladi. Uning yordamida o‘quvchilarning bilishga asoslangan qiziqishlari qondiriladi va muntazam o‘sib boradi. Ko‘rsatib o‘tilgan ko‘nikmalar o‘quvchilarning o‘quv materiallarini tezkorlik bilan o‘zlashtirishlariga ko‘maklashadi. Ularni amaliy faoliyatlarida qo‘llash o‘z bilimlari ko‘lamini kengaytirishga yodam beradi.

Uchinchi sharoit sinfda psixologik jihatdan qulay, xissiy, ijobiy muhitni yaratish. Bunday sharoit o‘quvchilarga xissiyotlari orqali ta‘sir ko‘rsatib, ularning o‘z-o‘zlarini rivojlantirishlari uchun kuchli stimul vazifasini o‘taydi. Qulay xissiy muhit o‘quvchilarda o‘ziga ishonch, o‘z imkoniyatlarini namoyon qilish, qiyinchiliklarni bartaraf etish, o‘qish va rivojlanish istagining vujudga kelishi, qoniqish hissinı tuyish, quvonch, g‘urur, baxt tuyg‘usini xis etish, istiqboldagi bilish faoliyatiga rag‘batlantirish imkonini beradi.

To‘rtinchi. Ta‘lim jarayonidagi muloqot muhim shartlardan biridir. Muloqot o‘zida munosabatlarning muayyan tizimini mujassamlashtiradi: o‘quvchi-o‘qituvchi; o‘quvchi-ota-ona; o‘quvchi-jamoa; o‘quvchi-o‘quvchi.

Bunday munosabatlarni boshqarish boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Mahoratli o‘qituvchilar o‘zlarining talablari va muxabbatlarini muvofiqlashtirgan holda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatlarini samarali boshqara oladilar.

Badiiy adabiyot namunalari bo‘lgan qiziqish o‘quvchilarda dars va darsdan tashqari pedagogik jarayonlarda tizimli tarzda shakllantiriladi. Bunda quyidagi tadbirlar alohida ahamiyatga ega: suhbatlar, sinf soatlari, kutubxonalarga sayoxatlar, kitobxonlik kechalari, musobaqalar, tanlovlar shular jumlasidan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida badiiy asar namunalari nisbatan qiziqishni shakllantirishda turli o‘yinlar va muayyan asarlar doirasida suhbatlar o‘tkazishlari lozim [1]. Badiiy asarlarga asoslangan saxna ko‘rinishlari o‘quvchilarda alohida qiziqish uyg‘otadi. Bunda o‘qituvchilar ertaklar, dostonlardan olingan parchalardan unumli foydalanishlari lozim. Bunday tadbirlarda o‘quvchilar bilish faoliyatiga ko‘proq jalb etiladilar. Ular bir umrga kitob bilan do‘stlashadilar. O‘quvchilarda badiiy adabiyot namunalari nisbatan qiziqishni shakllantirish yo‘llari:

- muvaffaqiyat vaziyatlarini yaratish;
- o‘quvchilarning emotsiyalariga ta‘sir ko‘rsatish metodlari;

- o‘qitishning o‘yinga asoslangan metodlari;
- muammoli vaziyatlar metodi;
- loyixa faoliyati;
- tarixiy materiallardan foydalanish;
- fan, texnika, texnologiyalarning yutuqlari bilan tanishtirish;

- axborot texnologiyalaridan foydalanish kabilar.

Pedagoglar tomonidan o‘quvchilarda badiiy adabiyot namunalari qiziqish uyg‘otish motivlarining muayyan guruhi ajratib ko‘rsatilgan:

1) o‘quv materialining mazmuni (yangi o‘quv materiallarining o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lishi, ilgari o‘zlashtirilgan bilimlar bilan o‘zaro aloqadorligi ta‘minlanganligi, o‘zida nazariy-amaliy qadriyatlarini mujassamlashtirishi);

2) o‘quv faoliyatini tashkil etish (o‘qish darslarida turli shakldagi o‘quv topshiriqlarini qo‘llash, ular: individual, guruhli, mustaqil, ijodiy, amaliy ish turlari);

3) o‘quv jarayonidagi muloqot (o‘quvchi-o‘quvchi; o‘qituvchi-o‘quvchi).

Yuqoridagilar asosida ta‘kidlash lozimki, o‘quvchilarning badiiy adabiyot namunalari qiziqishlari bilish qiziqishlari sifatida birinchi navbatda o‘quv jarayonida shakllanadi.

Biz quyida o‘qish darslarida o‘quvchilarda badiiy adabiyot namunalari nisbatan qiziqishni shakllantirishning o‘ziga xos jihatlarini ustida to‘xtalamiz. Kitobxonlik o‘quvchilarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish imkonini beradigan asosiy pedagogik vosita hisoblanadi. O‘qish darslarida o‘quvchilarda badiiy adabiyotga nisbatan tizimli tarzda qiziqish shakllantiriladi [1]. O‘quvchilarda kitobga nisbatan shakllangan ma‘naviy ehtiyoj ularning moddiy borliq va atrof-olam bilan tanishishlariga sharoit yaratadi.

Pedagogikada o‘quvchilarda kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish va shu asosda ularni badiiy adabiyot namunalari qiziqitirishga xizmat qiladigan ko‘plab metodlar va usullar mavjud.

Ulardan eng samaralisi ko‘p marta o‘qishdir. Bu jarayonda o‘quvchilar muayyan savollarga javob qaytarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Badiiy asar matniga qayta-qayta murojaat qilish natijasida o‘quvchilar uni chuqurroq anglashga muvaffaq bo‘ladilar. Natijada ularda ushbu asarga nisbatan alohida qiziqish vujudga keladi. Asar ularga alohida ta‘sir ko‘rsatib, o‘zlari uchun yangi, qiziqarli, hayajonga soladigan dalillarni izlab topadilar. Natijada ularning badiiy asarga bo‘lgan qiziqishlari ortadi va chuqurlashadi.

Biz quyida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida badiiy adabiyot namunalari qiziqishni shakllantirishga xizmat qiladigan kitobxonlikning alohida turlari ustida to‘xtalamiz:

1. Oldindan e'lon qilingan kitobxonlik – bunda darsning muayyan qismida yoki butun dars davomida barcha o'quvchilar bilan birgalikda muayyan bir asar o'qiladi. Bunday kitobni o'quvchilarning o'zlari, muayyan badiiy asarga bo'lgan qiziqishlari, uni muhokama qilishga nisbatan qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tanlaydilar. Chunki o'quvchilar mazkur asarni sinfdoshlari va o'qituvchi bilan muhokama qilishga ehtiyoj sezadilar. Bunday kitobxonlik o'quvchilarning badiiy adabiyot namunalari bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

2. Qayta o'qish – bunda o'quvchilar uchun ma'lum bo'lgan muayyan bir badiiy asar vaqt o'tgach, qayta o'qiladi[1]. Natijada o'quvchilar o'z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda badiiy asarda o'zlari yoqtirgan qahramonlar bilan qayta muloqotga kirishadilar. O'zlarining ushbu badiiy asarga bo'lgan qiziqishlari natijasida kelib chiqqan ehtiyojlarini qondiradilar. Natijada ular o'zlarida ilgari paydo bo'lgan xis-tuyg'ularni chuqurlashtiradilar va qayta baholaydilar. Bunda o'quvchilar asar qahramonlari haqida qayta fikrlaydilar va ularni yangicha nuqtai nazardan turib anglashga erishadilar.

3. Erkin o'qish – bunday darslarda o'quvchilar o'z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda muayyan badiiy asarni o'qish istagini bildiradilar. Bunda ular o'z oldilariga nima uchun bu asarni o'qish, nimani aynan o'qish, qanday va qachon o'qish kerak degan savollarni qo'yadilar. Bunday kitobxonlikning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi: o'quvchilarda badiiy asarga qiziqish unga bo'lgan munosabatni aniqlamasdan turib vujudga kelishi mumkin emas. Bu o'quvchining muallif shaxsiga qiziqish, badiiy asar mazmunini bilishga intilish yoki ma'naviy yuksalish istagidan kelib chiqadi [1]. Kitobxonlik ko'nikmalarini namoyon qilishda o'z sinfdoshlaridan orqada qolmaslik istagi ham o'quvchilarni erkin o'qishga jalb qiladi. Mustaqil o'qish o'quvchining istagi bilan bog'liq holda xohlagan paytda va xohlagan shaklda amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'quvchilar o'z qiziqishlari doirasida badiiy asarni tanlashlari, uning muallifi yoki qahramonlari bilan dialogga kirishishlari mumkin. Mustaqil o'qish o'quvchilarga o'zini va badiiy asar namunalari bo'lgan qiziqishini namoyon qilish imkonini beradi [3].

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarda badiiy asar namunalari qiziqishni shakllantirishda muayyan ish turlaridan foydalaniladi:

- matnni yaxlit tarzda o'qish[2:36];
- matnlarni qismlarga bo'lib, reja tuzgan holda o'qish [4];
- matnni tayyor reja asosida o'qish;
- badiiy asar matni yoki uning muayyan qismini sahnalashtirgan holda o'rganish;
- muayyan topshiriqqa asoslangan holda tanlab o'qish;

- shaxslarga bo'lib o'qish;
- ovoz chiqarib o'qish;
- matnni qisqartirib o'qish;
- gaplardan kelib chiqqan holda zanjirsimon o'qish;
- abzaslarga bo'lib o'qish;
- rasmga tayangan holda o'zaro mos keladigan qismlarni izlash asosida o'qish;
- savollarga javob bo'ladigan qismlarni izlash maqsadida o'qish;
- matndagi xulosalarni izlab topishga asoslangan o'qish;
- o'qish yordamida sabab-oqibat bog'lanishlarini topishga asoslangan kitobxonlik;
- muallif so'zidan tashqari dialogli matnlarni rollarga bo'lib o'qish;
- Muayyan qoidalar asosida so'zlarni kim tezroq izlab topish mashqini bajargan holda o'qish;
- Matndagi eng uzun so'zni topish maqsadida o'qish;
- Ikki, uch, to'rt murakkab so'zni izlab topish mashqini bajarish maqsadida o'qish;
- Matnda fe'l va sifat birikmasini izlab topishga asoslangan o'qish;
- Tushunarsiz so'zlarga belgi qo'yilgan holda o'qish kabilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun maroqli o'qish turlaridan biri "Kim berkinmachoq o'ynaydi" nomli mashg'ulotdir.

O'qituvchi doskaga olti qator xarflar yozadi. Tasodifiy xarflar yig'indisidan so'z paydo bo'ladi. O'quvchilar kim ular bilan berkinmachoq o'ynashini bilib oladilar: hayvonlar, qushlar, xashorotlar, o'simliklar bo'lishi mumkin. Bunday mashqlar o'quvchilarning kitobxonlik ko'nikmalari va diqqatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Pedagog matnga turli belgilar qo'yib, urg'ular, to'xtalishlar, murakkab so'zlar haqida o'quvchilarga izoh berishi maqsadga muvofiq. O'quvchilarda badiiy asar namunalari qiziqish uyg'otishda darslarda kichik hajmdagi dialog shaklida yozilgan matnlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish maqsadida biz badiiy asarlardan olingan kichik hajmli matnlardagi asosiy fikrni anglatishga harakat qildik. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratildi: ovozning kuchi va balandligi, zarur o'rinlarda to'xtalishlarga rioya qilish; nutqning xissiy bo'yqordirligini ta'minlash; asar mazmunidan kelib chiqqan holda o'qish maromini o'zgartirish; intonatsiyalarni aniq ifodalash kabilar.

O'quvchilarda badiiy adabiyot namunalari qiziqish uyg'otishda loyiha metodi alohida samaradorlikka ega. Loyiha metodi yordamida o'quvchilarda badiiy adabiyot namunalari qiziqish uyg'otishga yo'naltirilgan faoliyat dolzarb, qiziqarli va samarali hisoblanadi. Aynan loyiha metodi yordamida o'quvchilarni faoliyatning turli turlariga jalb qilish mumkin.

### Adabiyotlar

1. Федорова Т.В. Совершенствование читательской деятельности учащихся старших классов на уроках литературы Специальность 13.00.02 - теория и методика обучения и воспитания (литература) Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук Москва. 2003 <http://nauka-pedagogika.com/pedagogika-13-00-02/dissertaciya-sovershenstvovanie-chitatelskoy-deyatelnosti-uchaschihsya-starshihklassov-na-urokah-literatury#1>

2. Образования - страница 36 <http://recept.znate.ru/docs/index-6870.html?page=36>

3. Ласкина Н.В., Новикова Н.А., Лежнева Н.С., Тимофеева Н.Ю., Слесарев С.А., Вахрушева Ю.Н. "Об образовании в Российской Федерации" (постатейный). - Специально для системы ГАРАНТ, 2014 г. <http://ivo.garant.ru/#/document/57565972>

4. <http://elibrary.ru/item.asp?id=29913499>

**REZYUME.** Ushbu maqolada o'z-o'zini rivojlantirish asosida o'quvchilarning so'z boyligini o'stirishning lingvodidaktik, lingvopsixologik xususiyatlari, o'quvchilarda badiiy adabiyot namunalari qiziqishni shakllantirish, o'quvchilarda shaxsiy bilish faoliyatining shakllanishi haqidagi izlanishlar ko'rib chiqilgan. Pedagoglar tomonidan o'quvchilarda badiiy adabiyot namunalari qiziqish uyg'otish motivlarining muayyan guruhlari o'rganildi. O'quvchilarda badiiy asar namunalari qiziqish uyg'otishda darslarda kichik hajmdagi dialog shaklida yozilgan matnlardan foydalanish maqsadga muvofiqligi bo'yicha tavsiyalar keltirildi.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассматриваются лингводидактические, лингвopsихологические особенности развития словарного запаса учащихся на основе саморазвития, исследования по формированию у учащихся интереса к образцам художественной литературы, формированию у учащихся личной познавательной деятельности. Педагогами изучены определенные группы мотивов пробуждения у учащихся интереса к образцам художественной литературы. Были даны рекомендации по целесообразности использования на уроках текстов, написанных в виде диалогов небольшого объема, для привлечения внимания учащихся к образцам художественных произведений.

**SUMMARY.** The article examines the linguistic, linguistic and psychological features of the development of the vocabulary of students on the basis of self-development, research on the formation of interest in students to samples of fiction, the formation of students' personal cognitive activity.. Teachers have studied certain groups of motives for awakening students'interest in artistic literature. Recommendations were given on the appropriateness of using texts written in the form of small-scale dialogues in the lessons to attract the attention of students to samples of artistic works.

## **Tálim - tárbiya teoriiyası hám metodikası**

### **STUDENT JASLARDA HÚJDANLÍ, ÁDEP-İKRAMLÍ QARÍM-KATNAS PAZÍYLETLERIN RAWAJLANDÍRÍW**

**P.S.Abdimuratov** – *pedagogika ilimleriniń kandidati, docent*

*Berdaq atındaǵı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti*

**B.T.Seytanov** – *erkin izleniwshi*

*Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali*

**Tayanch soʻzlar:** axloq, madaniyat, nafosat, psixologiya, milliy qadriyat, xulq-atvor, komil inson, shaxs.

**Ключевые слова:** нравственность, эстетика, национальные ценности, воспитание, личность, деятельность, самопознание, ценностная ориентация.

**Key words:** morality, esthetics, national value, education, person, activity, self-conscious, valuable orientation.

Shıǵıstıń ullı danıshpan oyshılları Abu Nasr Farabiy, Abu Rayxan Beruniy, Abu Aliy ibn-Sino, Kaykawis, Alisher Nawayı, Maqtumqulı, Abay, Berdaq, Ájiniyaz shıǵarmalarında jaslarǵıń hújdanlı, ádepli, bilimli bolıp kamal tabıwları ushın tálim-tárbiya keń orın iyelep, bunda jaslarǵıń ózine tán psixologiyalıq hám jas ózgeshelikleri úlken áhmiyetke iye ekenligin kóremiz [2].

Student ózine tán sıpatqa iye bolǵan, erk-isenimi kúshli, oy-túsinigi keń, mádeniyatlı qarım-qatnas iyesi. Ustaz- óz xızmeti barısında tiykarǵı obyektı bolǵan studentti biliwi, hár kún sayın fizikalıq, psixologiyalıq jaqtan ósip baratırǵan ózine teńles bul insan menen álbette, joqarı mádeniyatlı qarım-qatnasta bolıwı minnetli hám áhmiyetli.

Studentlik dáwir - million-million jaslar turmısındaǵı eń mazmunlı, eń umıtılmas dáwir. Bul jıllar dawamında jaslar ideyalıq jaqtan shınıǵıp, el perzentı bolıp qalıplesedi. Sheber alım-pedagoglar basshılıǵında keshegi mektep oqıwshıları búginge kelip joqarı oqıw ornı qushaǵında bir neshe jıllıq oqıwı dawamında ilim-texnika rawajlanıwınıń eń sońǵı jetiskenlikleri menen tanısadı, ózleri ushın ilim shınlarına qaray, keleshegi umtılıp aydın jol ashadı. Álbette insan kamalatqa jetisip barar eken, onıń oy-pikiri, dunya qarası, qarım-qatnası ózin qorshaǵan ortalıq hám jámiyetlik múnásibetler menen tıǵız baylanısta tolǵıp baradı.

Ruwxıy mádeniyatı, rawajlanıwdıń intellektual baylıqların meńgerip alıw hám bulardı jaslarǵıń aqıl-sanasına sińdirip barıw jańalanıp baratırǵan turmıstıń ádep-ikramlıq, ideyalıq tiykarı bolıp esaplanadı. «Ózbekstan Respublikasında mámleketlik jaslar siyasatınıń tiykarları haqqında» Nızam demokratiyalıq bazar qatnasıqlarına, jámiytlık ózgerislerge hámde ózin-ózi rawajlandırıwǵa, huquq hám minnetlerdiń birligin, erkinlik hám puqaralıq juwapkershilikti túsiniwge pıdayılıq ruwxında bolıw, dáwir talaplarına juwap beretuǵın jańa psixologiyalıq pazıyletlerdi iyelew hám rawajlandırıwdıń ilimiy tiykarlarına baǵdarlangan halda islep shıǵıldı.

Bul baǵdar jaslarǵıń jámiyetlik-psixologiyalıq kelbetin, jámiyetlik minnet oqıw, bilim alıw, kásip iyelew haqqındaǵı túsiniklerin túpten ózgertip, jas áwladtıń salamat ósip er jetiwine hár qashanǵıdan da, hámme nárseden de joqarı dárejede áhmiyet berilgenligin kórsetedi. Zamanagóy sharayat jaslarımızdıń erkin pikirlewine, oylaw sheńberiniń keńeyiwine, ilimge bolǵan qızıǵıwshılıǵınıń kúsheyiwine, júreginde ana-Watánǵa, xalqına degen mehir muhabbatıń bekkemleniwine jańa psixologiyalıq kózqarastan ken jol ashıp bermekte [1].

Omırge jańa áwladlardıń kirip keliwi menen olardıń salamat, barkamal qalıplesiwine tábiy túrde óz dáwiriniń tálim tárbiyası jetekshilik etedi. Bizler jasap atırǵan jámiyetimizdiń keleshekte qanday bolıwı, bunnanda joqarı basqıshqa kóteriliwi búgingi jaslarǵıń tálim-tárbiyasına hám olarǵa ilim-bilim sırların berip atırǵan pedagog-oqıtıwshılardıń kásiplik qábiyetine, metodikalıq sheberligine kóp jaǵınan baylanıslı. Ótmishi ullı xalıqtıń áwladları bolǵanımız ushında bizlerge hámme waqıt hár qanday qıynshılıqtan shıǵıwda, jetiskenlikke erisiwde ustazlardan miyras qalǵan qalbimizdegi ruwxıy dunya, ustaz-shákirt dástúrleri ómir-baxıy kúshke iye.

Ustaz saqıy, ádepli, mehriyban, ashıq juzli, shiyrin sózli, sabırılı, shıdamlı, talapshań, tuwrı sózli pazıyletleri menen shákirtlerine ulǵı bolıwı kerek. Ustazdıń eń jaqsı kásiplik pazıyletlerinen biri shákirt tayarlap shıǵarıw. Ustaz ózinen keyin bilimli, qábiletli shákirt qaldırmasa, onıń ómiri, etken miynetleri biykar ketken deyiledi. Ustaz qanshama ullı bolmasın, tariyxta belgili iz qaldırmasın, óz bilimin, ónerin keyingi áwladqa kaldırmasa, onıń islerin dawam ettiretuǵın adam bolmaydı [3].

Ullı babamız Amir Temurdıń óz ustazı Sayd Barakaǵa bolǵan ibratlı múnásibeti, Alisher Nawayının ustazları Lutfiy menen Jámiyge bolǵan mehir-muhabbatı hámme waqıt jas áwladlardıń ulǵı alarlıq umtılıwların aqlaydı.

Qıynshılıqlardı jeńip shıǵıw, jańalıqqa umtılıw, erteńgi künge isenim jaslar psixologiyasına tán qubılıs. Sebebi, ata-ana, ustaz olardıń hámme waqıt, hámme jerde súyenishi, kóz aldındaǵı birinshi tayanışı esaplanıp, usı arqalı olar joqarı oqıw ornında da ózleri tańlaǵan kásiplerine mehir qoyıp, úyrenip, bilim alıp keleshekke umtılıp jasaydı. Jalınlı jaslıqtıń bul basqıshında jaslarǵa ilimiy, ámeliy kónlikpeler, siyasiy, mádeniy dunya qaras, adamlar menen ádep-ikramlı qarım-qatnas psixologiyası qalıplesedi, ruwxıy dunyası bayıp baradı. Sonıń menen birge, kúndelikli ómirinde qıynshılıq, turmıshlıq qarım-qatnaslarında tosqańlıqtıń da dus keliwi tábiyiy. Jaslarǵıń studentlik dáwirinde kúndelik turmısına eń joqarı ádep-ikramlılıq qaǵıydaların sińdiretuǵın, jámiyet talaplarına muwapıq halda is alıp barılıwın támiynileytuǵın, siyasiy-ideyalıq jaqtan shınıqtıratuǵın, huquqiy qorǵawshısı, jaqın keńesgóyi-öz Ustazı bolıp tabıladı [4].

Ustaz-shákirttiń eń joqarı maqset hám ideyaǵa umtılıwshı qarım-qatnas iyesi sıpatında, óz shákirtleri aldında óziniń hár qanday waqıyaǵa múnásibeti, dunya qarası, bilimi, ibrat alatın ulǵılı tárepleri menen hár bir jigıt-qızdıń mehriban, hámmeden jaqın, saqıy, ádalatlı qorǵawshısı, jáne de, toqtawsız ruwxıy dunyasına, kóz-qarasına tárbiyalıq tásir etip otırıwı, onıń hámmeden ayrılıp turatuǵın joqarı moralıy tárepleri bolıp esaplanadı. Bul kórinisler studentlerde talapshańlıq, óz-ózine juwapkershilik sezimlerin payda etip, ana-Watanımız mápi ushın xızmet etiw tuyǵısın kúsheytedi. Studenttiń basqa oqıtıwshılardan kóre óz ustazı menen bolǵan gúrriń, pikir alısıwları, ózindegi tártip-intizamdı kúsheytiwge, hár nársenge ashıq, itibarlı múnásibette bolıwǵa, oyshań karım-katnas jasawǵa kóbirek iytermeleydi hám orınlanıwın támiyinleydi.

Joqarı oqıw ornında studenttiń ádep-ikramlılıq oy-tuyǵısı, ruwxıy keshirmesi kóbirek óz ustazınıń keńesi, kórsetpesi, múnásibeti, xarakteri, háreketleri tásir menen baylanıslı bolıp, bular olardaǵı jaqsı yaqı jaman sıpatlardıń payda bolıwında tásir jasap otıradı. Mısalı, 1-kurs studentinde ele mekteptegi kózqaras, qarım-qatnas, joqarı oqıw ornı ortalıǵına mas emes psixologiyaniń basımılığı ústin bolsa, 2-3 kurslarındaǵı baslı maqset oqıw, ózindegi bar jeke qábiletti júzege shıǵarıw; abroy arttırıp barıw; oqıw ornı, ata-ana, óz jaqınları aldında xoshemetke erisiw, minneti hám huquqın ańlaw, al pitkeriwshi kursqa kelgeninde ruwxıy oy-tuyǵılardıń ústemligi, sadıq dosqa iye bolıp ómir súriwge tayarlıq, óz qanıygelikleri boyınsha alǵan ilimiy bilimlerin ámeliy jaqtan qollanıw, mine,

usınday jaslıq sınavlarına duwshar bolğan studentke tórt jıl dawamında mehribanlıq etetuǵın, ruwxıy dunya qarasında ózine hámmeden jaqın ustazı. Usınday tásirsheń, ómirdiń eń áhmiyetli basqışında studenttiń ruwxıy dunyasında, kózqarasında «biziń ustaz» bolıp basqalardan ózgeshe, bir ómir móhirlenip qalıwı hár bir jigit-qızdıń jámiyette múnásip insan bolıwına tımsal bolǵanlıǵı bolsa kerek [3].

Erkin hám azat Watanımız perzentlerin keleshegi párawan jámiyet qurıw jolında olardıń bilim tárbiyasın jetilistiriw, hár qanday jat illetlerden saqlaw búgingi kúnde áhmiyetli mashqalaga aylanıp, bul jolda máriypetli, ziyalı-ustazlardıń tálim-tárbiyalıq xızmetiniń joqarı dárejede ekenligi baslı másele bolıp kalmakta. Danışpanlar aytadı: «Tárbiyashı-ustaz bolıw ushın aldın basqalardıń aqıl-oyn óstiriw, ilim-bilim bulagınan qandırıw, shın mánistegi puqara etip jetilistiriw ushın eń aldın, tárbiyashınıń ózi usınday talaplarga juwap beriwi, joqarı adamgershilik pazyletlerge iye bolıwı kerek»-degen edi.

Qaysı dáwirde bolmasın pedagog, bul jańa jámiyet ótetuǵın, bilim-tárbiya, ustaz-shákirtlik dástúrlerin úlken áwladtan jańa áwladqa izbe-iz, turaqlılıq hám

juwapkershilik penen jetkerip, dawam ettirip otıratuǵın hár bir jańa áwlad kelesheginin jol basshısı bolıp sanaladı. Házirgi zamannın eń ótkir, juwapkerli hám keń bilimlerde iye bolğan joqarı oqıw ornı pedagog-alımları barlıq ájayıp pazyletlerge iye bolıwı, joqarı adamgershilik kózqarastan turıp student jaslardıń hár tárepleme kamal tabıwına, milletler aralıq tuwısqanlıq qarım-qatnas ruwxında tárbiyalanıwına, siyasiy hám huquqıy jaqtan hesh kimnen kem bolmawına, salamat áwlad bolıp jetilisip, el maqtanıshı bolıwına hám minnetli, hám juwapker ekenin jaqsı sezinedi. Ullı danışpan Sokrattıń: «Jaslar miywe aǵashına usaydı, qáytıp ekseń solay kógeredi, meniń aqıl-kehesimdi kewlillerine tasqa basılǵan mór sıyaqlı qabıl etedi, sonlıqtan men olardıń tárbiyasına kóbirek kewil beremen»-degen tereń oyli pikirleri búgingi kúnde, jańa mániste, jańa mazmunda turmista tastıyıqlanıwın tappaqta[2].

Hár kúni, hámme waqıt student jaslardıń jámiyetlik ortalıqta jeke sıpatın, ruwxıy salamatlıǵın, fizikalıq kúsh-quwatı hám keń dunya qarasın rawajlandırıw hám bekkemlew ustaz-pedagogtıń tárbiyalıq jumısınıń baslı baǵdarı, bilimlendiriwdiń úziksiz dawamı bolıp turadı.

#### **Ádebiyatlar**

1. Qosnazarov K., Pazılov A., Tilegenov A. Pedagogika. Sabaqlıq. –Nókis: 2009.
2. Abdimuratov P.S. Ўzbekistonda ta’lim-tarbiyaning milliy-ma’naviy asoslari. -N.: “Qaraqalpaqstan”, 2016.
3. Azizxodjaeva N.N. Wqıtuvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. –T.: 2000.
4. Abdimuratov P.S. Muǵallim keleshek tárbiyashısı. -N.: 2023.

**REZYUME.** Maqolada talabalarnı ma’naviy va axloqiy tarbiyalashning mohiyati haqida so’z yuritilib, insonni ijtimoiy qadriyat sifatida o’rganish, ajdodlarimiz merosini boyitish va rivojlantirish yo’llari tadqiq qilinadi.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассматриваются нравственное и эстетическое воспитание личности, изучение личности как социальной ценности, обогащение и развитие нравственного наследия предков.

**SUMMARY.** The article deals the esthetic and moral education of a person, the study of a person as the social wealth, developing and enlarging moral value of ancestors.

### **KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA BO’LAJAK GEOGRAFIYA O’QITUVCHILARIGA MUSTAQIL TA’LIMNI SAMARALI TASHKIL ETISH VOSITALARI**

**O.U.Abdimurotov – pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori**  
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

**Tayanch so’zlar:** geografiya, kredit-modul tizimi, mustaqil ta’lim, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, axborot texnologiyalari.

**Ключевые слова:** география, кредитно-модульная система, самостоятельное обучение, педагогическая технология, интер-активные методы, информационные технологии.

**Key words:** Geography, credit-module system, independent education, pedagogical technology, interactive methods, information technologies.

**Kirish.** Olib borilgan tahlillar natijasida, hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalarida faoliyat ko’rsatayotgan o’qituvchilarning asosiy qismi mustaqil ta’lim jarayonini tashkil etishning an’anaviy, ya’ni ilgari qo’llanilgan usullarini yaxshi o’zlashtirib olishgan (referat, esse, mustaqil ish), lekin ular mustaqil ta’limni samarali tashkil etishning yangi metod va vositalaridan yetarli darajada foydalanmayaptilar. Ya’ni mustaqil ta’lim jarayonini aynan kompetensiyalarni shakllantirishga yo’naltirish, mashg’ulotlarini loyihalash, AKT laridan va internet tarmog’idan ta’limiy maqsadlarda foydalanish, rolli o’yinlar, amaliy o’yinlar, kompyuter o’yinlari, mustaqil bilim olish va boshqa interfaol usullar talabalarida kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligini oshiradi.

Mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalari kredit-modul tizimga o’tganligi tufayli o’quv jarayonida kompetentlikning shakllangan darajasi va mazmuni bo’yicha bitiruvchiga qo’yiladigan talablarni tubdan o’zgartirmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida fanlardan Davlat ta’lim standartı talabalarning egallashi lozim bo’lgan bilim, ko’nikma, malaka va kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo’lib, hozirgi kunda fanlarni o’qitish samaradorligini oshirish hamda xalqaro talablarga moslashtirish maqsadida mustaqil ta’limga auditoriyadan (ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg’ulotlaridan) kam bo’lmagan miqdorda soat ajratilgan. Shuning uchun bugungi kunda jamiyatni rivojlanishida ijodiy ongli pozitsiyaga va barcha

o’zgarishlarga moslashuvchan shaxsni tarbiyalash uchun oliy ta’lim muassasalari ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tizimini takomillashtirishni taqozo etadi. Oliy ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalar turli manbalardan bilim olish, olingan ma’lumotlarni tizimlashtirish va muayyan ishlab chiqarish holatini baholash uchun ma’lum qobiliyat va ko’nikmalarga ega bo’lishlari muhim ahamiyatga ega [1]. Bunday ko’nikmaning shakllanishi butun o’qish davrida talabalarning amaliy mashg’ulotlarda ishtirok etishi, nazorat topshiriqlarni mustaqil bajarishi, testlarni yechishi, kurs va bitiruv malakaviy ishlarni yozishi orqali sodir bo’ladi.

Bunday faoliyat bevosita talabalarida o’zini o’zi tarbiyalash ko’nikmalarini rivojlantirishga bog’liq, shuning uchun talab qilinadigan malaka darajasiga erishish ko’p jihatdan talabalarning mustaqil ta’limi rolini ortishi bilan belgilanadi. Talabalarning mustaqil ishlash ko’nikmalarini rivojlantirish, ularning kasbiy o’sishini rag’batlantirish, ijodiy faollik va tashabbuskorlikni rivojlantirish uchun professor-o’qituvchilarning mas’uliyati muhim sanaladi. Shunday yondashuv bilan o’z kasbini yaxshi biladigan va o’z mutaxassisligi bo’yicha, shu jumladan, turdosh sohalarida samarali mehnat faoliyatiga qodir bo’lgan kerakli xodimni tayyorlashga erishish mumkin [2].

**Ishning maqsadi va vazifalari.** Yurtimiz pedagogika oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’limni tashkil etish usullarini o’rganish hamda mustaqil ta’limni samarali tashkil etishning yangi metod va vositalaridan ta’lim jarayonlarida foydalanish masalalarini tadqiq etish ishning

**maqşadi** hisoblanadi. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilandi: oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etish holatini o'rganish; mustaqil ta'limni samarali tashkil etishning yangi metod va vositalarini o'rganish; mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish.

Bularning barchasi mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifalari sifatida talabalarni o'zini o'zi tarbiyalash ko'nikmalarini rivojlantirish, o'rganishni intensivlashtirish va individuallashtirish, o'quv fanlarining zamonaviy tuzilmasini ishlab chiqish kabi muammolarni aniqlashga imkon berdi [5]. Bunday xilma-xil vazifalarni hal qilishda kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishni asosi sifatida, umuman oliy ta'lim muassasalari talabalarining kognitiv faoliyatini, xususan, mustaqil faoliyatini pedagogik boshqarishni optimallashtirish orqali erishishi mumkin. Natijada, talabalarga mustaqil ta'lim faoliyatida uzluksiz ta'lim olish uchun zamin yaratishni hamda doimiy ravishda o'z malakalarini oshirish, ijtimoiy va kasbiy jihatdan harakatchan shaxs bo'lish imkoniyatini beradi.

**Asosiy qism.** Mustaqil ta'lim talabani o'quv yoki ilmiy bilimlarini tashkil etish vositasi sifatida ikki tomonlama xususiyatga ega. Bir tomondan, bu o'quv vazifasi, ya'ni professor-o'qituvchi yoki metodik ishlanmalar orqali taklif qilinadigan talabalar faoliyatining obyekt bo'lsa, boshqa tomondan, bu tegishli o'quv jarayonini yakunlash uchun muayyan faoliyat usulining namoyon bo'lish shaklidir. Shu munosabat bilan keyingi yillarda ilmiy-pedagogik adabiyotlarda nazariy jihatlar aniqlashtirilib, amaliy tajribalar umumlashtirilib, talabalarining vaqtini unumli sarflashni, aqliy faoliyatni oqilona tashkil etish yo'llari va madaniyati o'rganilmoqda [6]. Aytish mumkinki, oliy ta'limning bosqichli tizimi sharoitida mustaqil ta'lim mazmuni, o'tkazgan vaqti va professor-o'qituvchilarning ushbu faoliyat turiga haqiqiy munosabati jihatidan ham prinsipial jihatdan yangi mazmun kasb etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlarni, jumladan geografiyaga oid fanlardan fundamental bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida kasbiy kompetentligini rivojlantirishni ta'minlaydigan mustaqil ta'limni yetakchi shakli sifatida qaralishi kerak. Buning uchun talabalarni geografiya fanlaridan mustaqil ishlarini mohiyatini ochib berib, uni tashkil etishning nazariy va uslubiy asoslarini tahlil etish asosida mustaqil ta'limning tashkil etish modeli ishlab chiqilishi zarur hamda bu modelda asosiy e'tibor geografiya fanlarini mustaqil o'rganishda E-learning va M-learning o'qitish vositalaridan foydalanishga qaratilishi lozim.

E-learning tushunchasi tadqiqotchi va olimlar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan. Bu borada YUNESKO mutaxassislarining fikriga ko'ra, E-learning – bu internet va multimedia texnologiyalari yordamida o'qitishdir. Umuman olganda, masofaviy ta'lim va E-learning umumiy kesishish nuqtalariga ega, ammo ular sinonim emas. Masofaviy ta'lim, birinchi navbatda, o'qituvchi va talabalarining masofada bo'lishini nazarda tutadi, lekin ular qanday shaklda (yozma yoki elektron) ishlatilishi va o'quv materiallari (pochta, kurerlik, Internet texnologiyalari, televideniya) qanday yetkazib berilishi muhim emas. O'z navbatida, E-learning masofadan turib amalga oshirilishi shart emas, balki o'quv materiallaridan faqat raqamli texnologiyalar orqali amalga oshiriladigan elektron shaklda foydalanishni nazarda tutadi. E-learning o'qitish vositasidan foydalanib ta'lim olish shaxsiy kompyuter, smartfon kabi qurilmalar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalarining mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda E-learning bilan birgalikda M-learningdan foydalanish samarali hisoblanadi.

M-learning yoki mobil ta'lim bu bir nechta kontekstlarda, ijtimoiy va mazmunli o'zaro ta'sirlar orqali, shaxsiy elektron qurilmalardan foydalangan holda o'rganishdir. Masofaviy o'qitish shakli, M-learning mobil qurilmalarning ta'lim texnologiyasidan o'zlariga qulay vaqtda foydalanadi.

M-learning texnologiyalariga PDA, MP3 noutbuklar, mobil telefonlar va planshetlar kiradi. M-learning portativ texnologiyalar bilan o'zaro aloqada bo'lgan talabani harakatchanligiga e'tibor beradi. O'quv qo'llanmalari va materiallarini yaratishda mobil vositalardan foydalanish norasmiy ta'limning muhim qismiga aylanib bormoqda [3].

M-learning qulay o'qitish vositasi hisoblanadi, chunki u deyarli barcha joyda mavjud. Axborot almashinuvi bir xil tarkibdan foydalanadigan har bir talaba o'rtasida deyarli bir zumda sodir bo'ladi, natijada tezkor fikr-mulohazalar va maslahatlar paydo bo'ladi. M-learning kitoblari va eslatmalarni maxsus mo'ljallangan o'quv mazmuni bilan to'ldirilgan kichik qurilmalar bilan almashtirish orqali yuqori harakatchanlikni ta'minlaydi. M-learning tejamkor bo'lishda qo'shimcha afzalliklariga ega, chunki planshetlardagi raqamli kontentning narxi an'anaviy media (kitoblari, CD, DVD va boshqalar) bilan solishtirganda keskin pasayadi. Misol uchun, bitta raqamli darslik qog'oz darslikning uchdan bir yarmigacha turadi (AFD, 2012) [4].

Talabalarining mustaqil o'quv faoliyatini E-learning va M-learninglardan foydalanib nazariy bilim olishi bilan birga, ularning mustaqil ishlariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq sanaladi. Talabalarining mustaqil ishini asosiy vazifasi shaxsiy izlanishlar orqali ilmiy bilimlarni egallash, o'quv va amaliy ishlarga ijodiy mustaqil yondashishga faol qiziqish, motivatsiyasini, ijodiy qobiliyatini oshirish va kognitiv fikrlashini rivojlantirish hamda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat [7]. Mustaqil ish o'quv va maxsus adabiyotlarni, asosiy va qo'shimcha, meyoriy materiallarni o'rganish, manbalar bo'yicha qaydlar olish, og'zaki va yozma xabarlar, ma'ruzalar, konspektlar tayyorlash, amaliy vazifalarni hamda kompyuter dasturlari yordamida turli topshiriqlarni bajarishdan iborat.

Shu maqsadda tadqiqoti doirasida talabalarining mustaqil ishini tashkil etishning to'rtta bosqichini ishlab chiqdik:

**1-bosqich. Motivatsiyasini oshirish.** Bunda talabalar axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib geografik bilimlarni mustahkamlaydi va kasbiy kompetentligini rivojlantiradi. Buni "Geografiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalari" fani misolida ko'rib chiqamiz (1-4-jadvallar).

1-jadval. 1-bosqich mustaqil ta'limni tashkil etish

| № | Mustaqil ishga mo'ljallangan mavzular va topshiriqlar                                                     | Soat | Foydalaniladigan manbalar                                                                         |
|---|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|---------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | Geografiya fanlarini o'qitishda foydalaniladigan ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlarni o'rganish | 3    | Global tarmoqdan foydalanib pedagogik texnologiyalarga oid ma'lumotlar to'playdi.                 |
| 2 | Geografiya faniga oid interaktiv xaritalarni qidirish                                                     | 2    | Global tarmoqdan foydalanib interaktiv xaritalar joylashtirilgan elektron manzillarini aniqlaydi. |
| 3 | Geografiya fanini o'qitishga mo'ljallangan ilova va dasturlarni o'rganish                                 | 3    | Global tarmoqda joylashtirilgan o'yinli ilova va dasturlarning manzillarini to'playdi.            |
| 4 | Geografiya fanlariga oid videodarslarni to'plash                                                          | 2    | Global tarmoqdan foydalanib geografiya fanlariga oid videodarslarni topadi.                       |

|                     |                                                                                                                                           |   |                                                                               |
|---------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|-------------------------------------------------------------------------------|
| 5                   | Geografiya fanlariga oid yangiliklarni to'plash                                                                                           | 2 | Global tarmoqdan foydalanib geografiya fanlariga oid yangiliklarni to'playdi. |
| 6                   | Geografiya darslarini interfaol metodlar va axborot texnologiyalari vositalarini integratsiyalash asosida dars ishlanmalar ishlab chiqish | 3 | Metodik ishlanmalar-dan foydalanib dars ishlanmalarini tayyorlash             |
| <b>Jami 15 soat</b> |                                                                                                                                           |   |                                                                               |

**2-bosqich. Ijodiy qobiliyatini rivojlantirish.** Bunda talabalar kasbiy fanlarning fan dasturida keltirilgan mustaqil topshiriqlarni bajarishdan iborat

2-jadval. 2-bosqich mustaqil ta'limni tashkil etish

| T/r | Mustaqil ishga mo'ljallangan mavzular va topshiriqlar                                                                                                                     | Soat | Bajarish tartibi                  |
|-----|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|-----------------------------------|
| 1   | Geografiya darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari                                                                                                  | 1    | Ochiq va yopiq testlar tayyorlash |
| 2   | O'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishda pedagogik texnologiyalarning roli                                                                         | 1    | Taqdimotlar tayyorlash            |
| 3   | Geografiyani o'qitishda foydalaniladigan dars tiplari va turlari                                                                                                          | 1    |                                   |
| 4   | Interfaol metodlardan geografiyani o'qitishda foydalanish                                                                                                                 | 1    |                                   |
| 5   | Ta'lim-tarbiya berish funksiyasi yetakchi bo'lgan pedagogik texnologiyalar                                                                                                | 1    | O'z fikrini yozib kelish          |
| 6   | O'quvchilarning geografiya-dan masala va mashqlar yechish ko'nikmalarini rivojlantirishda lokal va xususiy metodik darajadagi pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashtirish | 1    | PISA testlarini tayyorlash        |
| 7   | Geografiyani o'qitishda o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda lokal va xususiy metodik darajadagi pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashtirish             | 1    |                                   |
| 8   | Geografiyani o'qitishda fanlararo bog'lanishni amalga oshirishda lokal va xususiy metodik darajadagi pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashtirish                          | 1    |                                   |
| 9   | O'quvchilarning geografik kartalardan foydalanib amaliy topshiriqlarni bajarishda lokal va xususiy metodik darajadagi pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashtirish         | 1    | Taqdimotlar tayyorlash            |
| 10  | O'quv-texnik vositalar va ulardan geografiyani o'qitishda foydalanish yo'llari                                                                                            | 1    |                                   |
| 11  | Geografiyani o'qitishda pedagogik va axborot texnologiyalarini uyg'unlashtirish yo'llari                                                                                  | 1    |                                   |
| 12  | Geografiyani o'qitishda audio, video va kompyuter vositalaridan uyg'un foydalanish                                                                                        | 1    | O'z fikrini yozib kelish          |

|                     |                                                                                                                            |   |                                                                                                                                          |
|---------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 13                  | Geografiyadan sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda o'quv-texnik vositalardan foydalanish yo'llari.             | 1 | Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya darslarini va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tayyorlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish |
| 14                  | Geografiyani o'qitishda foydalaniladigan ko'rgazma vositalarining turlari va ularni darslarda uyg'unlashtirish muammolari. | 1 |                                                                                                                                          |
| <b>Jami 15 soat</b> |                                                                                                                            |   |                                                                                                                                          |

**3-bosqich. Kognitiv fikrlashini rivojlantirish.** Bunda talabalar geografiyaga oid topshiriqlarni kompyuterning amaliy dasturlaridan va onlayn platformalardan foydalanib bajarishdan iborat.

- geografiya xaritalarini chizish;
- geografiya faniga oid videodarslarni tayyorlash;
- interaktiv xaritalarni tayyorlash;
- elektron shaklda ochiq va yopiq testlarni ishlab chiqish;
- krossvordlar tayyorlash;
- geografiya faniga oid elektron darsliklar tayyorlash.

3-jadval. 3-bosqich mustaqil ta'limni tashkil etish

| T/r                 | Mustaqil ishga mo'ljallangan mavzular va topshiriqlar                                      | Soat | Foydalaniladigan vositalar                                   |
|---------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------|------|--------------------------------------------------------------|
| 1                   | Interaktiv xaritalar tayyorlash                                                            | 2    | Kompyuter dasturlari va onlayn platformalardan foydalaniladi |
| 2                   | Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tiladigan geografiya faniga oid videodarslar tayyorlash | 2    | Kompyuter dasturlari va onlayn platformalardan foydalaniladi |
| 3                   | PISA testlarini tayyorlash                                                                 | 2    | Kompyuter dasturlari va onlayn platformalardan foydalaniladi |
| 4                   | Krossvordlar tayyorlash                                                                    | 3    | Kompyuter dasturlari va onlayn platformalardan foydalaniladi |
| 5                   | Geografiya faniga oid elektron darsliklar tayyorlash                                       | 3    | Kompyuter dasturlaridan foydalaniladi                        |
| 6                   | Google classroom platformasida to'garaklar o'tkazish uchun muhit hosil qiling              | 3    | Google classroom platformasida foydalaniladi                 |
| <b>Jami 15 soat</b> |                                                                                            |      |                                                              |

**4-bosqich. Tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish.** Bunda dala amaliyotlarida turli tajribalar o'tkazish, keyslarni bajarish, tezis, maqola, tayyorlashdan iborat hisoblanadi. Xorijiy tajribalarga tayanadigan bo'lsak, ularning oliy ta'lim muassasalarida talabalarining mustaqil o'quv faoliyatida keyslar bajarishiga alohida e'tibor qaratilgan. Shu maqsadda geografiya fanidan talabalarining mustaqil ta'limida keyslarni bajarish vazifa sifatida berish orqali, ularni mustaqil izlanishga, mustaqil qaror qabul qilishga, ijodiy qobiliyatini oshirishga hamda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishga erishish mumkin. Shu bilan birga dala amaliyotlarida tajribalarini o'tkazishda va o'tkazilgan tajribalarda hisobot, tezis, maqola, bitiruv malakaviy ishini bajartirishda foydalanish muhim sanaladi.

4-jadval. 4-bosqich mustaqil ta'limni tashkil etish

Mobil ilovalarni ishlab chiqishning muhim qismi ham ularning ishlashini ta'minlashdir. Bunga erishish uchun resurslarni minimallashtirish va siqish (CSS va JavaScript fayllari), resurslarni asinxron yuklash va keshlash kabi optimallashtirishning turli usullaridan foydalanish mumkin. Flask Flask-Assets kabi kengaytmalardan foydalanishni qo'llab-quvvatlaydi, ular statik fayllarni optimallashtirish jarayonini avtomatlashtiradi va shu bilan ilovalarni yuklash tezligini va umumiy foydalanuvchi tajribasini yaxshilaydi.

Server tomonidagi mantiqqa o'tadigan bo'lsak, Flask ishlab chiquvchilarga mijoz so'rovlarini bajarish uchun moslashuvchan marshrutizatsiya tizimini taklif qiladi. Marshrutlarni va ularga mos keladigan ishlov beruvchi funktsiyalarini aniqlash ishlab chiquvchilarga mijoz va server o'rtasidagi ma'lumotlar oqimini osongina boshqarish imkonini beradi, bu dasturda foydalanuvchining turli harakatlarini boshqarish mantiqini ta'minlaydi. Ma'lumotlar bazalari va boshqa tashqi xizmatlar bilan integratsiya Flask modullari va kengaytmalari orqali amalga oshiriladi, bu boy funktsionallikka ega murakkab veb-ilovalarni yaratishni osonlashtiradi.

Server mantig'ini amalga oshirish jarayonida dastur xavfsizligi muhim jihat bo'lib qolmoqda. Flask SQL in'ektsiyalari va CSRF hujumlari kabi keng tarqalgan tahdidlardan himoya qilish uchun o'rnatilgan mexanizmlarni taqdim etadi va Flask-Security kabi qo'shimcha kengaytmalardan foydalanish autentifikatsiya, avtorizatsiya, va foydalanuvchi sessiyasini boshqarish.

Flask yordamida mobil ilovani ishlab chiqishda test funktsionallikni rivojlantirishdan kam emas. Modulli testi, integratsiya testi va foydalanuvchi interfeysi testi ishlab chiquvchilarga xatolarni erta bosqichda aniqlash va tuzatish imkonini beradi, bu esa yuqori sifatli yakuniy mahsulotni ta'minlaydi. Flask PyTest va Flask-Testing kabi mashhur test tizimlari bilan integratsiyani qo'llab-quvvatlaydi, bu testlarni yaratish va ishga tushirish jarayonini soddalashtiradi [1].

Biz Flask-dagi veb-ilovani foydalanuvchi interfeysi va server mantig'ini ishlab chiqishning asosiy jihatlarini, jumladan, ishlashni optimallashtirish, xavfsizlikni ta'minlash va sinovdan o'tkazishning ahamiyatini ko'rib chiqdik.

Ilovani jonli efirga chiqishidan oldin uning barqarorligi va ishonchligini ta'minlashda PyTest yoki Flask-Testing kabi avtomatlashtirilgan test vositalaridan foydalanish ushbu jarayonni sezilarli darajada soddalashtirishi mumkin, bu esa ishlab chiquvchilarga alohida dastur komponentlarining ishlashini, shuningdek, ular o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni samarali sinab ko'rish imkonini beradi.

Sinov bosqichida foydalanuvchi interfeysining barcha elementlarining funktsionalligini, shuningdek, server tomonida amalga oshirilgan funktsionallikni tekshirishga alohida e'tibor beriladi. Modulli testlari ilovani individual funktsiyalari va usullarining ishlashini ajratish va sinab

ko'rish imkonini beradi, integratsiya testlari esa dasturning turli modullari va qatlamlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni baholaydi, ularning to'g'ri integratsiyasini ta'minlaydi. Ko'pincha Selenium kabi veb-UI sinovini avtomatlashtirish vositalari bilan amalga oshiriladigan UI testi ilova turli brauzerlar va qurilmalarda to'g'ri ko'rsatilishi va ishlashini ta'minlashga yordam beradi.

Funktsional testdan tashqari, ishlash va xavfsizlik testlari muhim rol o'ynaydi. Ishlash testi ilovangizdagi to'siqlarni aniqlashga yordam beradi, bu esa uni sekinlashtirishi yoki serverlar yukini oshirishi mumkin. Load-Runner yoki JMeter kabi vositalardan foydalanish ko'p sonli foydalanuvchilar tomonidan bir vaqtda kirishni taqlid qilish imkonini beradi va shu bilan ilovani yuqori yuk sharoitida yuqori unumdorlik va barqarorlikni saqlab qolish qobiliyatini sinab ko'radi. Xavfsizlik testi tajovuzkorlar tomonidan ilova ma'lumotlari yoki funktsiyalariga ruqsatsiz kirish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan potentsial dastur zaifliklarini aniqlashga qaratilgan. OWASP ZAP yoki Burp Suite kabi vositalar ishlab chiquvchilarga dastur zaifliklari va xavfsizlik kamchiliklarini har tomonlama tekshirish imkoniyatini beradi.

Mobil ilovani ishlab chiqishning yakuniy bosqichi uni joylashtirish va qo'llab-quvvatlashdir. Joylashtirish mos hosting platformasini tanlash, server infratuzilmasini o'rnatish va ilovani nashr etishni o'z ichiga oladi. Ilovani unumdorligi va kengaytirilishi talablariga qarab, ishlab chiquvchilar an'anaviy veb-xosting, Amazon Web Services (AWS), Google Cloud Platform (GCP) yoki Microsoft Azure kabi bulutli xizmatlar yoki xizmat sifatidagi platformalar (PaaS) o'rtasida tanlov qilishlari mumkin. Heroku yoki DigitalOcean App Platform kabi ushbu variantlardan har biri o'zining afzalliklari va kamchiliklarini, jumladan, narxdagi farqlarni, boshqaruvning qulayligi va kengaytirilishini taklif qiladi.

Ilovani ishga tushirgandan so'ng, qo'llab-quvvatlash va yangilash bosqichi boshlanadi. Ilovani muntazam yangilash, aniqlangan xatolarni tuzatish, uning funktsionalligi va xavfsizligini yaxshilash muhimdir. Foydalanuvchilarning fikr-mulohazalarini olish ushbu jarayonning asosiy jihat hisoblanadi, chunki u ilovadagi kamchiliklarni aniqlash va keyingi rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Jira yoki GitHub Issues kabi loyihalarni boshqarish va muammolarni kuzatish tizimlaridan foydalanish loyiha ishingizni tashkil qilishni osonlashtiradi, bu sizga vazifalarni samarali rejalashtirish, ularning bajarilishini kuzatish va ishlab chiqish guruhingiz bilan muloqot qilish imkonini beradi.

Ushbu sahifada biz Flask mobil ilovasini sinovdan o'tkazish, joylashtirish va texnik xizmat ko'rsatishning asosiy jihatlarini ko'rib chiqdik. Ushbu bosqichlar ilovalarni ishlab chiqish hayotiy tsiklining ajralmas qismi bo'lib, uning sifati, ishonchligi va foydalanuvchi kutganlarini qondirishni ta'minlaydi.

Flaskda mobil ilovani ishlab chiqishning navbatdagi muhim jihatiga o'tsak, biz ilovani optimallashtirish strategiyalariga e'tibor qaratamiz.

Ilovani optimallashtirish uning ishlashi, tezligi va ilovani umumiy foydalanuvchi tajribasiga ta'sir qiluvchi asosiy omil hisoblanadi. Flask yordamida ishlab chiqilgan mobil ilova kontekstida optimallashtirish sahifani yuklash vaqtini yaxshilash, server samaradorligini oshirish va foydalanuvchining ilova bilan o'zaro aloqasidagi kechikishlarni minimallashtirishga qaratilgan bir qator harakatlarni o'z ichiga olishi mumkin [2].

Adaptiv veb-sahifa dizayni optimallashtirishda ham muhim rol o'ynaydi, bu dasturni turli qurilmalar va ekran o'lchamlarida to'g'ri ko'rsatishi va ishlashiga imkon beradi. Bootstrap yoki Foundation kabi CSS freymvorkdan foydalanish sezgir dizaynni ancha osonlashtirishi mumkin.

Ilovani optimallashtirishning muhim jihatlaridan biri ma'lumotlar bazasidan samarali foydalanishdir. Bunga

ma'lumotlar bazasi sxemasini to'g'ri loyihalash, ma'lumotlarni qidirishni tezlashtirish uchun indekslardan foydalanish va so'rovlarni bajarish vaqtini minimal- lashtirish uchun so'rovlarni optimallashtirish kiradi. Ishlab chiquvchilar qiyinchiliklarni aniqlash va hal qilish uchun profillash vositalaridan foydalangan holda ma'lumotlar bazasi ishlashini muntazam ravishda tahlil qilishlari kerak. Tez-tez foydalaniladigan ma'lumotlarni keshlash ma'lumotlar bazasi qo'ng'iroqlari sonini kamaytirish orqali dastur tezligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.


Sahifani yuklash vaqti foydalanuvchi tajribasi uchun muhim omil, ayniqsa mobil veb-ilovalarda. Uni kamaytirish uchun siz statik fayllarni (CSS va JavaScript) siqish va birlashtirish, resurslarni asinxron yuklash va tasvirlarni optimallashtirish usullaridan foydalanishingiz mumkin. WebP kabi zamonaviy tasvir formatlaridan foydalanish sifatini saqlab qolgan holda tasvir hajmini sezilarli darajada kamaytirishi va sahifalarning tezroq yuklanishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, tasvirlar va videolar uchun Lazy Loading texnologiyasidan foydalanish ushbu element- larning yuklanishini foydalanuvchiga ko'ringuncha kechiktirishga imkon beradi va shu bilan sahifaning dastlabki yuklanishini tezlashtiradi.

Foydalanuvchi tomonidan ishlashni yaxshilash uchun ishlab chiquvchilar DOMni samarali yangilashni va kom- ponentga asoslangan yondashuvdan foydalangan holda yaxshilangan foydalanuvchi tajribasini ta'minlaydigan React yoki Vue.js kabi zamonaviy JavaScript freymvorki va kutubxonalaridan foydalanishlari mumkin. Qimmatbaho operatsiyalar va xotira oqishiga yo'l qo'ymaslik uchun Java Script kodining ishlashiga ham e'tibor berish kerak.

Ilovani turli qurilmalarda to'g'ri ko'rsatish va ulardan foydalanish qulayligini ta'minlash uchun sezgir dizayn zarur. Adaptiv tartiblar, media so'rovlar va sezgir tasvirlardan foydalanish ilova interfeysini ekran o'lchamlari va qurilma yo'nalishiga moslashtirish orqali ushbu

maqsadga erishishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, mobil ilovalar uchun juda muhimdir, bu erda foydalanuvchilar turli xil ekran o'lchamlariga ega bo'lgan keng turdagi qurilmalardan foydalanishlari mumkin.

Muntazam ishlash testlari optimallashtirish jarayonining ajralmas qismidir. Google PageSpeed Insights, Lighthouse va WebPageTest kabi vositalardan foydalanish sahifani yuklash tezligini, manba samaradorligini va ilovalar mavjudligini baholashga yordam beradi. Ushbu vositalar ishlab chiquvchilar o'z ilovalarini optimallashtirish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan maxsus ishlash tavsiyalarini beradi [3].



1-rasm. ONTEXNO. Umumkasbiy va ixtisoslik fanlar integratsiyasining mobil' ilovasi

Xulosa qilib aytganda, veb-ilovalarni o'quv jarayoniga integratsiyalash ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning motivatsiyasi va faolligini oshirish, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun kuchli vositadir. Veb-ilovalar turli ehtiyoj va imtiyozlarga ega bo'lgan talabalar uchun ochiq bo'lgan yanada moslashuvchan va inklyuziv ta'lim muhitini yaratishga yordam beradi.

#### Adabiyotlar

1. Прохоренко Н.А. Python.Самое необходимое. – Санкт-Петербург: БХВ-Петербург, 2011, –С.416.
2. <https://python.org>
3. <https://ontexno.uz>

**REZYUME.** Ushbu maqolada umumkasbiy va ixtisoslik fanlar o'rtasidagi chuqur o'zaro aloqani ta'minlash maqsadida veb- ilovalarni o'quv jarayoniga eng samarali integratsiyalashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan usullar va algoritmlarni tahlil qilish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Bundan tashqari, mobil ilovani ma'lumotlar bazalari, keshlash tizimlari va bulutli platformalar kabi zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashuviga alohida e'tibor qaratiladi.

**РЕЗЮМЕ.** В данном тексте приведены рекомендации по анализу методов и алгоритмов, которые можно использовать для наиболее эффективной интеграции веб-приложений в учебный процесс с целью обеспечения глубокого взаимодействия общих и профильных дисциплин. Кроме того, особое внимание уделяется интеграции мобильного приложения с современными техно- логиями, такими как базы данных, системы кэширования и облачные платформы.

**SUMMARY.** This text provides recommendations for the analysis of methods and algorithms that can be used for the most effective integration of web applications into the educational process in order to ensure a deep interaction between general and specialized disci- plines. In addition, special attention is paid to the integration of the mobile application with modern technologies such as databases, cach- ing systems and cloud platforms.

#### XALQ PEDAGOGIKASI VATANPARVARLIK TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISH VOSITASI

**T.A.Pazilov** – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

**Tayanch so'zlar:** folklor, xalq og'zaki ijodi, adabiyot, ijod, urf-odat, bolalar fol'klori, madaniy yodgorlik, etnopedagogika, tarbiya, milliylik.

**Ключевые слова:** фольклор, устное народное творчество, творчество, традиции, фольклорные произведения, памятник культуры, этнопедагогика, воспитание, национальность.

**Key words:** folklore, oral folk art, creativity, traditions, folklore works, cultural monument, ethnopedagogy, education, nationality.

Bolalar fol'klori bolalar uchun dastlabki turmush darsligi, ma'naviy boyligidir. Quyida ushbu bolalar fol'klori janrlarning ayrimlarining farqli xususiyatlari va ularning tarbiyaviy roli haqida qisqacha to'xtalib o'tishni ma'qul deb topdik.

Qoraqalpoq xalq pedagogikasidan o'rin olgan alla(besik jiri)lari ham juda erta zamonlardan vujudga kelganligi ma'lum. U asta, nozik, halqqa dastur bo'lgan kuy ohangida bajariladi. Allalarni aytishga maxsus ijrochi talab etilmay, beshik tebratuvchi ona, buvi yoki boshqa allalovchi odam bajaraveradi. Hammaga ma'lum nozik ohangli, tayyor satrlar halq tomonidan asrlar davomida yaratilib kelingan

va ayni vaqtda ham uning yangi variantlari yaratilmoqda. Allaning bola tarbiyasida juda katta ahamiyatga ega ekanligi Orta Osiyoning mashhur olimi buyuk alloma Abu Ali Ibn Sino [1:368] tomonidan ham yuqori baholangan.

Ona allasi haqida fol'klorshunos olim A Tajimuratov "Qoraqalpoq halqining ta'lim tarbiyaviy dasturi alladan boshlanadi. Bu dastur butun O'rta Osiyo hattoki, dunyo xalqlarining bola tarbiyalash ishlarida asosiy o'rinni egallaydi..." [2:6] deb beshik kuylarini inson tarbiyasining asosi sifatida ko'rsatadi. O'zbekistonlik olim G.A.Mardonova o'zining ilmiy-tadqiqot ishini oilada bolalarni alla vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning

pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish” [3] mavzusida ilmiy faoliyat olib borishni ma’qul ko’radi.

Alla har bir xalqning tilida har xil nom bilan ataladi, masalan qoraqalpoq xalqi háyyiw deb atasa, qozoq xalqi áldi, turkmanlar esa xoo’di, qirgiz birodarlarimiz aldey ay, tojiklar alla deb atashsa, o’zbek xalqi ham alla deb atashadi. Allaning ohangida so’zlarida har bir xalqning o’ziga xos tabiatini, xulq-atvorini, matonatinini, vatanparvarligini his qilish mumkin.

Alla faqatgina beshikdagi go’daklargagina ma’naviy hordiq bag’ishlamasdan, beshikning yonida o’tirgan 9-10 yoshdagi bolalarga ham ta’sir qiladi. Bola uni tinglab o’tirib ma’naviy ozuqa oladi, onasiga yordam sifatida beshikni tebratganida, ular ham alla aytmoqni ma’qul ko’radi. Alla bolalarimizdagi mehribonlik, axloqiylik, vatanparvarlik va boshqa ijobiy xususiyatlarning uygonishiga turtki bo’ladi.

1977 yildan e’tiboran bosmadan chop etila boshlagan, dastlabki 20 tomdan iborat bo’lgan, Qoraqalpoq fol’klorining I tomida bolalarimiz uchun yaratilgan “Ertaklar” to’plab joriy qilingan [4]. Bu to’plangan ertaklar 113 ertakdan iborat bo’lib, u o’z ichiga 31 xayoliy, 41 hayvonotlar haqidagi va 41 turmush ertaklarini qamram olgan. Bu ertaklarning yordamida bolalarni boshlang’ich sinflarda o’qish davrlaridan e’tiboran vatanparvarlik ruhida tarbiyalash imkoniyatlari ortadi.

Mustaqilligimizning sharofati bilan O’zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasining Qoraqalpog’iston bo’limi, Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan Qoraqalpoq fol’klori atamasidagi 100 tomlikning bosmada chop etilishi, Shuning ichida 10 tomdan [5] iborat bo’lgan qoraqalpoq xalq ertaklarining joriy etilishi, ma’naviy qadriyatlarimizga yangichasiga nazar bilan qarab, Shu orqali milliy ongimizni boyitib, yosh avlodni vatanga sodiq farzandlar etib tarbiyalashdagi muhim qadam bo’lganligidan darak beradi. Bu 10 tomdan iborat bo’lgan ertaklarning tarkibi quyidagicha:

1. Xayoliy ertaklar – 84.
2. Sehrgarlik haqida ertaklar – 21.
3. Botirlik haqida ertaklar – 21.
4. Maishiy ertaklar – 54.
5. Didaktik ertaklar – 28.
6. Bolalar ertaklari – 23.
7. Hayvonotlar haqida ertaklar – 24.
8. Yumor va satirik ertaklar – 39.
9. Timsol ertaklari – 37.
10. Topishmoq ertaklari – 32 bo’lib, jami – 363 ertakni o’z ichiga qamrab olgan. 2000 nusxada xalqimiz nazariga taqdim etilgani bolalarimizni ruhlantirib yubordi.

Boshqa xalqlardagi kabi Qoraqalpoq xalq ertaklarida ham mafkuraviy mazmuni tarafdin kambaqallar bilan boylar, mutafakkirlar bilan ahmoqlar o’rtasidagi voqeahodisalar, munosabatlar hikoya etiladi. Bu voqea va hodisalarning mazmunida ijobiy va salbiy qahramonlarning xatti-harakatlari, erishgan yutuqlari va kamchiliklari ko’rsatiladi.

Bunday ertaklar orqali bolalar o’z xalqining o’tmishdagi hayoti va badiiy asarlari bilan tanishib oladi, Shu sababdan bolalarni tarbiyalashda xalq ertaklaridan keng turda foydalanish xalqimiz tomonidan bejiz urfga aylanmagan. Bolalarda ertak tinglashga bo’lgan qiziqish juda erta, 3-4 yoshligidan e’tiboran shakllana boshlaydi. Bolalar ulg’aygani sari uning ertaklarga bo’lgan ishtiyoqi ortib boradi. Bola ertakka berilib juda qunt bilan tinglaydi, u erdagi voqealarni, odamlar bilan hayvonlar o’rtasidagi munosabatlarni tahlil qiladi va ertakdagi ijobiy va salbiy qahramonlarni darhol ajratib oladi. Xalq ertaklari bolalar o’y-xayolini yuksaltiradi, ularni fikrlashga o’rgatadi.

Ertaklarda go’zal insoniy fazilatlar vatanparvarlik, kamtarlik, halollik, to’g’rilik va jasorat qadrlanadi, yolg’ochilik, qo’rqoqlik, maqtanchoqlik kabi odatlar qoralanadi, yaxshilik hushomadlanadi. Ertaklar o’zining oddiyligi, to’g’riligi, obrazliligi tarafdin bolalarga juda

tushunarli, qiziqarli bo’lib keladi va bolalar tomonidan oson va tez o’zlashtiriladi.

Ertakning asosiy hislatlaridan biri u xalqning o’tmishdagi hayoti, tarixi, psixologiyasi, dunyoqarashlari, urf-odat dasturlari bilan bog’langan.

Xorijiy olimlardan A.V.Krestovskiyning fikricha “Xalq ertaklari insonga butun hayoti davomida hamkor bo’ladi. U insonni barcha avvalgi avlodlar va butun insoniyat bilan bog’lovchi zanjirning birinchi bo’g’ini. Xalq ertaklarida mafkuraviy fikr ham, kuyga to’la obraz ham jamlangan. Tilning oddiyligi, gaplashish bayoniga yaqinligi, ko’rinishning boyliigi, syujetning yoqimlilikligi ertakdan ajoyib etnopedagogik vosita sifatida foydalanish imkonini beradi” [6:320].

Boshlang’ich sinf o’quvchilarida vatanparvarlik hislarini rivojlantirishda ertaklarning ahamiyati haqida bir nechta olimlar tadqiqotlar olib borgan. Ularning ichida o’zimizning maxalliy olimlarimizdan Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi O.M. Fayzullov o’zining “O’zbek fol’kloridagi lingvokul’turalarning inglizcha tarjimada berilishi (bolalar fol’klori va ertaklari misolida)” nomli ilmiy tadqiqot ishida “o’zbek bolalar fol’klori va ertak janrlari misolida lingvokul’turalarning universal, milliy-madaniy, gender, leksik-semantik, stilistik xususiyatlarini aniqlab, ularni ingliz tiliga o’g’irishda muqobilini topishdan iborat” ligi haqida aytadi [7].

Ertaklarda tajovuzkorlik, yolg’on qoralanadi, mehnat mukofotlanadi. Ertak bolalarga kuchli hislar bilan ta’sir ko’rsatadiki, ularda Vatanparvarlik, mehnat, ekologik munosabatlar madaniyatini rivojlantiradi, ba’zi hollarda bo’lsa tinglovchi o’quvchilarning o’zlari ham ertaklarga aylanib qolganligini sezmay qoladi.

Qoraqalpoq xalq o’g’zaki ijodiyotining kichik janrlari tematik jihatdan har xil bo’lib, ularning har biri o’z oldiga alohida mazmun va g’oyaviy vazifalarni aks ettirishga yo’naltirilgan. Bizning ota-bobolarimiz azaldan so’z hunarining ustalari sifatida o’z o’y-fikrlarini, his-tuyg’ularini qisqa va aniq aytib, boshidan kechirgan ijobiy va salbiy kechinmalaridan o’rgangan turmush tajribalarini bir ikki satr bilan tasdiqlashni, aniqrogi “toqsan ao’iz so’zdiñ tobiqtay tuiyin” bir jumlada ochib berishni dasturga aylantirgan. Binobarin, bittagina hikmatli gapda mujassamlashgan tushuncha tutash bir hajmli mazmunni berishi mumkin. Bunday uzun so’zni qisqartirib bayon qilishga naql-maqollar deymiz.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, qoraqalpoq fol’kloridagi naql-maqollardan ham o’rinli foydalanish maqsadga muvofiq keladi. Masalan, vatan xaqidagi, vatanga sadoqat xaqidagi naql-maqollar tarbiya ishlarida foydalanish uchun qulayligi bilan ko’zga tashlanadi. Masalan, “Qus qanati menen, Adam elati menen” [8:191], “Watan künnen sulıw, Altınnan qımbat”, “Watansız adam, baxıtsız bulbil” [8:13] kabi naql-maqollarni keltirib o’tishimizga bo’ladi.

Qoraqalpoq fol’klorining 100 tomligidan o’rin olgan naql-maqollar boshlang’ich sinf o’quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarida keng imkoniyatlarga ega. Shuning uchun ham, Ata jurt altın besik”, “Atadan altaw tuwsañda, Watanıña jalğızsañ”, “Opasızda Watan joq, Soksanarda iyman joq”, “Eldiñ etegi ken” [9:13-14], “Tuwğan jerdey jer bolmas, Tuwğan eldey el bolmas” [9:18], “El aman, sen aman”, “Elden bezgen er bolmas” [9:26], “Elatin sıylagan er ozar, Elatsız qalğan jer tozar” [9:33], “Watanın satqan onbas” [9:36], “Watanın tınısh - sen tınısh”, “Watan – eldiñ anası, El - erdiñ anası” [9:15] kabi naql-maqollarni kelajakda boshlang’ich sinf darsliklariga qo’shish bolalarda vatanparvarlik xulq-atvorini hosil qilishda katta pedagogik vosita bo’lib hisoblanadi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, alohida ahamiyatga ega bo’lgan fol’klor janrlarning ichida qaysilari boshlang’ich sinf

o'quvchilarining aql-o'y psixologiyasiga loyiq degan savol o'qituvchining diqqat markazida turishi bosh masalalardan bo'lishi zarur. Sababi, boshlang'ich sinf o'quvchilari murakkab masalalarni mujassam etgan ulug', goyaviy mazmunni, murakkab obrazlar bilan o'tkir syujetlarni, keskin nizolarni va keng qamrovli masshtabli kompozitsiyalarni birdaniga qabul qilish layoqotiga ega emas. Shuning uchun ham ularga beriladigan tushunchalarda oddiylikdan murakkablik sari yuksalib

boradigan qisqa, ixcham, jaydari mazmun va shakllarda berilishi zarur. Bu o'rinda, albatta, o'quvchining yosh xususiyatlari, tajriba va ko'nikmalar to'play olish qobiliyati, iste'dodliligi hisobga olingani ma'qul bo'ladi.

Umuman olganda, bolalar fol'klori, uning janrlari va ulardan foydalanish metodlari, yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning ma'naviy dunyosini bovitishda katta rol o'ynaydi.

#### Adabiyotlar

1. Абу-Али ибн Сино. Канон врачебной науки. В 10 томах. Т. II. - 3-е изд. - Т.: Изд-во мед. лит. Им. Абу-Али Ибн Сино, 1996. -С. 368.
  2. Тажимуратов Э. Каракалпак халық педагогикасы. - Нөкис: «Билим», 1996. 140-б.
  3. Мардонова Г.А. Ойлада болаларни алла воситасида маънавий-ахлокий тарбиялашнинг педагогик имкониятлари: Пед. фан. фалс. д-ри (PhD). дис. ... автореф. - Т., 2019. 56-б.
  4. Каракалпак фольклоры (көп томлык). 1-т. Ертеклер. - Нөкис: «Каракалпакстан», 1977. 363-б.
  5. Каракалпак фольклоры. Бас редактор Н.Қ. Аймбетов; Жууаплы редакторлар: А.И.Альниязов, Ж.Хошниязов. ӨзИА Каракалпакстан бөлими, Каракалпак гуманитар илимлер илимий-изертлеу институты. 67-76-т. - Нөкис: «Илим», 2014. 560-б.
  6. Крестовский А.В. Роль народной сказки в воспитании духовно-нравственных качеств младших школьников // Сибирский педагогический журнал. 2008. - №2. -С. 329.
  7. Файзуллоев О.М. Ўзбек фольклоридаги лингвокультуремаларнинг инглизча таржимада берилиши (болалар фольклори ва эртаклар мисолида): Пед. фан. фалс. д-ри (PhD) дис. ... автореф. -Т., 2019. - 58 б.
  8. Каракалпак фольклоры. Каракалпак халық нақыл-мақаллары. 4-т. -Нөкис: «Каракалпакстан», 1978. 348-б.
  9. Каракалпак фольклоры. Бас редактор Н.Қ.Аймбетов; Жууаплы редакторлар: А.И.Альниязов, Ж. Хошниязов. ӨзИА Каракалпакстан бөлими, Каракалпак гуманитар илимлер илимий-изертлеу институты. 88-100-т. - Нөкис: «Илим», 2015. 544-б.
- РЕЗЮМЕ.** Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishida, rivojlanishida, shakllanishida, barkamollikka etishishida bolalar fol'klorining o'rni va shu masalalarga bog'liq bo'lgan ayrim tadqiqodchilarning fikrlariga tuxtalib o'tilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье уделяется внимание роли детского фольклора в патриотическом воспитании, развитии, становлении и взрослении учащихся младших классов, а также мнениям некоторых исследователей по этим вопросам.

**SUMMARY.** The article pays attention to the role of children's folklore in patriotic education, development, formation and maturation of primary school students, as well as the opinions of some researchers on these issues.

### JOQARÍ MATEMATIKANÍ OQÍTÍWDA CASE STUDY TEXNOLOGIYASÍNAN PAYDALANÍW

**A.A.Saparova – tayanish doktorant**

*Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti*

**Tayanch so'zlar:** dasturiy ta'lim, innovatsiya, innovatsion va pedagogik texnologiyalar, case study.

**Ключевые слова:** традиционное обучение, инновация, инновационные и педагогические технологии, case study.

**Key words:** traditional teaching, innovation, innovative and pedagogical technologies, case study.

Sonǵı jılları mámleketimizde tálim sıpatın hám ilimdi rawajlandırıw boyınsha bir neshe qarar hám pármanlar qabıl etilgen. Sonıń ishinde 2020-jıl 7-maydaǵı "Matematika tarawında tálim sıpatın asırıw hám ilimiy-izertlewlerdi rawajlandırıw is-ilajları haqqında"ǵı PQ-4708-sanlı Qararı qabıl etildi. Soǵan tiykarlanıp, studentlerge bilim beriwdiń zamanagóy innovacion metodların engiziw Ózbekstan Respublikası ekonomikasınıń keyingi 10 jıl ishinde dúnyanıń rawajlangan mámleketleri qatarına kiriwi, yaǵnıy 2030-jılǵa kelip ekonomikanıń sanaat hám texnologiyalıq tarmaqları boyınsha dúnyada jetekshi mámleketlerden birine aylanıwına tiykar jaratıwdaǵı áhmiyetli shártlerden biri esaplanadı. Ótken dáwir ishinde matematika ilimin hám tálimin jańa sıpat basqıshına alıp shıǵıwǵa qaratılǵan Qatar sistemalı jumıslar ámelge asırılmaqta [1].

Oqıw procesin jetilistiriwde jańa pedagogikalıq texnologiyalar hám interaktiv usıllardan paydalanıw oqıw materialınıń mazmunın óz betinshe úyreniw hám analiz etiw, studentlerdiń bilim, kónlikpe hám tájiriybelerin qalıplestiriwge unamalı tásir kórsetedi. Sonıń menen birge, rawajlandırıwshı tálimdi ámelge asırıw ushın keń imkaniyatlar jaratadı, bunda oqıtıwshı processti shólkemlestiriwshı yamasa másláhát beriwshı sıpatında háreket etiw imkaniyatın beredi.

Zamanagóy tálim procesi shaxstı rawajlandırıw, sociallastırıw hám ǵárezsiz, kritikalıq, dóretiwshilik penen pikirlew qábiletlerin rawajlandırıwǵa qaratılǵan bolıwı kerek. Usı qábiletlerdi kórsete alatuǵın tálim innovaciyalıq tálim esaplanadı.

Pedagoglar dástúrli tálim - tálimniń ózgeshe modellerinen birine aylanganın kórsetti. Dástúrli oqıtıw belgili bir waqıt aralıǵındaǵı oqıtıw modeli bolıp, tálim procesi oqıtıwshıǵa kóbirek baǵdarlangan bolıp, temanı tanıtırıw, jarıtıp beriw, bekkemlew hám juwmaqlaw

basqıshlarınan ibarat. Dástúrli tálimde oqıtıwshı tálim procesiniń orayında turatuǵınlıǵı belgili, sonıń ushın dástúrli tálim bazıda oqıtıwshıǵa baǵdarlangan tálim dep ataladı. Oqıtıwshıǵa baǵdarlangan oqıw procesinde sabaqtıń maqseti hám onıń unamalı tárepleri tómendegi principlerge tiykarlanadı:

- Studentlerdiń oqıwǵa bolǵan qızıǵıwshılıǵın asırıw;
- Aldıńǵı bilimlerdi esapqa alıw;
- Studentlerdiń baslamasın qollap-quwatlaw;
- Oqıw materialın tiykarınan ámeliyat arqalı úyreniw;
- oqıw procesin eki tárepleme baylanıs penen támiyinlew;

Dástúrli oqıtıw modelinde kóbirek lekciyalar, soraw-juwaplar, ámeliy shınıǵıwlar qollanıladı, bunıń nátiyjesinde úyreniw nátiyjeliligi tómén boladı hám studentler oqıw procesiniń passiv qatnasıwshılarna aylanadı.

Bunnan tisqari, oqıtıwshılardıń izertlewleri sonı kórsetedi, dástúrli oqıtıwdı saqlap qalǵan halda, onı túrli usıllar menen bayıtıw studentlerdiń túsiniǵın asıradı.

Innovacion tálim pedagogikalıq shárt-sharayatlardı esapqa alǵan halda studentlerde ǵárezsizlik, baslamashılıq (jetekshilik), juwapkerlik, studenttiń tálim procesine tásirin tolıq ámelge asırıw, fizikalıq tárbiya, shaxstı rawajlandırıw, pikirlew hám dúnya qarasın bayıtıw imkaniyatın beredi. Olar ǵárezsizlik, ǵárezsiz dóretiwshilikli hám kritikalıq pikirlew paziyetlerin rawajlandırıwǵa xızmet etedi. Bunday tálimniń ózgesheligi sonda, ol studenttiń hár tárepleme rawajlanıwı ushın qolaylı, zárúr shárt-sharayatlardı támiyinleydi, bul bolsa oqıtıwshılar tárepinen hár bir studentke individual qatnasta bolıwdı talap etedi [2].

Oqıw procesinde dóretiwshilik tapsırmaları, mashqalalı jaǵdaylar, rolli hám isbilermenlik oyınlar, tartıslar (talqılawlar), jarıslardan paydalanıw pedagogikalıq texnologiyalardıń jańa túrleri bolıp, shınıǵıwlardı shólkemlestiriwde oqıtıwshılar:

- hár bir studentte individuallıqtı kórip biliwi;
- studentke húrmet;
- studenttiń ruwxıy jaǵdayın durıs bahalay alıw;
- studenttiń qálewı hám qızıǵıwshılıqların esapqa alıw;
- hár bir studentke qarata kewli keń bolıw;
- studenttiń bilimi, qábileti hám umtılıwlarına isenim;
- hár bir student ushın qolaylı oqıw ortalıǵın jaratıw;
- studentke oqıwda jetiskenliklerge erisiwge járdem beriw;
- studentlerdiń óz betinshe yaki kishi toparlarda islewı ushın imkaniyatlar jaratıw;
- studenttiń qábiletleri hám shaxsıyatın rawajlandırıwǵa járdem beriw;
- oqıwshılardı ózleriniń iskerligin ǵárezsiz túrde qadaǵalawǵa, iskerliginiń nátiyjeliligini anıqlawǵa, jetiskenlik faktorları hám qátelerdiń aqıbetlerin analiz etiwge úyretiw;
- oqıw procesinde hesh bir studentke basım ótkermew;
- studenttiń jeke kemshiliklerin asırıw jibermeydi;
- studenttiń namısına tiymesten bilim ala almasa, sonday-aq, anıqlanǵan sebepler boyınsha qopál is-háreketlerdi saplastırıw;
- oqıtıwshı sıpatında hár bir studenttiń húrmeti, isenimine erisiw gerek.

Búgingi kúnde tálim joybarların islep shıǵıw hám tálim procesin zamanagóy pedagogikalıq texnologiyalar tiykarında shólkemlestiriwde tómendegi texnologiya úlken áhmiyetke iye: “Case-study” texnologiyası keyingi waqıtta respublikalıq joqarı bilimlendiriw sistemasında kúnnen kúnge keń tarqalıp barmaqta. “Case-study” inglis tilindegi “case” sózinen alınǵan bolıp – chemadan, usıl, “study” – mashqalalı jaǵday; jaǵdaydı analiz etiw yaki mashqalanı analiz etiw - bul anıq, haqıyqıy mashqalalı jaǵdaydı analiz etiw arqalı studentlerdiń eń maqulın tańlaw qábiletin rawajlandırıwǵa xızmet etetuǵın texnologiya bolıp, onıń tiykarǵı wazıypaları: analitikalıq qábilet hám kritikalıq pikirlew esaplanadı. Rawajlandırıw, teoriya hám ámeliyattıń birligin támiyinlew, mashqalaǵa hár qıylı kóz qaras hám qatnaslardı kórsetiw, qararlar qabil etiw hám onıń aqıbetleri haqqında pikir bildiriw, anıq emeslik sharayatında alternativ variantlardı bahalaw kónlikpelerin qalıplestiriw [3].

Case-study studentlerdiń analitikalıq qábiletleri hám kritikalıq pikirlewlerin rawajlandırıw, teoriya hám

ámeliyattıń birligin támiyinlew, ásiyese joqarı matematikani oqıtıwda túrli jaǵdaylardı úyretiw hám analiz etiw arqalı wazıypalardı qoyadı. Tómende joqarı matematika páninen texnika qánigeligi studentleri ushın “Sızıqlı teńlemeler sistemasın sheshiw usılları”[4] temasındaǵı ámeliy jumıs misalı keltirilgen. Álbette, student onıń tálim tarawına jaqın bolǵan túsiniqler arqalı ámeliy tapsırmalar berseńiz, olar qızıqlıraq boladı.

1-jaǵday. Kárxanada 3 túrdegi A, B hám C ónimlerin islep shıǵarıw ushın I, II, III 3 túrdegi shıyki zatlardan paydalanıladı. Hár bir ónim túrinen bir birlik islep shıǵarıw ushın sarıplanatuǵın hár túrli shıyki zattıń muǵdarı (standartları) kestede keltirilgen. Tómendegi kestede kárxana paydalanıwı múmkin bolǵan hár bir túrdegi shıyki zattıń ulıwma muǵdarı da kórsetilgen.

| Shıyki zat materialınıń túri | 1 ónim ushın shıyki zat materialınıń qollanıw norması |    |   | Shıyki zat materialınıń ulıwma muǵdarı |
|------------------------------|-------------------------------------------------------|----|---|----------------------------------------|
|                              | A                                                     | B  | C |                                        |
| I                            | 5                                                     | 12 | 7 | 2000                                   |
| II                           | 10                                                    | 6  | 8 | 1660                                   |
| III                          | 9                                                     | 11 | 4 | 2070                                   |

Kárxana hár bir túrdegi ónimnen neshe dana islep shıǵarıwı múmkin?

Mashqalaǵa qarap, bizde tómendegi teńlemeler sisteması payda boladı hám bul sistemasıń sheshimin tabıw studentlerge usınıs etiledi.

$$\begin{cases} 5x_1 + 12x_2 + 7x_3 = 2000, \\ 10x_1 + 6x_2 + 8x_3 = 1660, \\ 9x_1 + 11x_2 + 4x_3 = 2070. \end{cases}$$

2-jaǵday. Shıyki zat islep shıǵarıw prognozi. Kárxanada 3 túrdegi shıyki zattan paydalanıp, 3 túrdegi ónim islep shıǵarıladı. Kerekli islep shıǵarıw qásiyetlerin keste kórinisinde kórsetiw, studentlerge berilgen shıyki zat zapasları menen hár bir túrdegi ónimdi islep shıǵarıw kólemi anıqlaw wazıypası beriledi.

Jumıs hám tapsırmanı orınlaw basqıshları:

- Jumıstaǵı mashqalanıń tiykarǵı sebeplerin aytıw (óz aldına hám kishi toparlarda).

- Sızıqlı teńlemeler sistemasın sheshiwde teńlemelerdiń sanı belgisizlerdiń sanına teń bolıwın támiyinlew hám teńlemeler sistemasın sheshiwdiń eń qolaylı usılın tańlaw (óz aldına hám kishi toparlarda).

### Ádebiyatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4708-son qarori. -Toshkent: 2020 yil, 7 may.
2. Ziyomammedov B., Tojiev M. Pedagogical technology - a modern Uzbek national model. - T.: “Lider Press”, 2009. –P. 104.
3. Saparova A.A. “Features of the historical development of the case study method” / IJEMR Transactions, online available on 16th March 2022. Volume 11, Issue 3, -P.109-112.
4. Saparova A.A. «Chiziqli tenglamalar sisteması». / *International scientific and practical conference: youth, science, education: topical issues, achievements and innovations*. Abstracts of VIII International Scientific and Practical Conference 1-part.

**REZYUME.** Maqolada ishlab chiqarish va ta’lim jarayonini (oliy matematika misolida) zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida shakllantirishda “Case-study” texnologiyasini ahamiyati aks ettirilgan. Va bunda anıq, haqiqiy muammoli holatni analiz qilish orqali eng maqbul variantni tanlash qobiliyatini rivojlantirishga xızmat qilishi tahlil qilingan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье показано значение технологии «Case-study» в формировании производственно-учебного процесса (на примере высшей математики) на основе современных педагогических технологий. И анализируется, что оно служит развитию умения выбирать наиболее оптимальный вариант путем анализа конкретной, реальной проблемной ситуации.

**SUMMARY.** The article shows the importance of the “Case-study” technology in the formation of the production and educational process (using the example of higher mathematics) based on modern pedagogical technologies. And it is analyzed that it serves to develop the ability to choose the most optimal option by analyzing a specific, real problem situation.

# BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI KOLLABORATIV TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O'QITISH

U.Q.Seytjanova – pedagogika fanlari nomzodi, professor

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**Tayanch soʻzlar:** kolloboratsiya, 4K model, kompetentsiyaviy yondoshuv, kommunikativ munosabat, kreativ yondoshuv, tanqidiy fikrlash, individual yondoshuv.

**Ключевые слова:** коллобoрация, модель 4K, компетентностный подход, коммуникативный подход, творческий подход, критическое мышление, индивидуальный подход.

**Key words:** collaboration, 4K model, competence approach, communicative approach, creative approach, critical thinking, individual approach.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 29-dekabr kuni Xalqaro kongress markazida “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O’zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to’g’ri yo’lidir!” mavzusidagi zamonaviy darsliklar ko’rgazmasida: “XXI asr kishisi uchun eng zarur bo’lgan “4K” ko’nikmasi bo’yicha ishlab chiqilgan (kritik fikrlash, kreativlik, kolloboratsiya, kommunikatsiya) ko’nikmalar, o’quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko’nikmalarini shakllantirish” masalalariga alohida e’tibor qaratish kerakligi va “...darsliklar quruq ma’lumotlarni yodlatish, yoki shunchaki o’qish-yozishni o’rgatish bilan cheklanmasligi, ular orqali o’quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo’lgan hayotiy ko’nikmalarni ham o’rganishi” zarurligini ta’kidlash bilan birga, yangi darsliklarni tayyorlashda o’qituvchilar majburiyatlari haqida “...bugun darsliklar o’zgaryapti. Shunga yarasha o’qituvchilar ham o’zgarishi kerak” [1:4], - degan fikrlari boshlang’ich sinf o’qituvchilarini tayyorlash jarayonida yana ham katta mas’uliyatni talab qiladi.

4K modelidagi **kolloboratsiya** “Hamkorlikda ishlash” ta’lim texnologiyasi (Cooperative learning) – bu o’quvchilarning muloqot qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlardan biri bo’lib, juftlik yoki guruhli ta’limdan foydalangan holda tilni hamkorlikda o’rganishga uru beradi. “Hamkorlikda ishlash” ta’lim texnologiyasi (Cooperative learning) ilk marta pedagogika sohasiga J.Lankaster va A.Bell tomonidan XVIII asrda kiritilgan bo’lib, ular Angliyada mazkur metod asosida dars o’tiladigan maktab ochishadi [2:643], keyinchalik esa “hamkorlikda ishlash” ta’lim texnologiyasi (Cooperative learning) boshqa olimlar tomonidan kengroq o’rganildi. Jumladan, J.Devi ta’lim dinamik jarayon bo’lib, nafaqat fanga doir bilimlar berilibgina qolmasdan, o’zaro interaktsiya davomida olingan fikr-mulohazalar asosida o’quvchilarning muloqot malakasini rivojlantirish lozimligini ta’kidlaydi [3:55]. Mazkur yondashuv tarafdorlari R.Olsen va S.Kagan “Kolloborativ ta’lim texnologiyasi (Cooperative learning) – bu guruhli o’quv faoliyati bo’lib, guruhlardagi o’quvchilar o’rtasida ma’lumot almashinuvi bilan olib boriladi”, deb ta’rif bergan bo’lsa [4:8]. R.Slavin esa tilni hamkorlikda o’rganish – bu o’quvchilar kichik guruhda muammolarni ijtimoiy hal qilish uchun birgalikda ishlashidir deb ta’kidlaydi [5:194].

G.I.Shukina ta’limda faollikni ta’minlashni o’qituvchi va takabalar o’rtasida hamkorlikni tashkil etgan holda amalga oshirish mumkin deb hisoblaydi [6:36]. M.Garsiyaning fikriga ko’ra ushbu yondashuvning ijobiy taraflaridan biri – talabalar birgalikda ishlayotganda, ular o’z sheriklaridan o’rganish bilan birga, do’stlari bilan birgalikda ishlashdan zavqlanadi [7:10].

“Kolloborativ” (Cooperative learning) ta’lim texnologiyasining o’ziga xos xususiyati shundaki, talabalar pedagogik jihatdan tuzilgan mashg’ulotlarni bajarish davomida metodik o’rganishning muhim sharti hisoblangan ijtimoiylashuv jarayoni sodir bo’ladi. Ushbu yondashuv ustida ilmiy ishlarini olib borgan olimlar S.Kagan [8:450] va S.Viderxoldlar [9:284] ta’lim oluvchilarning kommunikativ aloqada o’quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini oshiradi hamda, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi deb ta’kidlaydi.

Ko’plab tadqiqotchilar “hamkorlikda ishlash” (Cooperative learning) ta’lim texnologiyasidan an’anaviy

ta’limda samarali foydalanish uchun e’tibor berilishi lozim bo’lgan elementlarni tadqiq etgan. Jumladan, D.V.Jonson, R.T.Jonson, I.J.Xolubek va P.Roylarning fikriga ko’ra, “Kolloborativ” (Cooperative learning) ta’lim texnologiyasida talabalarning muhokama qilishi, boshqa talabalarga yordam berishi yoki bir-birlari bilan o’zaro material almashishi muhim ahamiyatga ega bo’lsada, chinakam hamkorlikda bilim olishlari uchun to’rtta asosiy element bo’lishi kerakligini qo’yidagicha ta’kildagan. (1-rasm)




Ushbu olimlarning taklif etgan tarkibiy elementlari 4K modelidagi kolloboratsiya kompetentsiyasini talabalarda shakllantirish lozimligini inobatga olindi. Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini kolloborativ kompetentsiyasini rivojlantirishga qaratilib, bu jarayonda talabalar nafaqat o’zlarining ishini balki, guruhdoshlarining ham ishlarini baholashini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini 4K modeli asosidagi ta’limda kolloborativ (Cooperative learning) ta’lim texnologiyasini samarali qo’llash uchun tarkibiy komponent sifatida kiritish lozim deb hisoblaymiz.

4K modeli asosidagi ta’limda “hamkorlikda ishlash” (Cooperative learning) ta’lim texnologiyasini samarali qo’llash uchun tarkibiy komponent sifatida kiritish lozim deb hisoblaydi tadqiqotchilar [10:191]. Kolloborativ ko’nikma orqali talabani talaba baholashi guruhga o’z xatolarini bilish va ularni o’qituvchiga topshirishdan oldin xatolarni tuzatish imkoniyatini beradi. Bizningcha, talabani talaba baholashi qo’yidagi bosqichlarda olib borishni tashkil etish mumkin. (1-jadval)

|                    |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |
|--------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Birinchisi bosqich | muayyan guruhdagi talabalar o’zaro bir-birlarining ishlarini baholash, bunda bir guruh tarkibidagi o’quvchilar bir-birlarini ishlarini baholaydilar. Bir-birining ishini ko’rib chiqib, qoniqarli natijalarga erishgandan so’ng, ularning ishlari ikkinchi usul yordamida baholanishi mumkin.                                                                                                |
| Ikkinchi bosqich   | bir guruh vakillari boshqa guruh vakillari ishlarini baholashini nazarda tutiladi. Bu orqali talabalar boshqa guruh vakillarining ishlarini ko’rib chiqish imkoniyatiga ega bo’ladi va baholash jarayonida ular tengdoshlarining ishlarini o’zlari bilan taqqoslashi va hamkorlikda ishlab, xatolarini va kamchiliklarini aniqlashi mumkin. Bu jarayonda talabalar bir-birlaridan o’rganadi. |
| So’ngi bosqich     | o’zaro baholashdan so’ng o’qituvchi talabalarning ishini tekshiradi. O’zaro tekshirishdan o’tgan ishlardan xatosiz natijalar olinishi kutiladi, chunki bitta ish uch marta tekshiriladi: o’z-o’zini tekshirish (bir guruh a’zolari), talabalar (boshqa guruh vakillari) va o’qituvchi tomonidan baholash.                                                                                    |

Talaba yoki o'qituvchi tomonidan baholanishi har bir guruh a'zosining vazifasini, ularning topshiriqni bajarish uchun qo'shgan hissasini aniq bilishni yoki qatnashmaganliklari uchun jazolashni ta'minlab beradi [11:69]. Talabani talaba baholashda qiyinchilikka uchramasligi uchun mavjud S.Raxmidjati va hamkasblari tomonidan talabalarning nutq malakasini baholash uchun ishlab chiqilgan baholash mezon<sup>[12:153]</sup> modifikatsiyallagan holda qo'yidagicha o'zgartirish kiritdik. (3-rasm)



Bu esa o'z navbatida talabalardan diqqat bilan tekshirish uchun bor bilim mahoratini ishga solishi va yuqori kognitiv fikrlash darajasi sifatida keltirilgan analiz va sintez qilishni talab etadi.

Guruh a'zolari topshiriqni bajarish davomida o'z vazifasini tushunib bajarishda shu bilan birgalikda guruh muvaf-

faqiyati uchun boshqa guruh a'zolariga yordam bera olishda qo'ldagi ijobiy ko'nikmalar shakllanadi:

- ✓ talabalarda o'zaro ijobiy munosabatni anglatishi;
- ✓ shaxsiy javobgarlik;
- ✓ o'zaro ijobiy munosabatlar;
- ✓ hamfikirlilik;
- ✓ individual javobgarlik;
- ✓ guruh a'zolarini qo'llab-quvvatlash;
- ✓ topshiriqni bajarishdagaqaratilgan kompetentsiyalar rivojlanadi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, agar talabalar berilgan vazifani bajarishda guruhdagi har bir a'zoning muvaffaqiyati muhim ahamiyatga ega ekanligini tushunsalar, guruh a'zolari orasida ijobiy o'zaro munosabat shakllanadi. Natijada, guruh a'zolari vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun bir-birini qo'llab-quvvatlashi kerakligini tushunib yetadilar. Bu esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kollektiv ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilim va tajribasini xalqaro darajaga olib chiqish, oliy o'quv yurtlarining QS va THE xalqaro reytinglariga kirishi uchun maqsadli dasturni ishlab chiqishga, kasbiy ko'nikmalari rivojlanishiga imkon beradi.

#### Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўljallangan Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони. // <https://lex.uz/uz/docs/5841063>
2. <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatno-masi-toliq-matn>.
3. [https://uza.uz/uz/posts/darsliklar-ozgaryapti-shunga-yarasha-oqituvchilar-ham-ozgarishi-kerak\\_440060](https://uza.uz/uz/posts/darsliklar-ozgaryapti-shunga-yarasha-oqituvchilar-ham-ozgarishi-kerak_440060).
4. Yassin A.A., Razak N.A., Maasum N.R. Cooperative Learning: General and Theoretical Background // *Advances in Social Sciences Research Journal*. 2018. № 5(8) -P. 643.
5. Socratous M. (2014). The effects of cooperative learning arrangements on the social skills of pupils identified as having severe learning difficulties, who attend special primary schools. PhD dissertation. University of Exeter. – 2014. – P. 55.
6. Olsen R., Kagan S. About cooperative learning // In Kessler C. Cooperative Language Learning: A Teacher's Resource Book. New York: Prentice Hall. 1992. -P. 8.
7. Slavin R. Cooperative Learning: Theory, Research and Practice. 2nd ed. New York: Prentice Hall. 1995. -P. 194.
8. Щукина Г.И. Исследование активизации учебно- познавательной деятельности. // Советская педагогика. 1983. № 3. 36-37-6.
9. Garcia M. Ten important aspects of a 21st century foreign language teaching approach. // *European Journal of Foreign Language Teaching*. – 2021. – Vol 5 (5). – P. 1-19. doi: 10.46827/ejfl.v5i5.3834
10. Kagan, S. Cooperative Learning. San Juan Capistrano, Calif.: Kagan Cooperative Learning. 1992. –P. 450.
11. Wiederhold C. The Question Matrix // San Juan Capistrano, Calif. 1995. –P. 284.
12. Johnson D.W., Johnson R.T., Holubec I.J., Roy P. Circles of learning. Cooperation in the Classroom. Alexandria, VA: Association for Supervision and Curriculum Development. 1984. –P. 14.
13. Rottier J., Ogan B.J. Cooperative learning in middle-level schools. Washington, DC: National Education Association. 1991. –P. 112.
14. Kagan S., High J. Kagan structures for English language learners. // *ESL Magazine*. The information source for ESL/EFL professional worldwide. 2002. – P. 10.
15. McWhaw K., Schnackenberg H., Sclater J., Abrami P.C. From cooperation to collaboration: Helping students become collaborative learners // In Gillies R.M., Ashman A.F. Cooperative learning: The social and intellectual outcomes of learning in groups New York: Routledge Falmer. 2003. – P. 69-86.
16. Rachmijati C., Anggraeni A., Apriliyanti D. Implementation of blended learning through youtube media to improve students' speaking skill // *OKARA: Jurnal Bahasa dan Sastra*. 2019. № 13 (2) -P. 153-164. DOI: 10.19105/ojbs.v13i2.2424
17. Bekimbetova G.R. 4K tamoyili asosida o'quvchilarning Qoraqalpog' tili fanidan kollektiv ko'nikmalarini rivojlantirish paradigmasi // *International journal of recent scientific researcher's theory*. International scientific journal. ResearchBib Impact Factor: 7.1. Volume: 2. Issue: 2. February. 2024. ISSN: 2992-8885. [uzresearchers.com](https://uzresearchers.com). –P.191-198. (13.00.00; №14).

**REZYUME.** Ushbu maqolada 4K modeli bo'yicha tadqiqotlar tahlil qilingan. Maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishga qaratilgan kollektiv ta'lim texnologiyalarning ahamiyati va qo'llash usullari haqida aytib o'tilgan. Shuningdek, mavzuga doir ilmiy xulosalar berilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В этой статье анализируются исследования модели 4К. В статье рассказывается о значении и методах применения технологий совместного обучения, направленных на развитие профессиональной компетентности учащихся будущего направления начального образования. Также даны научные выводы по теме.

**SUMMARY.** This article analyzes the research of the 4K model. The article describes the importance and methods of applying co-educational technologies aimed at developing the professional competence of students in the future direction of primary education. Scientific conclusions on the topic are also given.

# INFORMATIKA SABAQLARÍ SÍPAT NÁTIYJELIGIN ASÍRÍWDA MASHQALALÍ TÁLIM TEKNOLOGIYALARINAN PAYDALANÍW

**Q.A.Turmanov** – *pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent*

*Qaraqalpaqstan Respublikası pedagogikalıq sheberlik orayı*

**Tayanch so'zlar:** uzluksiz ta'lim, informatika va axborot texnologiyalari darsi, dars shakli, dars turlari, interfoal metodlar, amaliy mashg'ulotlar, guruhlarda ishlash, muammoli ta'lim.

**Ключевые слова:** непрерывное образование, урок информатики и информационных технологий, формат урока, виды уроков, интерактивные методы, практические занятия, групповая работа, проблемное обучение.

**Key words:** continuous education, computer science and information technology lesson, lesson format, types of lessons, interactive methods, practical classes, group work, problem-based learning.

Tálım sapasın hám natiyjeliligin asırıwdıń eń áhmiyetli faktorlarınan biri – bul hár bir pedagog kadrıń bilim, kónlikpe hám kásiplik kompetentliginiń joqarı dárejede bolıwı menen baylanıslı bolıp, bunı támiyinlew házirgi kúnniń aktual wazıypalarınan biri esaplanadı. Búgingi kúnde ulıwma orta bilim beriw mekteplerinde jańa pedagogikalıq texnologiyalar hámde innovaciyalardı engiziwge úlken itibar qaratılıp atır. Oqıtıwshı turaqlı túrde óz bilimin asırıp hám rawajlandırıp barıwı, jańa oqıtıw metodların úyneniwi hám oqıw procesin rawajlandırıwǵa itibar qaratıwı zárúr. Ol óz pánin tereń biliwi menen birge basqalargá óz bilimlerin ápiwayı hám túsiniikli tárizde jetkize alıwı da úlken áhmiyetke iye bolıp tabıladı.

Búgingi kúnde úzliksiz bilimlendiriwge qaratılıp atırǵan itibar tálım procesiniń natiyjeliligin artırıwda úlken orın tutadı. Bilimlendiriw procesinde oqıtıwdıń jańa forma, jańa innovaciyalıq hám informaciyalıq texnologiyalardan paydalanıw arqalı tálım alıwshılardı hár tárepleme jetik kadrlar etip tárbiyalaw baslı maqsetlerden biri bolmaqta.

Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2020-jıl 6-oktyabrdegi “Informaciyalıq texnologiyaları tarawında tálım sistemasın jáneде jetilistiriw, ilimiy izertlewlerdi rawajlandırıw hám olardı IT-industriya menen integraciya qılıw is-ilajları haqqında”ǵı PQ-4851-sanlı qararında, informaciyalıq texnologiyalar tarawındaǵı kadrlardı tayarlaw sistemasın jetilistiriw “Cifrlı Ózbekstan – 2030” strategiyasın nátiyjeli ámelge asırıw, cifrlı texnologiyalardı rawajlandırıw hám kúndelikli turmısqa keń en jaydırıwdı támiyinlewdiń zárúr shártlerinen biri ekenligi ayrıqsha atap ótilgen [1].

Oqıwshılardıń pánge qızıǵıwshılıǵı oqıtıwshınıń tikkeley tásiiri astında qalıpleseди hám onıń pedagogikalıq tájiriyebesine de baylanıslı boladı. Oqıtıwshı óz imkaniyatınan kelip shıǵıp oqıtıw quralları, forma hám usılların qollap, onıń ámeliy iskerlik sistemasın jaratılıwına múmkinshilik beredi. Informatikanı úyreniw ushın motiv bolıp, birinshi nábette kompyuterge qızıǵıwshılıq esaplanadı. Kompyuter oqıwshılardı jańa múmkinshiliklerin kórsetiwı menen ózine tartadı. Ol dos hám járdemshi qural, ol pánge qızıqtırıwshı hám pútkil jáhán menen baylanıswǵa imkan beriwshi qurılma. Biraq, kún sayın kópshilik oqıwshılarga kompyuter derlik kúndelikli paydalanatuǵın ápiwayı texnika bolıp qalıp atır [2]. Degen menen kompyuterdi ápiwayı qurılma sıpatında emes, bálkim zamanagóy texnika, sheksiz múmkinshiliklerge iye qurılma sıpatında úyretiw búgingi kúnniń tiykarǵı máselelerinen esaplanadı. Bul mektep informatika oqıtıwshıları aldında turǵan aktual hám óz sheshimin kútip turǵan máselelerden biri esaplanadı.

Informatika hám xabar texnologiyaları pánin oqıtıwda búgingi kúnniń tiykarǵı talapları, yaǵnıy, sabaqlardı jańa pedagogikalıq texnologiyalar tiykarında alıp barıw hám olardı sabaq proceslerine turaqlı engiziw talapları qoyılmaqta. Bunnan maqset oqıwshılarda óz betinshe, erkin hám kreativ pikirlewdi rawajlandırıwdan ibarat. Sabaq juwmaǵında bolsa qayta baylanısta, nátiyjege erisiwi kepillengen. Nátiyjeде “subyekt-obyekt” qatnasıqları “subyekt-subekt” qatnasıqlarına aylanadı. Bul processi nátiyjeli ámelge asırıwda interaktiv metodlardan maqsetke muwapıq orınlı paydalanıw tálım nátiyleligin asıradı [3].

Sabaq procesinde mashqalalı tálım texnologiyaların qollanıwda oqıtıwshılar hám oqıwshılar tárepinen tómendegi háreketler ámelge asırıladı: [4].

| Oqıtıwshı                                                              | Oqıwshı                                             |
|------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------|
| - oqıw materialı menen aldınnan tereńirek tanıswı;                     | - oqıw materialınıń mazmun-mánisin ańlawı;          |
| - tema maǵlıwmatları tiykarında mashqalalı jaǵdaylar (jaratıw) dúziwı; | - mashqalalı jaǵday boyınsha óz betinshe pikirlewı; |
| - mashqalalı tapsırmalardı proektlew.                                  | - bilim hám tájriybelerge súyeniwı;                 |
|                                                                        | - tapsırmaların orınlawı.                           |

Mashqalalı sorawlar hám tapsırmalardıń sheshimlerin tabıwda “VeNN diagramması”, “T-sxema”, “Balıq skleti” sıyaqlı mashqalalı tálım metodlarınan paydalanılsa maqsetke muwapıq boladı.

Biz mektepte informatika hám xabar texnologiyaları pánin oqıtıw procesinde mashqalanıń payda bolıwı hám de qoyılıwı, onıń sheshimin tabıw hám ámelge asırıw procesinde oqıwshınıń jeke aktivligin názerde tutatuǵın, óz betinshe dóretiwshilikke qábilettiligin rawajlandırıwǵa háreket etemiz. Bunıń ushın sabaqlarda oqıwshılarga jańa materialdı usınıwda, “tayın materialdı bermew” principine tiykarlanıw zárúr. Yaǵnıy, oqıwshılar oqıtıwshılar járdeminde úyrenilgen materialdı ulıwmalastıradı, mashqalalardı soraw kórinisinde qalıplestiredi hám sonnan keyin jańa temanı úyreniwge kirisedi hám sabaq rawajlandırılatuǵın xarakterge iye boladı. Jańa materialdı úyreniwdiń birinshi sabaǵında oqıwshılar toparlarga ajratıladı. Hár bir topargá tema boyınsha materiallar tarqatıladı, tema boyınsha qosımsha ádebiyatlar toplawǵa járdem beriledi. Sáykes temalar boyınsha sabaqlardı oqıwshılar menen birge olardıń miynetlerin esapqı alǵan halda shólkemlestiriw maqsetke muwapıq. Bunı sabaqtıń jańa bilimler beriw, materialdı dáslepki yamasa juwmaqlawshı bekkemlew sıyaqlı basqıshlarında ámelge asırıw múmkin. Oqıwshılar óz materialın qaysı kóriniste usınıwdı oylap kóredi hám oqıtıwshı menen máslahátlesedi. Sol sebepli házirgi waqıtta oqıtıwdıń jańa forması, yaǵnıy, joqarı klass oqıwshılar tárepinen kishi klaslarda sabaqlardı shólkemlestiriw hám ótkeriw sınaqtan ótkerilmekte.

Mashqalalı tálım texnologiyası usılında oqıwshılar aldında qandayda bir mashqala qoyıladı hám onı sheshiwde oqıwshı oqıw baǵdarlamalar boyınsha ólestiriwi zárúr bolǵan bilim, kónlikpe hám uqıplılıqlarga iye boladı. Biraq, hár dayım da mashqalalı jaǵday jaratıw imkanı bola bermeydi. [5]. Misalı, fayllar hám papkalar buyırıqları menen islew oqıwshılar hám oqıtıwshılar ushın da quramalı esaplanbaydı. Biraq, keyingi ámeliyat sonı kórsetedi, oqıwshılar real turmısta 5-klass oqıwshıları “poisk faylov” buyrıǵın ulıwma qollay almaydı. Oqıwshılardı qızıqtırıw ushın bolsa teoriyanı “Siz fayldı joǵalttıńızba?” mashqalalı variantta bayanlaw hám “Ǵáziyneni tabıw” oynıń ótkeriw maqsetke muwapıq esaplanadı. Hár bir oqıwshı óz kompyuterinde tekst redaktorında ǵáziyne qaysı faylda jasırılǵanlıǵı boyınsha maǵlıwmatlı – xat jazadı, sonnan keyin onı qálegen papkaǵa jasıradı. Faylǵa alıp baratuǵın joldı dápterge jazadı. Basqa qaǵazǵa fayldı tabıw atributları kórsetilgen xat jazadı. Sonnan keyin oqıwshılar dóńgelek formada háreketlenip jaylasadı. Jazıp qaldırılǵan xatti oqıp qıdırıw sisteması járdeminde fayldı tabıw buyrıǵın orınladı. Fayldı tapqan oqıwshılar onı tabıw jolın jazadı hám xatti oqıp beredi. Solay etip, Informatikanı oqıtıw

procesinde oqıtıwdıń hár bir basqışında oqıwshılardıń óz betinshe úyreniw iskerligi procesin basqarıwǵa járdem beretuǵın, olardıń bilimlerin baqlawǵa itibar qaratuı lazım.

Oqıtıwdıń toparlı forması – tiykarǵı emes, bálkim oqıtıwdıń qosımsha forması bolıp tabıladı [6]. Ol tómén ózlestiriwshi oqıwshılardıń oqıwda artta qalıwına jol qoymaw hám qábiletli oqıwshılar ushın jaqsı sharayatlar jaratıw múmkinshiligin beredi. Oqıtıwdıń bunday formasın oqıwshılardıń individual parqı anıq kórinip turǵan klaslarda qollaw múmkin. Sabaqtıń basında oqıwshılardı jumıs maqsetin túsindiriw, tayarlangan tapsırmalardı hám olardı orınlawǵa kórsetpelerdi tarqatıw, toparlı islewdiń barısı hám nátiyjesin analizlew hám konsultaciýalar beriw kerek.

Tájiriye sonı kórsetedi, jumıstıń dáslepki basqıshlarında, ásirese 5-6 klaslarda, pán boyınsha bilim dárejeleri túrlishe bolǵan oqıwshılardı birlestiriwshi toparlar nátiyjelirek boladı. Topardıń barlıq aǵzalarınń aktiv islewine erisiw ushın toparlar quramın bir neshe ret ózgertiw kerek boladı. Eger toparda jumıs jaqsı barsa, ol halda quramdı almasurmastan aldındıday qaldırıw da múmkin.

Toparda islewdi shólkemlestiriwde tómendegi talaplardı ámel qılıw kerek:

- unamsız jaǵdaylardıń aldın alaw; toparlar bóliniw haqqında bilmewi kerek;
- oqıwshılar tapsırmalardı ózbetinshe orınlay alıwları múmkinligin járiyalap, toparlar boyınsha bólistiriw kerek;
- oqıwshılar ózleriniń oqıw imkaniyatlarına sáykes tapsırmalardı ózbetinshe tańlaw halatın jaratıw.

#### **Ádebiyatlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT – industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4851 sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi veb-sayti-[www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. Абрамова Я.К. Смешанное обучение как инновационная образовательная технология. // Перспективы развития информационных технологий. 2014.
3. Abdugodirov A.A., Ishmuxamedov R., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: «Istedod», 2008.
4. Yuldashev U.Yu, Boqiev R.R., Zokirova F.M. Informatika o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: “Talqin”, 2004.
5. Долгова Т.В. Смешанное обучение – инновация XXI века Интерактивное образование: Информационно-публицистический образовательный журнал/учредитель ООО «А-Приор». 2017, №5.
6. Jumanova F., Avazova S., Jobborova G., Xusnetdinov U. Umumiy pedagogika asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. –Toshkent: “Ishonchli hamkor” 2020.

**REZYUME.** Ushbu maqolada, informatika va axborot texnologiyalari darslarida o‘qitishning guruhli shakllarini qo‘llanish. Shuningdek, informatika va axborot texnologiyalari darslarida muammoli ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье рассматривается использование групповых форм обучения на занятиях по информатике и информационным технологиям. Также даются предложения и рекомендации по эффективному использованию проблемных образовательных технологий на занятиях по информатике и информационным технологиям.

**SUMMARY.** This article examines the use of group learning in computer science and information technology classes. It also provides suggestions and recommendations for the effective use of problem-based educational technologies in computer science and information technology classes.

### **KAM KOMPLEKTLI SINFLARDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI**

**S.A.Yuldosheva – filologiya fanlari nomzodi, dotsent**  
*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*

**Tayanch so‘zlar:** kam komplektli umumta’lim muassasalari, sinflarni komplektlash, o‘quv jarayonini tashkil etish, mustaqil ish, individual topshiriq va tarqatmalar.

**Ключевые слова:** малооснащенные общеобразовательные учреждения, полные классы, организация учебного процесса, самостоятельная работа, индивидуальные задания и раздаточные материалы.

**Key words:** low-equipped general education institutions, complete classes, organization of the educational process, independent work, individual assignments and handouts.

Respublikamızda an’anaviy umumiy o‘rta ta’lim maktablari bilan bir qatorda chekka tumanlarda joylashgan kam komplektli maktablar ham faoliyat yuritib kelmoqda. Ma’lumki, avvalo, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda [1], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli qarorida [2], keyin 2020-yil 20-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Moliya vazirligi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligining “Umumta’lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini

Ameliy sabaqlarda oqıwshılardı usınıs etilgen tema boyınsha óz kózqarasın tabıw hám tiykarlaw tapsırmaları beriledi. Oqıwshılar ózleriniń pikirlerin tiykarlaw ushın esaplaw texnikası tariyxınan dáliller, ǵalaba xabar qurallarınan maqalalar, turmıstan alıngan qızıqlı hádiyselerden paydalanadı. Oqıtıwshi oqıwshılar tárepinen jol qoyılǵan kemshiliklerge shıdamlılıǵın kórsete biliwi, óz oqıwshısına iseniwi, tuwrıdan-tuwrı májbúrlewden jıraqlı bolıw, xoshametlewge kóbirek itibar beriwı kerek. Oqıwshi qáte etiwge haqlı, kóbinese óz qátelerin analiz etiwı, onıń bilim kónlikpeleriniń qalıplesiwinde áhmiyetli bolıp esaplanadı.

Juwmaqlap aytqanda, zamanagóy pedagogok texnologiyalardıń zamanagóy informaciýalıq texnologiyalar menen birigiwi tálim procesi nátiyjeliligın asırıwı múmkin. Mashqalalı tálim texnologiyalarınan bilimlendiriwde paydalanıw, bilim alıwshılar hám oqıtıwshılar ushın bir qansha imkaniyatlar beredi. Bunda, bilim alıwshılarda, óz pikirlerin aytı alıw, dóretiwshilik, izleniwshilik, kishi toparlarda islese alıw, ózgerlerdiń pikirlerin tıńlaw sıyaqlı kónlikpelerin rawajlanıwına imkan jaratadı. Sonday-aq, oqıtıwshılar da bilim alıwshılar bilimlerin qadaǵalawda, olardıń bilimlerin analiz qılıwda bir qansha imkaniyatlarǵa iye boladı. Mashqalalı tálim texnologiyalarınan informatika hám xabar texnologiyaları sabaqlarında belgilengen talaplarda paydalanıw arqalı, sabaq nátiyjeliligın hám de onıń sapasın asırıwǵa erisiw múmkin.

shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 8-mh, 28, 124/1-sonli qaroriga muvofiq o‘quvchilar soni yetarli bo‘lmagan umumta’lim muassasalarida, olis (tog‘li, cho‘lli) hududlarda joylashgan umumta’lim muassasalarida hududiy xalq ta’limi bo‘linmalari va hududiy moliya organlari bilan kelishilgan holda komplekt sinflarni tashkil etish belgilangan. Jumladan, kam komplektli umumta’lim muassasalarida (filiallarda) boshlang‘ich sinf o‘quvchilari quyidagi hollarda bitta sinfga birlashtirilishi mumkinligi qayd etilgan [3]:

o'quvchilar soni 8 nafargacha bo'lgan I – IV sinflar;  
o'quvchilar soni 12 nafargacha bo'lgan uchta boshlang'ich sinf;

o'quvchilar soni 24 nafargacha bo'lgan ikkita boshlang'ich sinf (I va III, II va IV sinflar).

Respublikamizda qishloq joylarda kichik va aholi yashaydigan olis hududlar (tog'li, cho'lli) mavjud bo'lib, bu joylarga bir sinfga belgilangan me'yordan anchagina kam bo'lgan 7 yoshli bolalar bo'lganda kam komplektli sinflar ochiladi. Bu shunday komplekt sinfki, unda bir o'qituvchi bir vaqtda bir necha sinfdan ishlaydi. Bu sinflarda soni 3 tadan 24 tagacha o'quvchi bo'lishi mumkin. Ya'ni, boshlang'ich sinflar komplekt (*1-sinf + 3-sinf; 2-sinf + 4-sinf; 1+2+3+4-sinflar*) tarzda birlashtirilib, o'quvchilarga ta'lim beriladi.

Kam komplektli umumta'lim muassasalaridagi ta'lim an'anaviyga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Bunda o'qituvchi har bir o'quvchi bilan individual yondashib ishlashi, ta'lim-tarbiyani samarali tashkil etishi kabi imkoniyatiga ega bo'ladi. Har bir bolaning individual xususiyatlari va yashash sharoitlarini yaxshi o'rganadi, sinfi boshqa-boshqa bo'lgan o'quvchilarning hamkorlik faoliyatini tashkil eta oladi. O'qituvchi har bir o'quvchidan tez-tez so'rab turish, ularning bilimidagi kamchiliklarni aniqlash va tuzatish, o'z vaqtida daftar tekshirishi mumkin bo'ladi. Bunday ta'limning tarbiyaviy ahamiyati ham bor: o'quvchining irodasi mustahkamlanadi, katta sinf o'quvchilarining kichik sinf o'quvchilariga yordam berishlari orqali sinfdan uyushqoqlik, ishchanlik, qiyinchiliklarni mustaqil va hamkorlikda bartaraf qilish, o'z-o'zini tekshirish malakasi tarbiyalanadi.

Maktablarda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar komplekt sinflarda ishlash tajriba va malakasiga ega bo'lishlari lozim. Bunday sinflarda o'quvchilarni o'qitishda o'qituvchilardan darslarga jiddiy tayyorgarlik ko'rish va salohiyatni talab etadi. O'qituvchi 45 daqiqalik darsni kompleks tarzda loyihalashtirib, ikkala sinf o'quvchilari bilan vaqtni to'g'ri taqsimlab ishlash jarayonini tashkil etishi kerak bo'ladi. Kundalik hayotda komplekt sinflarda ta'lim berayotgan o'qituvchilar ayrim qiyinchiliklarga duch keiyatganliklariga guvoh bo'lamiz. Jumladan, Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanidan o'qituvchi Tozagul Usmonovanning (ism-familiyasi o'zgartirilgan) fikricha, bir o'quv soatida ikki sinfga, ikki mavzuda dars o'tish, o'quvchilardan mavzuni so'rash qiyin. Bunday sharoitda o'qiyotgan o'quvchilarga zamonaviy ta'lim berish imkoniyati yo'q. O'quvchilarda darsga qiziqish sust. O'lis hudud maktablarda komplekt sinflarda tahsil olayotgan o'quvchilarning shart-sharoiti bilan shahar maktablaridagi sharoitni qiyoslab bo'lmaydi. T.Usmonova boshlang'ich sinflarga ta'lim berishda ikki sinfga bir vaqtda o'tishi, alohida dars ishlama uchun konspekt yozib, ikki mavzuga tayyorgarlik ko'rishini, ikki o'quv reja, ikki xil darslik bo'yicha ishlashini qayd etgan [4]. Darhaqiqat, bunday sinflarda dars berish uchun o'qituvchi:

1. Har kuni darsga tayyorlanishi va turli fanlardan eng kamida 8 soat dars o'tishi kerak. Bunday sinf uchun darsni loyihalashtirish oddiy maktabdagi bir sinf bilan ishlashga qaraganda ko'p vaqt talab qiladi va ishlash darajasi qiyin. Nafaqat darsni loyihalashtirish, balki ikki xil sinfdagi ikki xil fan va mavzu (*ba'zida uch yoki to'rt xil sinfdan uch yoki to'rt xil fan va mavzu*)ni 45 daqiqaga muvofiqlashtirish anchagina vaqt talab qilishi bilan birga ular optimal pedagogik samara beradigan darajada faoliyatni yo'lga qo'yishi ham lozimdir. Bu esa bor tajribasi va mahoratini ishga solgan oliy toifali o'qituvchi uchun ham qiyin jarayondir. Ya'ni, o'qituvchidan tegishli bilimlarni bilishdan tashqari maksimal darajada kuch, sabot, uyushqoqlik, matonat, qat'iyatlikni talab qilinadi.

2. O'qituvchi bir sinf bilan darsning yarmi yoki 1/3 qismi davomida shug'ullansa (*o'tilgan mavzuni so'rash, yangi mavzu bayoni va mustahkamlash*), darsning qolgan

vaqtida o'quvchilar mustaqil ishlashiga to'g'ri keladi. O'quvchilar mustaqil ish bajarayotgan vaqtda o'qituvchi boshqa sinf bilan band bo'ladi.

3. Komplekt sinfdan ikki xil sinf o'quvchilarining diqqat-e'tibori bir-biriga chalg'ishi kuzatiladi. Ya'ni, bir sinf o'quvchilari, ayni vaqtda o'qituvchi rahbarligida ishlayotgan boshqa sinf o'quvchilarining xalaqit berishiga qaramay, mustaqil ishlashlari kerak bo'ladi. O'quvchilarda ham bunday muhitda ta'lim olish ko'nikmasini shakllantirish taqozo etiladi.

Bunday yondashuvda o'qituvchi ko'proq mustaqil ish shakllaridan, didaktik tarqatmalardan unumli foydalanib, o'quvchilarni band qilishi mumkin bo'ladi. Bir vaqtning o'zida ikki sinf o'quvchilariga ikki xil mavzuni o'rgatish, mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlovchi mashq va topshiriqlarni bajaritirish va o'zlashtirish darajasini nazorat qilish kabi vazifalarni amalga oshirish kerak bo'ladi. Komplekt sinflarda faoliyat asosan doimiy mustaqil ishlarni amalga oshirish bilan olib boriladi. Mustaqil ishlar darsning 50% dan ortig'ini tashkil etadi. Ikki sinf o'quvchilarning bir qismi bevosita o'qituvchi rahbarligida ishlasa, ikkinchi qismi o'qituvchi bergan topshiriqni mustaqil bajarish bilan shug'ullanadi. Bu jarayon muntazam almashinib turadi. Mustaqil ishning bajarilish hajmi va vaqti o'qituvchining boshqa sinf bilan olib boradigan ishning hajmi va vaqti bilan bog'liq bo'ladi.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini ikki xil sinfdan kompleks tarzda o'qitishda ham mustaqil ishlar amalga oshiriladi. Mustaqil ishlash jarayonida o'quvchilarda quyidagi bilim, ko'nikma va malakalar rivojlanadi: o'qib tushunish hamda mustaqil o'qib, bilim o'rtirish; tinglab tushuntirish; nutq so'zlash; yozish, grammatik savodxonlikni shakllantirish; o'z ishini mustaqil ravishda tashkillashtira olish, rejalashtirish; mayda muammolarni hal qila olish va o'z faoliyatida qo'llay olish; o'zgarlar nuqtayi nazarini tushuna olish va shaxsiy fikrga ega bo'lish; qiyinchiliklar oldida chekinmaslik; xatti-harakatlar, ish natijalari uchun mas'ullik kabilar.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini puxta o'zlashtirgan o'quvchi kundalik hayotda duch keladigan turli vaziyatlarda o'zini tanishtira olishi, suhbatdoshining fikrini tushunishi va unga mantiqli javob bera olishi, berilgan manbadan mavzuga oid materiallarni izlab topishi va o'rganishi, shaxsiy fikrini aytishi, bahs-munozarada erkin ishtirok etishi kerak bo'ladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o'stirishi; o'quvchilarni o'z-o'zini, moddiy borliqni tilning ifoda vositalari yordamida ifodalashga hamda o'z fikri va his-tuyg'ularini ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olishga o'rgatishi lozim. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun kamkomplektli sinflarga mo'ljallangan o'quv-didaktik tarqatma materiallarni takomillashtirish hamda innovatsion usullarga asoslangan mustaqil ish shakllaridan foydalanish talabi ortib bormoqda. Ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan o'quv-didaktik tarqatmalarning o'rinli va unumli qo'llanilishi o'quv sifati va samaradorligining oshishiga, o'quvchilarda mazkur fanlarga nisbatan mehr-muhabbat hissining kamol topishiga zamin hozirlaydi. Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun nashrdan chiqarilayotgan tayyor to'plam shaklidagi (jadvallar, sxemalar, asarlarga ishlangan suratlar, adiblarni suratlar va h.) hamda fan o'qituvchisi tomonidan o'quv dasturidagi mavzular yuzasidan tayyorlangan tarqatma materiallar amalda qo'llanilmoqda. Ba'zida sinf o'quvchilari tomonidan mustaqil ish tarzida tayyorlangan sifatli, talabga javob beradigan ishlar ham tarqatma sifatida ishlatilmoqda. Biroq ularning barchasi sinf bilan frontal ishlashda, butun sinfga yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, takrorlash jarayonlarida qo'llaniladi. O'quvchilarning yakka tartibda ishlashiga mo'ljallangan topshiriqli tarqatma materiallar esa sinf o'zlashtirish


salohiyatiga qarab ijodiy yondashilib o'qituvchi tomonidan yaratiladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, tarqatma didaktik materiallar o'quvchi dunyoqarashini, didini tarbiyalaydi. Tayyorlanadigan tarqatmalar sifatli, chiroyli dizayn va shaklda, ishlatishga qulay bo'lishi lozim. Estetik jihatdan o'ziga xos tarzda nafosat va did bilan yaratilgan har qanday tarqatma o'quvchilarda ruhan baland kayfiyat uyg'otadi va ishchanlik holatini oshiradi. Shu bilan birgalikda yaxshi, sifatli tayyorlangan tarqatma material sinf o'quvchilarida ijobiy taassurot uyg'otadi, ularning diqqatini o'qituvchiga va darsiga jalb etadi, o'quvchilarning ustozga nisbatan hurmat hissini orttiradi. Didaktik tarqatma materiallar o'quv jarayonida trenajyor vazifasini o'taydi va o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malakalarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Tarqatma materiallarni darsning boshlang'ich qismida tarqatilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv, avvalo, o'quvchilarning diqqatini jamlashga xizmat qilsa, ikkinchidan, mavzu yuzasidan ularning ma'lum bir tasavvurga ega bo'lishlariga yordam beradi. Shu bilan birga ularni yangi mavzu asosida yaratiladigan muammolar va g'oyalar haqida oldinroq o'ylashga majbur etadi. Yangi mavzuni o'zlashtirishda faollikka undovchi tarqatmalarni yaratishda sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasiga qarab tabaqalashgan (darajaviy) topshiriqlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, o'zlashtirishning I darajasida o'quvchilar avval o'rgangan materialni bilishi tekshiriladi; o'zlashtirishning II darajasida tashqi yordamsiz esda qolganlar bo'yicha o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qayta aytib berish va shular asosida namunaviy topshiriqlar yechish ko'nikmalari tekshiriladi; o'zlashtirishning III darajasida o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalari tekshiriladi. Quyida "Ona tili va o'qish savodxonligi" fanidan mustaqil faoliyatni tashkil etishga qo'llash mumkin bo'lgan ayrim individual topshiriqlar namunalaridan keltirib o'tamiz:

**1-tarqatma. o', i, e** unilari bilan boshlanuvchi so'zlar yozing. *Namuna:*

| <b>o'</b> | <b>i</b> | <b>e</b> |
|-----------|----------|----------|
| O'yin     | ish      | Elak     |
| O'jar     | ishtaha  | Etak     |
| O'rdak    | itoat    | ertak    |
| ...       | ...      | ...      |

**2-tarqatma.** Jufflikda yoki yakka tartibda ishlash uchun mo'ljallangan. Berilgan "O", "I", "U" unli harflariga "Idrok xaritasi"ni tuzish. *Namuna:*



Bu kabi tarqatma materiallar o'quvchilarda mavzu bo'yicha o'z bilimlarini mustahkamlashga, mustaqil va ijodiy fikrlashga, lingvistik tushunchalarini boyitishga, nutqiy ko'nikma va malakalarining rivojlantirilishiga xizmat qiladi. Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mazkur didaktik tarqatmalar o'qituvchiga quyidagi imkoniyatlarni beradi: darsni frontal tushuntirishdan oldin ijobiy muhit yaratiladi; sinf o'quvchilarining diqqat-e'tiborini tortganligiga ishonch hosil qilinadi; o'quvchi ishonchini ta'minlaydi; dars jarayoni samarali tashkil etiladi; bahs, muzokara vaziyati uchun ijobiy muhit yaratiladi; o'quvchilarning vizual qabul qilish ehtiyojlarini ta'minlaydi; murakkab o'zlashtiriladigan mavzularni soddalashtirib, qulay yo'l bilan tushunishga yordam beradi va darsning sifatini kafolatlaydi; mavzu haqidagi axborot to'ldiriladi, kengaytiriladi.

Didaktik tarqatma materiallar o'quvchiga fanni oson va qulay o'zlashtirishga xizmat qilishi lozim. Shu bilan birgalikda tarqatmalar o'quvchilarni: tezroq anglashga; esda saqlashga; hech qanday qaydlarsiz butun e'tiborni noverbal axborotdagi asosiy g'oyalarga qaratishga; o'z taklif va mulohazalarini berishga; g'oyalar ustida amaliy mashg'ulot o'tkazishga, tahlil qilishga; olgan ma'lumotlarni amaliyotda, muammoli vaziyatlarda tatbiq eta olishga; kerakli daqiqlarda axborot to'plashga yo'naltiradi.

Xulosa qilib aytganda, tarqatma materiallar o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda ijobiy ta'sir etadi, u darsning ajralmas qismi sifatida oldindan tayyorlanishi kerak.

### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 140-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining, 2020-yil 20-iyundagi "Umumta'lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro'yxatlarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 8-mh, 28, 124/1-sonli qarori.
4. Kam komplektli sinflarda ta'lim muhiti qanday? Umumiy o'rta ta'lim 12.04. 2019. <http://marifat.uz/marifat/ruklar/umumii-urta-talim/2735.htm>.

**REZYUME.** Mazkur maqolada kam komplektli umumta'lim muassasalarida komplekt sinflarni tashkil etilishining omillari, ta'lim jarayonining afzalliklari va muammolari, samarali ta'limni tashkil etishda mustaqil ishlar, individual topshiriq va tarqatmalardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari yoritilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье описаны факторы организации полных занятий в малооснащенных общеобразовательных учреждениях, преимущества и проблемы образовательного процесса, особенности использования самостоятельной работы, индивидуальных заданий и раздаточных материалов в организации эффективного обучения.

**SUMMARY.** This article describes the factors of the organization of complete classes in low-equipped general education institutions, the advantages and problems of the educational process, the specific aspects of using independent work, individual assignments and handouts in the organization of effective education.

## PSIXOLOGIYA ILIMLERI

### TALABALARDA BAXTLI OILA TO'G'RISIDAGI TASAVVURLAR SHAKILLANISHINING PSIXOLOGIK DETERMINATLARI

**S.O.Abdurayimov** – o'qituvchi

*University of Business and Science universiteti*

**Tayanch so'zlar:** ijtimoiy munosabat, shaxs, ijtimoiy identifikatsiya, qiziqishlar, stumillar, egolar, qobiliyatlar, xarakter va temperament.

**Ключевые слова:** социальная установка, личность, стимулы, эго, социальная идентичность, интересы, способности, характер и темперамент.

**Key words:** social attitude, personality, stimuli, egos, social identity, interests, abilities, character and temperament.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar va o'zgarishlar o'qitish va tarbiyalash nazariyasi va amaliyotida ham juda ko'p amaliyotlarni yuzaga keltirmoqda, jumladan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"ning 16-moddasining 3-bandida "Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi va jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinishga haqli" [1]. Yangi ijtimoiy sharoitlarda mavjud ijtimoiy-psixologik amaliyot metodologik va amaliy muammolarni nazariy jihatdan chuqur anglamasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi, chunki mazkur mavjud muammolar hal qilinmasdan turib ta'lim va tarbiyada samaraga erishib bo'lmaydi. Ijtimoiy psixologiya sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan olimlarning so'nggi ilmiy-nazariy ma'lumotlari, ilmiy izlanishlar natijasi nizoli oilalarga ijtimoiy psixologik sharoitlarini o'rganishni dolzarb muammo sifatida gavdalandirmoqda.

Yurtimizda o'sib kelayotgan yoshlarning oilaviy munosabatlarda bo'lishi mumkin bo'lgan nizolarning vujudga kelishining oldini olishning psixologik tomonlarini tadqiq etish orqali hamjamiyatimizni siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik taraqqiyotida ko'zda tutilga ijobiy o'zgarishlarga dahldorlik hissini tarkib toptirish bo'yicha zarur huquqiy-me'yoriy asoslar yaratimoqda. "Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalarni tarbiyasi, ularning faravon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi" [2] masalalari bilan bir qatorda ularni shaxslararo munosabatlarga ijtimoiy-psixologik tayyorlash, kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishlari ustuvor vazifasi sifatida belgilanganligi, ushbu muammoni ilmiy o'rganishga zarur asos bo'la oladi.

Oila munosabatlari deganda ijtimoiy psixologik jihatdan ma'lum jamoa munosabatini ya'ni yaqin qarindoshlar o'rtasidagi muloqot jarayonini tushunamiz.

Bunga eng avvalo, ota-ona va farzand, er va xotin, qaynona va kelin hamda shu kabi oila a'zolari o'rtasidagi muloqot munosabatlari tushuniladi. Tarixiy turmush tajribalaridan ma'lumki oiladagi eng nozik va ziddiyatli masalalardan biri bu qaynona va kelin munosabatlardir.

Oila davlat va jamiyat tayanchi, balki uning asosiy negizi hamdir. Har bir davlat va jamiyat sog'lom turmush-tarzigiga intilar ekan eng avvalo, bu masalani oila timsolida ko'rishadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, bugungi kunda oila instituti jamiyatning barqarorlik kafolati bo'lib qolmasdan baliki uning kelajak istiqbolini ta'minlab bervchi omildir. Uning muqaddasligini e'tirof etish, daxilsizligini ta'minlash har bir inson ongi va tafakkurida, faoliyat turida, hissiy munosabatlarida birinchi hayotiy zarurat ekanligini inson omili nuqtai nazarida yondoshmoqligi zarur.

Oiladagi ijtimoiy psixologik muhitning barqarorligi ko'p jihatdan qaynona va kelin munosabatlarini qaysi darajada tashkil etilganligiga bog'liq desak masalaga to'g'ri yondashgan bo'lamiz. Ushbu masalani ilmiy

jihatdan tadqiq etar ekanmiz, oila degan muqaddas dargoh aynan mana shu qaynona va kelin funksional rolni bajaruvchi insonlarning xarakter xususiyati va dunyo qarashi timsolida, sog'lom yoki nosog'lom muhitni yuzaga keltirishi oydinlashmoqda. Bugungi kun jamiyatimiz oilalarida ma'lum ziddiyatli munosabatlar, nosog'lom psixologik muhit qaynona va kelin diologlarida aks etmoqda. Buning oqibatida oila a'zolari o'rtasida konflikt yuzaga kelib, muqaddas atalmish oila dargohi taqdiri xavf ositida qolishi oritib bormoqda. Ta'bir joiz bo'lsa aytish mumkinki, oilalarning buzilishiga sabab bo'luvchi ijtimoiy psixologik omillardan biri bu - aynan qaynona va kelin o'rtasida yuzaga kelayotgan munosabatlardagi ziddiyatdir.

Diniy bilimlar bilan to'yinga milliy qadriyatimiz oilada ota-ona va qaynona - qaynonaning o'zni beqiyos ekanligini barcha davrlarda avloddan-avlodga singdirib kelgan. Bugungi kunda insonni malohazaga chorlaydigan masalalar kun tartibida turibdi. Nega oldingi davrlarda oilada qaynona bir nechta kelin bilan ahil yashagan, hozirga kunda qaynona bilan bittagina kelin ham ziddiyatli munosabatlar iskanjasida qolib ketayotganligi kuzatilmoqda? Ushbu davrda kelinlarning barchasi qaynonasiga itoatda bo'lib hurmat ko'rsatgan bo'lsa, ayni vaqtda yakka-yu yagona kelin uning teskarisini amalga oshirmoqda.

Masalaga shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, yoshlarda yuzaki fikrlash tarzining vujudga kelganligi, oila muqaddasligi borasida etarli psixologik bilim va tushunchaning sayozligi, diniy bilimlarning etishmasligi, xususan shariat qoidalari va axloq normalariga nopsand yondashuvni kuzatish mumkin.

Qaynona va kelin o'rtasidagi munosabatlarga putur etishining asosiy omilini mana shu faktorlar bilan izohlash ayni haqiqatni yuzaga chiqaradi. Ushbu masalani yana bir tomoni borki, oilaga tashqi aralashuv jumladan er va xotin munosabatini qaynona o'g'lining xotiniga ijobiy muomalasini notug'ri talqin qilgan holda uni tanqid qilishi, ba'zi oilalarda o'g'lini kelindan "qizg'onish" holatlariga ega bo'lgan potologik yondashuvlarning mavjudligidir. Oqibatda kelinga nisbatan qaynonada dushmanlik hissining paydo bo'lishi, unga noto'g'ri munosabatda bo'lgan holda, har bir harakatidan kamchilik izlash borgan sari ortib boradi hamda onalik fitratiga putur etkazadi.

Shuning uchun ham bugungi kun talabalarning muvafaqqiyatli oila haqidagi tushunchalarining ijtimoiy-psixologik determinantlarini aniqlash asosida ilmiy-amaliy taklaif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Shu nuqtai nazarda yangi kelinlarga xonadon sohiblari qanday munosabatda bo'lish yuzasida diyarli umuman psixologik yondashuv yo'qligi yuzasidan fikrimizni bildirmoqchimiz. Bu masalaga befarq yondashuv nafaqat qaynon-kelin munosabatlarida balki oila a'zolari bilan istalgan vaqtda ziddiyatli vaziyatni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy psixologik muhitga zamin bo'lishi mumkin.

Kelin bo'lish har bir qizning orzusi bo'lgani kabi, boshqa xonadonga kirib borish va undagi ijtimoiy psixologik muhitga adaptatsiya qilish haqidagi ichki xovotir barcha narsadan ustun ekanligini bir o'ylab ko'rsak maqsadga muvofiq bo'lardi. Biz bu masalada birorta bilim

va tushunchaga egamizmi? Yangi kelinda kechayotgan kuchli ruhiy holatni hisobga olyapmizmi? Uning adabatsiya jarayoniga munosib sharoit yaratib beryapmizmi? Undagi kuchli depression holatni yumshatish borasida qanday samarali psixologik munosabatni amalga oshiryapmiz?

Yangi muhit, har xil odamlar, xar xil xarakterlarni o'rganish va ular bilan munosabatning muvozanatli nuqtasini topish uchun qancha vaqt kerak? Bu holat kelinlarda kuchli yashirin stress holatni yuzaga keltirishi, asabiylashishi, o'zini boshqarishda qiynalishi va oqibatda o'ziga bog'liq bo'lmagan holda noto'g'ri gapirishi yoki xatoga yo'l qo'yishi masalasida biror bir mutaxassis gapirdim?

Yo'q!

Bu borada birorta yo'l – yo'riq ishlab chiqldimi? Yo'q! Yangi kelin tushayotgan xonadon sohiblar bu masalada bilim va tushunchaga etarli darajada egami? Yo'q!

Oddiy qilib aytganda bu masalani majoziy ma'noda tushuntirishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Xulosa qilib aytganda talabalarni baxtli oila to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishining psixologik determinatlarini aniqlash asosida shaxsning munosabati shakllanishini ta'minlovchi ta'sirchan omillarni hamda mexanizmlarni ilmiy-psixologik nuqtai nazardan o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. "Talabalarining muvafaqqiyatli oila haqidagi tushunchalarining ijtimoiy-psixologik determinantlari" mavzusidagi maqola ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

✚ Mazkur muammoni hal qilshda talabalarining muvafaqqiyatli oila haqidagi tushunchalarining ijtimoiy-psixologik determinantlari aloqador omillarining ahamiyati va oila mustahkamligiga ta'siri, oiladagi nizolarni boshqarish bo'yicha xorij tajribalarini o'rganish er-xotin o'rtasidagi nizolarni hal etish bo'yicha maslahatlar, nizoli oilalar bilan ishlashda oila xaritasini tuzish

#### Adabiyotlar

1. BMT Bosh Assambleyasining Rezolyutsiyasi. 217 A (III).:1948 yil 10- dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi. I bo'lim. 2-modda. 30.04.1998.
3. Eshmuradov O. Oila mustahkamligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillari mavzusidagi psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi 2022.
4. Eshmuradov O.E. Oilaning ma'naviy-axloqiy xususiyatlari va oila mustahkamligini ta'minlash imkoniyatlari Academic research in educational sciences, 2021 ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES.
5. Eshmuradov O.E. Oilaviy munosabatlarda shaxs moslashuvchanligi xususiyatining oila mustahkamligiga ta'siri: doi: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.21.57.012> Obrazovanie i innovatsionnye issledovaniya ..., 2021.

**REZYUME.** Maqolada talabalarining muvafaqqiyatli oila haqidagi tushunchalarining ijtimoiy-psixologik determinantlarini aniqlashdan iborat ijtimoiy munosabatlarda shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan tushunchalar xosil bo'lishining tipologik xususiyatlarini o'ziga xos jihatlari va o'rganilganlik holatini tahlil qilish.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассматриваются типологические особенности формирования понятий, направленные на становление учащихся как личности в социальных отношениях, заключающиеся в выявлении социально-психологических детерминант понятий Успешная семья в конкретных аспектах и анализе состояния усвояемости.

**SUMMARY.** The article consists in determining the socio-psychological determinants of students' concepts about a sustainable family, which are aimed at the formation as a person in social relations, analyzing the typological features of identity and the state of study.

## O'SMIRLARDA DAXLDORLIK FAZILATI IJTIMOIIY MUAMMO SIFATIDA

U.A.Aribjanova – o'qituvchi

Andijon davlat universiteti

**Tayanch so'zlar:** daxldorlik, ta'lim, tarbiya, motiv, ustanovka, fazilat, xususiyat, psixologik omil axloq, illat, tahdid, ma'naviyat, ma'rifat.

**Ключевые слова:** актуальность, образование, воспитание, мотив, институт, качество, особенность, психологический фактор, нравственность, порок, угроза, духовность, просвещение.

**Key words:** involvement, education, training, motive, institution, virtue, characteristic, psychological factor, morality, vice, threat, spirituality, enlightenment.

Mamlakatimizda yosh barkamol, istiqbolli avlodning jismoniy, intellektual va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish, ularni qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash kabi ustuvor yo'nalishlarni keng targ'ib qilishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Qolaversa, mazkur masalada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1059-sonli qarorida yoshlarda "daxldorlik" va "mas'uliyat" kabi tayanch kompetensiyaviy fazilatlarini maktab yoshidan

texnologiyasidan foydalanish usullari o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

✚ talabalarining muvafaqqiyatli oila haqidagi tushunchalarining ijtimoiy-psixologik determinantlarini shakllantirish yosh oilalarda er-xotin munosabatlari o'ziga xos hududiy, etnik, jinsiy, yosh va individual psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan er-xotin munosabatlari shakllanishining eng nozik va hal qiluvchi shakli hisoblanadi. U yoki bu yosh oilaga xos bo'lgan er-xotin munosabatlari boshqa bir er-xotonga mos kelmasligi mumkin. Chunki yosh oilani yuzaga keltirgan er-xotinlar turli xil shaxslararo munosabatlar tizimi, turlicha taomilga ega bo'lgan oilalarda tarbiyalangan, shaxs sifatida shakllangan individlardan tashkil topadi. Lekin shunga qaramasdan maxsus psixologik tadqiqotlarda va ulardan olingan natijalar asosida yozilgan ilmiy psixologik adabiyotlarda yosh oilalarda er-xotin munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishining umumiy mexanizmlarga oid tegishli ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

✚ talabalarining muvafaqqiyatli oila haqidagi tushunchalarining ijtimoiy-psixologik determinantlari shakllantirishda oilaviy hayotning o'ziga yarasha notekisliklari, past-balandliklari, murakkabliklari, muammolari bo'ladi. Shunday murakkabliklardan biri yosh er-xotinning yangi ijtimoiy statusga, mavqega: er, kuyov, uylangan, oilali yigit, xotin, kelin, turmushga chiqqan ayol rollariga, o'zlar uchun yangi bo'lgan ijtimoiy muhitga, yangi oilaga moslashish jarayoni bilan bog'liq.

✚ talabalarining muvafaqqiyatli oila haqidagi tushunchalarining ijtimoiy-psixologik determinantlari shakllantirishda yosh oilalarda yuzaga kelganidan so'ng unda er-xotin munosabatlarining «kutilganidek» rivojlanishiga xalaqit qiladigan ko'plab ijtimoiy psixologik, etnik, hududiy, jinsiy omillar borki, yoshlarimiz ularning barchasi haqida oldindan xabardor bo'lishligi va ularning salbiy ta'sirlarini yumshatib, ijobiy jihatlarni rivojlantirishga tayyor bo'lishlari maqsadga muvofiqdir.

boshlab shakllantirish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berildi. Shuningdek, mazkur masalada zamonamizda mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurash kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda turli xil ichki va tashqi, ochiq va yashirin tahdidlarga nisbatan o'smirlarda daxldorlik fazilatini shakllantirish ishlarini yangi bosqichga ko'tarish, yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilishning psixologik omillarini tadqiq qilish, o'smirlarda yon-atrofdagi yuz berayotgan voqealarga

nisbatan daxldorlik fazilatini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyshta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator Qarorlarining qabul qilinishi ham jamiyatda mazkur masalaning nechog'lik muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

O'smirlar orasida daxldorlik fazilatini shakllantirish orqali destruktiv kuchlarga qarshi kurashning psixologik, ma'rifiy usullarini belgilash, bu borada ajdodlar merosi va jahonda qilingan ishlardan unumli foydalanish, o'smirlarni chetdan kirib kelayotgan tashqi va ichki tahdidlardan asrash, buzg'unchi g'oya va vayronkor mafkuralarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllantirish tizimi elementlarining funksional integratsiyalashuvini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda, "Siyosiy psixologiya", "Ijtimoiy psixologiya", "Yosh davrlari psixologiyasi" fanlarini yangi manbalar bilan boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

G'oyaviy, informatsion va mafkuraviy kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda yurtdoshlarimizning hayotga ongli va obyektiv munosabatini shakllantirish, yon-atrofdagi yuz berayotgan voqealarga daxldorligini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyshta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish vazifasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.


Bugungi kun islohotlarimiz Yangi O'zbekistonda fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali "kuchli fuqarolik jamiyati", "ma'rifatli jamiyat" va "tashabbuskor jamiyat"ni barpo etmoqda va jarayonning o'zi ham bugungi islohotlarning natijasidir. Ammo shuni unutmaslik kerakki, biz yuqorida sanab o'tgan jamiyatlarning shakllanishi o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi va u uzoq davom etadigan ijtimoiy jarayondir. Fuqarolik jamiyatini qaror toptirish xalqimizning ma'naviy fazilatlarini yuksalishiga bog'liq. Biroq globallashuv sharoitida ma'naviyatning sayozlashuvidek ulkan muammo yuzaga kelmoqda va mazkur vaziyat terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, "ommaviy madaniyat", narkobiznes kabi tashqi va el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi ichki tahdidlarning paydo bo'layotgani ko'rsatmoqda.

Ularning barchasiga yoshlar tarbiyasidagi kamchiliklar, ma'naviyatning qashshoqlashuvi sabab bo'lmoqda. Bizningcha, buning asosiy sababi yoshlarimizda daxldorlik fazilati tarbiyasiga, uning ilmiy asoslariga yetarli darajada e'tibor qaratilmayotganligidir.


Ma'naviy-ma'rifiy qashshoqlashuv esa o'z-o'zidan odamning o'z xalqi, vataniga daxldorligining zaiflashuviga olib keladi. Bugungi kunda dezinformatsiya xuruji va vayronkor g'oyalarga qarshi tura oladigan mafkuraviy immunitetning "himoya", "qarshi kurash", "axborotni saralash" funksiyalari ham daxldorlik fazilatining shakllanganlik darajasiga bevosita bog'liq. Chunki daxldor inson har qanday ichki va tashqi tahdidlar hamda ularning oqibatlaridan ogoh bo'ladi, bu esa ularning aynan shu yot, buzg'unchi va vayronkor tahdidlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitetining shakllanganligidan ham darak beradi.

Mafkuraviy immunitetga ega bo'lgan shaxsning esa ma'naviy muhofazasi yanada mustahkamlanib boradi. Sababi unga ma'naviy tahdid va mafkuraviy xurujlar zarar yetkaza olmaydi. Shu bilan birga u ana shu xurujlarga qarshi kurashishni yaxshi o'rganib oladi. Loqayd, befarq, e'tiborsiz bo'lmaydi. Shu sababli fuqarolik jamiyatini barpo qilishda daxldorlik masalasiga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

davlatlar+butun yer yuzi kabilarga o'z daxldorligini anglay boshlaydi.



1-rasm. Daxldorlikni namoyon bo'lish shakllari



2-rasm. O'smirlarning islohotlarga nisbatan daxldorlik fazilati ko'lamining namoyon bo'lish darajalari

Har qanday holatda ham daxldorlikning dastlabki bosqichi keyingi bosqichga o'z ta'sirini o'tkazadi, unga zamin vazifasini o'taydi, qo'llab-quvvatlaydi.

Har bir oilaning tinchliligi bu – yurtning tinchliligidir. Demak, oddiygina ommaviy masala bo'lib ko'ringan daxldorlik ham butun boshli yurt tinchliligiga qilingan daxldorlikka aylanmoqda.

Ayni vaqtda, yoshlarimizda daxldorlik fazilatini shakllantirish, ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash uchun kurash ketayotgan bir paytda, ularga to'siq bo'luvchi qator mafkuralar mavjud va ular o'z g'oyalarini targ'ib qilayotganini, yoshlarimizni o'z g'oyalariga daxldor qilishga urinayotganini inobatga olish ham eng muhim ijtimoiy-psixologik masaladir.

Bizning vazifamiz ana shu vayronkor mafkuralarga qarshi immunitetni uyg'otish, shakllantirish asosida jamiyat ishiga, millat taqdiriga, Vatan istiqboli uchun daxldor, aloqador, javobgar shaxslarni shakllantirishdan iborat. Buning uchun mafkuraviy immunitetning vazifasini aniqlab olmog'imiz lozim. Ana shu yo'nalishlarda mafkuraviy immunitetning vazifalari, ya'ni insonni ma'naviy-ruhiy mudroqlikdan uyg'otish, har qanday voqelikka munosabat bildira olish, unga ta'sir ko'rsatish, jamiyat va umummilliy taraqqiyot uchun javobgarlik hissini, daxldorlik tuyg'usini namoyon etish orqali o'zini o'zi umummilliy manfaat yo'lida yo'naltira olish, safarbar eta bilish fazilatlarini yorqin namoyon qilishni taqozo etadi.

Autotrening jarayonida nutq orqali o'z-o'ziga ta'sir o'tkazishga yo'naltirilgan anglangan tarzda tanada ilqlikni his etish, mushaklar tarangligini pasaytirish organizmning turli qismlari faoliyatiga ta'sir [5]:

Autotrening insonning emotsional tanglik holatlarini keltirib chaqaruvchi faoliyat turlari bilan shug'ullanishi jarayonida kelib chiqish extimoli yuqoriligini ta'kidlanadi. Shu jumladan, bunday faoliyat turlariga pedagogik faoliyat ham kiritiladi. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish pedagogning turli stressogen vaziyatlarda (ota-onalar bilan munosabatlarida, o'smir va bolalar bilan munosabatlarda) yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarda emotsional va irodaviy shaxs xususiyatlarini namoyon bo'lishini, o'z o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllanganligini talab qiladi. Bunday vaziyatlarda shaxsning kayfiyatini ko'tarish, psixologik salomatligini, organizmning ish faoliyatini samaradorligini saqlab qolishda autotrening mashqlaridan foydalanish mumkin.

Yunon faylasufi Sitseron "Insonning eng katta g'alabasi uning o'zini ustidan qilgan g'alabasidir" deb bejiz ta'kidlamagan. Autogen mashqlar aynan shu g'alabaga erishishning muhim usuli bo'lib, insondagi yashirin imkoniyatlarni quvvatni namoyon bo'lishiga yordam beradi.

**Stress holatini engishning yana bir usullaridan biri koping strategiyalar usulidir [6]:**

1. Koping strategiyalar bu stressli vaziyatlardan chiqish strategiyalari bo'lib A.Maslou tomonidan taklif qilingan bo'lib, u bunday strategiyalarni belgilaydigan atamani-koping (inglizcha cope - english.) taklif qildi

Koping strategiyalarining R.Lazarus va S.Folkman tadqiqotlarida koping strategiyasi ijtimoiy muhit qiyinchiliklarini yengish modellari deb hisoblashgan. 1966 yilda R.Lazarus o'zining "Psixologik stress va uni engish jarayoni" ("Psixologik stress va unga qarshi kurashish jarayoni") kitobida stressni va boshqa inqirozli vaziyatlarni bartaraf etishning strategiyalarini tasvirlab berdi. R.Lazarus va S.Folkman stressni engish xatti-harakatlarini quyidagicha ta'rifladilar: "Inson imkoniyatlaridan ortiqcha yoki xaddan tashqari yuqori deb baxolanadigan doimiy tashqi va / yoki ichki talablarga moslashishga qaratilgan doimiy ravishda o'zgaruvchan kognitiv va xulq-atvor ko'rinishlari". Olimlarning ta'kidlashicha, koping strategiya jarayoni doimo o'zgarib turadi, chunki shaxs va atrof-muxitning o'zaro ta'siri o'zgaruvchandir. Shaxs vaziyatni baholaydi va o'z imkoniyatlarining subyektiv bahosini u bilan taqqoslaydi.

Ushbu yondashuv shaxs imkoniyatlarini taqsimlashni nazarda tutadi; bu turli xil vaziyatlarda odamlar psixologik muvozanatni saqlashga muvaffaq bo'lishlari bilan bog'liq

Koping strategiyalarda – stressni yengish psixologik metodlari, bo'lib ular ikki guruhga ajratiladi [4]:

a) emotsional koping - stressli vaziyatlarga nisbatan emotsional reaksiyamizni nazorat qilish imkonini beradi; muammo kopingi - stressli vaziyatda muammoni echishga. Muammoli vaziyatda inson muammoning nima uchun kelib chiqqanligiga emas, muammoga qanday tezkor va to'g'ri yechim topish kerakligiga ko'proq urg'u berishi lozim

2. Stressni kamaytirish metodi – ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va o'ziga nisbatan shaxsiy nazoratni kuchaytirish.

3. Stressga qarshi kurashish – kundalik faoliyatni reja asosida tashkil qilish va unga qat'iy amal qilish bilan bog'liq.

4. Stress menejment - stressni boshqarish metodi. Stressogen vaziyatda stress insonni emas, inson stressni boshqarishga intilishi lozim. Bunda stresslarni "Model-lashtirish" lozim, ya'ni – faoliyatni boshlashdan oldin stress holatini keltirishi ehtimol qilingan vaziyatlar bilan avvaldan tanishib chiqish bilan bog'liq.

Stressli vaziyatlarni yengib o'tishning turli usul va vositalari qo'llash jarayonida quyidagi tamoyillarga amal qilish tavsiya etiladi

Turli mazmundagi stressli vaziyatlarda hayotiy tajribadagi yoqimli his-tuyg'ular va tajribalar (dam olish, yoqimli voqea, shaxsiy yutuqlar) bilan bog'liq taasurotlar haqida o'ylash zarur

- Stressni keltirib chiqargan hodisaning o'zgartirish imkoniga ega bo'lmagan vaziyatda unga nisbatan subyektiv ahamiyatini munosabatini o'zgartirish

- Faol xatti-harakatlar stressni keltirib chiqaradigan kuchli his-tuyg'ularni va his-tuyg'ularni ahamiyatlilik darajasini pasaytiradi

- Dam olish – tabiat qo'ynida chiqish, uy hayvonlari parvarishi stressli vaziyatlarni og'rirlilik darajasini pasaytiradi, umumiy kuchlanishni va miya faoliyati to'liqlarining chastotasini oshiradi.

Ijobiy fikrlash - mehribonlik, sevgi, quvonch bilan bog'liq ijobiy his – tuyg'ular-sog'liq, boshqalarga keraklilik hissi stressli vaziyatlarni bartaraf etishda katta ahamiyat kasb etadi.

#### **Adabiyotlar**

1. Гринберг Дж. Управление стрессом / Дж. Гринберг. – СПб. [и др.]: «Питер: «Питер принт», 2002. –С. 495.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. –T.: 2002, 63-b.
3. Исмоилова Н.З. Талабаларда стрессга чиламлиликининг психологик тахлили. // «Замонавий таълим». 2016. №8.
4. Одинцова М. А. Психология стресса : учебник и практикум для вузов / М.А.Одинцова, Н.Л.Захарова. –Москва: «Юрайт», 2024. –С. 291.

5. Селье Г. Когда стресс не приносит горя. // Неизвестные силы в нас / Г.Селье. – М.: 1992. – С. 103–158.

6. Щербатых Ю.В. Психология стресса и методы коррекции: Учеб. пособие / Ю.В. Щербатых. – СПб. [и др.]: –Питер, «Питер принт», 2006. –С. 255.

7. Шульц Л. Стресс. –Мариуполь: 2008. –С. 82.

**REZYUME.** Maqolada stressli kasalliklarni bartaraf etishning ijtimoiy-psixologik usullari va vositalarining tasnifi keltirilgan, stress buzilishlari bizning hayotimizning bir qismidir va insonning turli vaziyatlarda o'zini tuta bilish qobiliyati unga sotsializatsiya jarayonida psixologik barqarorlikni saqlashga imkon beradi.

**РЕЗЮМЕ.** В статье приведена классификация социально-психологических методов и средств устранения стрессовых расстройств. Стрессовые расстройства - это часть нашей жизни, и способность человека контролировать себя в различных ситуациях позволяет сохранять психологическое рухий в процессе социализации.

**SUMMARY.** The article presents a classification of socio-psychological methods and means of eliminating stress disorders, stress disorders are a part of our life, and the ability of a person to control himself in different situations allows him to maintain psychological stability in the process of socialization.

## TALABALARDA XULQ OG'ISHINI DIAGNOSTIKA QILISH VA KORREKTSIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Z.Turumbetova** – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

*Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti*

**Tayanch so'zlar:** axloq, og'ishgan xulq, anomal, prevensiya, intervensiya.

**Ключевые слова:** этика, девиантное поведение, аномальное, превенция, интервенция.

**Key words:** ethics, deviant behavior, abnormal, prevention, intervention.

**Kirish.** Mustaqil O'zbekistonning kelajagi har tomonlama yetuk, intellektual salohiyati baland avlodni tarbiyalash bilan uzviy bog'liq jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada O'zbekiston uchun ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish asosiy maqsad qilib olindi. Ana shunday dolzarb vazifani amalga oshirishda inson psixologiyasi, uning psixologik xususiyatlari va xulq-atvorini o'rganish va undan barkamol avlodni tarbiyalash maqsadida foydalanish kabi masalalar alohida ahamiyat kasb etishi haqida fikr bildiradi.

Psixologiya inson ruhiyatini organuvchi nazariy fan bo'lib qolmay, balki hozirgi kunda turli xil sohalarida keng qo'llanilishi mumkin bo'lgan amaliy fan hamdir. Insonni har tomonlama o'rganish, y'ani odamlar o'rtasidagi individual farqlarni aniqlash ta'lim-tarbiya va mehnat faoliyati samaradorligini belgilaydi. Inson axloqi to'g'risidagi ilmiy tasavvurlar dastlab XX asrning boshlarida bixevioristlar tomonidan psixologiya fanining predmeti deb talqin qilingan vaqtdan boshlab, ayniqsa, shiddatli rivojlanish tusini oldi [2]. «Axloq» tushunchasining barcha ko'rib chiqilgan tavsifnomalari uning shaxsning faoliyat jarayonlaridagi turli ko'rinishlarida ham to'la ma'noda farqlana oladi. Biz pedagogika va psixologiya mutaxasislari tomonidan amalga oshiriladigan jarayonlar asosan «Og'ishgan xulq» tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan jarayondir. Biz uchun muhim bo'lgan «shaxsning og'ishgan xulqi» tushunchasini ta'riflashga o'tishdan oldin biz psixologik va pedagogik jarayonlarni ham amaliy faoliyatda o'rganishimiz lozim. Ayrim mutaxasislar tomonidan va pedagogik, psixologik fanlarda quyudagi ko'rinishlari tavsiflangan:

**Adabiyotlar sharhi.** Mutaxasislarmizdan J.Godfruaning e'tirozi har bir aytilayotgan fikr o'zini mantiqiy va asosli fikrlariga dalillariga ega bo'lishi kerak yani biz «Qanday axloqni me'yoriy deb hisoblash mumkin» degan savol inson axloqini, shu jumladan, og'ishgan xulqni tushuntirish uchun markaziy asos sifatida e'tirof etdi. Ammo taniqli mutaxasislarimiz ham «Anomal» axloq tushunchasining ma'nosiga qat'iy ta'rif berish murakkab, ular orasidagi chegara esa o'ta noaniq haqiqatlarga asoslanadi degan xulosa kelishdi [3].

Shunga qaramay, bugungi kunda ilmda va kundalik turmush faoliyatimizda ushbu tushunchalar birgalikda foydalaniladi. Bunda normal axloq atamasi ostida, qoidadagidek, og'riqli va taqiqlangan xatti xarakatlar bilan bog'liq bo'lmagan, shu bilan birgalikda, ko'pchilik odamlar uchun xarakterli bo'lgan me'yoriy-ma'qullangan axloq tushuniladi.

Shu o'rinda biz avvallo meyor tushunchasiga o'z tarifimizni keltirib o'tsak, mavjud jamiyatdagi vaziyat bizni

me'yor tushuncha va tarifini tavsifini keltirishimizda bir muncha qarshiliklarga uchraymiz. «Me'yoriy» deb qat'iy mazmunda ushbu soxa yoki bir fanda ayni vaqtda qabul qilingan me'yor va mezonlarga muvofiq keluvchi barcha narsa hisoblanadi. Me'yorlarni qattiy belgilash va olish usullarini ko'pincha mezon deb ataymiz. Tushunchalarni izohlashning turli ko'rinishlarini muhim belgilarini ajratib o'tadi [1]. Shaxsning og'ishgan xulqining shunday maxsus xususiyatlarini ajratish maqsadga muvofiqki, u bizga bu xulqni boshqa fenomenlardan farqlashda, shuningdek, aniq bir odamda uning mavjudligi hamda dinamikasini aniqlash zarurati sifatida yordam berishi kerak.

Bola shaxsidagi deviant va devyatsiya tushunchalari axloqni me'yoriy ortiq yoki me'yordan ko'p og'ishgan axloqiy xususiyat sifatida aniqlaganda quyudagilarni esda saqlash kerakki, har bir ijtimoiy me'yorlar o'zgarishi va takrorlanmas bolishini. Bu, o'z navbatida, biz pedagog va psixologlardan boy tajribani talab qiladi. Shubhasiz, deviant axloq - bu har qanday me'yorlarni emas, balki ushbu jamiyat uchun va ayni shu vaqtda birmuncha muqim bo'lgan ijtimoiy me'yorlarnigina buzilishi bilan tavsiflanadigan hodisadir.

Shaxsning va deviant hatti xarakati va axloqiy ko'rinishlari, uning namoyon bo'lishidagi muhim jarayonlarni boshqa bir odamlar tomonidan ijobiy yoki salbiy baholanishini ko'rishimiz mumkin. Salbiy yoki ijobiy baho jamoatchilikning turli muhokamalari yoki ijtimoiy cheklovlariga, shu jumladan, jinoiy yoki aksincha ma'muriy jazo shakli ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin. Dastavval, sanktsiyalar istalmagan axloqning oldini olish vazifasini bajaradi.

Tarbiyasi «qiyin»lik va u bilan bog'liq deviant xulqining vujudga kelish jarayoni: madaniy (M.Mid, E.Fromm), iqtisodiy (G.Kayzer, B.Xolist, G.Shnyder), ijtimoiy (S.D.Arzumanyan, N.P.Dubinina, V.N.Kudryavtsev), salomatlik (M.I.Buyanov, P.B.Gannushkin, A.I.Zaharov, I.I.Kovalev, Z.F.Kamaletdinova, A.E.Lichko), ijtimoiy-psixologik (M.A.Alemaskin, S.A.Belicheva, L.I.Bojovich, G.G.Bochkareva, A.I.Dolgova, YA.L.Kolominskiy, V.M.Karimova, M.N.Ovchinnikova, E.G'.G'oziyev), pedagogik (A.S.Belkin, N.N.Vertsinskaya, L.S.Vigotskiy) kabi keng qamrovli tasirlar oqibati ekanligi aniqlangan. Shuningdek, N.Komilovani «Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi» nomli o'quv qo'llanmasida bolalarning og'ishgan xulqi psixologiyasining dolzarb masalalari: ushbu ko'rinishning fenomenologiyasi, turlarning tasnifi, de-

terminasiya va ishlash mexanizmlari, ijtimoiy-psixologik prevensiya va intervensiyaning usullari ko'rib chiqilgan [4].

Psixologik yondoshuv shaxsning og'ishgan xulqidagi alohida ko'rinishlarini ijtimoiy-psixologik tafovutini ajratishga asoslangan. Psixologik tasniflar quyidagi mezonlar asosida quriladi:

- buzilgan me'yor turi;
- axloq va uning motivatsiyada psixologik maqsad;
- ushbu axloq oqibati va u keltirgan zarar;
- axloqning shaxsiy-uslubiy tavsifnomasi.

Shuni ta'kidlash zarurki, "og'ishgan xulq" atamasini 5 yoshdan kichik bo'lmagan bolalarga nisbatan qo'llash mumkin, qat'iy ma'noda esa 9 yoshdan keyin qo'llashimiz mumkin. 5 yoshdan oldin bolaning ongida ijtimoiy me'yorlar haqidagi zaruriy tasavvurlar bo'lmaydi, o'z-o'zini nazorat qilish esa kattalar yordamida amalga oshiriladi. Faqat 9-10 yoshidagina bolada ijtimoiy me'yorlarga mustaqil rioya qilish qobiliyatining mavjudligi haqida gapirish mumkin. Agar 5 yoshdan kichik bo'lgan bolalarda axloqiy yosh me'yoridan ahamiyatli tarzda og'sa, bunda uni yetilmaganlikning, asabiy reaksiya yoki psixik rivojlanish buzilishining bir ko'rinishi sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Destruktiv xulq 2 ta asosiy turlarda namoyon bo'ladi:

1. Delinkvent tur - jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy huquqiy me'yorlarga qarama qarshi bo'lgan xatti - harakatlarga xulqning yo'nalganligidir.

2. Deviant tur - jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlarga qarama - qarshi xulqiy ko'rinishlarni namoyon etish.

Destruktiv xulqning barcha ko'rinishlarida insonning ma'lum bir himoya reaksiyalari sifatida yuzaga kelsa-da biroq nerv sistemasida buzilishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Destruktiv xulq bolalikdagi salbiy emotsional kechinmalar, ota-onaning bolaga nisbatan emotsional sovuqqonligi natijasida zarur vaqtlarda ulardan yetarli darajada mehr-muhabbatga ega bo'lmaganligi, nasliy omillar bo'lishi ham mumkin. Z.Freyd inson xulqida 2 ta asosiy instinkt borligini ta'kidlaydi: Eros - bu hayot instinktidir. Undagi quvvat, hayotni saqlash, qayta tiklashga yo'naltiradi. Tanatos - o'lim instinktidir. Undagi quvvat hayotni vayron qilish va to'xtatishga yo'naltiradi. Destruktiv xulq barcha insonlar uchun xosdir. Ayrim insonlarda bu xulq shunchalik kuchliki, ularning jamiyatdagi o'rni va xulqini belgilaydi. Destruktiv xulq ko'rinishlarini namoyon bo'lishida negativ ustanovkalar -shaxsning atrofdigilarning aksariga nisbatan salbiy munosabatlari natijasida shakllanadi. S.P.Ivanov va V.V.Boyko tadqiqotlarida destruktiv ustanovkalarining quyidagi turlari ajratiladi:

1. Atrofdagilarga nisbatan fikrlari va xatti-harakatlarida yashirin beshavqatlilik;

2. Atrofdagilarga nisbatan ochiq beshavqatlilik;

3. Insonlar haqida asoslangan negativ fikrlar. Ma'lum bir ijtimoiy vaziyatlarda yuzaga kelgan holatlar asosida unga sababchi bo'lgan insonlar to'g'risida salbiy fikrga ega bo'lish ham shunday;

4. Negativ faktorlar yuzasidan o'zining sheriklari haqida asoslanmagan umumlashtirishlar qilish;

5. Atrofdagilar bilan munosabtlar jarayonida negativ tajribaga ega bo'lish Yu.A.Kleyberg va A.Ellislar destruktiv xulq ko'rinishlarini shakllanishida "irratsional ustanovkalar" tushunchasini kiritganlar.

**Muhokama.** Lombrosning fikriga ko'ra, biologik xususiyatlar va birinchi navbatda tashqi morfologik xususiyatlar (bosh suyagi shakli) haqidagi o'z xulosalariga asoslanib, jinoyatchilarga xos bo'lgan tug'ma xususiyatlarining natijasi, jinoyatni muqarrar deb hisobladi va jazo ularni tuzatolmasligini aytdi. Lombroso jinoyatchilikning kriminologiyasida eng ko'p talab qilinadigan formulani ishlab chiqdi. Uning formulasida antropologiya institutining asoschisi mahkumlarning antropologik xususiyatlarining o'rtacha hajmini spirtli ichimliklar

iste'mol qilgan voyaga yetmaganlar soni bilan bog'lashni taklif qiladi. Genetika rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan qiziqish sezilarli darajada oshdi, tajovuz va jinoyatlarning xromosoma gipotezasi ishlab chiqildi. Agressiyaning biologik nazariyalarining yana bir yo'nalishi jinoiy va tajovuzkor xatti-harakatlarga gormonal ta'sirlarning rolini o'rganish bilan bog'liq [5]. 1924-yilda amerikalik olim M.Schlapp jinoyatchilarning endokrin tizimini o'rganib chiqdi, u tekshirgan mahbuslarning uchdan bir qismi bilan bog'liq hissiy beqarorlikdan azob chekayotganini aniqladi.

Biz shaxs og'ishgan xulqining turli ko'rinishlari ikkita - o'ziga yoki boshqalarga qarama-qarshi yo'nalishli "destruktiv axloq"ning yagona o'qida joylashganini ko'ramiz. Deviant xulqli o'smirlar va voyaga yetmagan huquq buzarlilar bilan yakka tartibdagi korreksiya ishlarini quyidagi uslublarda olib borish tavsiya etiladi:

1. "Psixoterapevtik oyna" vositasi - o'zini tashqaridan ko'rishga imkoniyat yaratib, shartli ravishda o'zini tushunishni rivojlantirish;

2. "Muqobil yo'llar" vositasi - noto'g'ri axloq-odob me'yorlarini namoyon qilgan o'smirlarga to'g'ri yo'l ko'rsatish;

3. "O'rniga-o'rin" vositasi - xarakterida, fe'l-atvoridagi bo'shanglik, iroda va kuchli ruhiy quvvat kabilar bilan o'rniga o'rin almashtirish, to'ldirish taklif qilinadi;

4. "Ijobiy ijtimoiy faoliyatni singdirish" vositasi - ruhshunosning salbiy dunyo qarashni o'zgartirib, ijobiy fikrlashga ta'sir qilishi;

5. "Ma'naviy immunitet hosil qilish" usuli - namu-naviy, ideal axloq-me'yorlariga ega bo'lishni maktabdan, hayotdagi misollardan keltirish, ba'zi insonlarning salbiy ta'siriga qarshi immunitet hosil qilish;

6. "Ko'rsatmalar, qoidalar" usuli - oilaviy ruhiy terapiya vositasida oila a'zolarining qilishi kerak bo'lgan ishlari qonun-qoidasini belgilaydi.

Shuningdek, deviant xulqning ayanchli oqibatlari haqida gapirish ham darkor. Deviant xulqli o'smirlar o'z qilmishlarining yomon oqibatlari haqida iqror bo'lishga undash ham profilaktik ishlarning bir qismidir. Agar bunga o'smir rozi bo'lmasa, deviant xulqning ayanchli oqibatlari ta'sirini atrofdagi odamlar misolida tahlil qilish mumkin. Maslahat berayotgan ruhshunos o'z mijozini gunoh, uyat, alam, og'riq, dard, nafrat, g'azab, ojizlik, azoblanish tuyg'ularida ochiq iqror bo'lishga o'rgatadi.

O'smirlar kelajakni deviant xulq bilan va u siz qarshi olish holatlarini tasvirlashga chaqirish yaxshi natija beradigan ruhiy vositadir. Masalan, ruhshunos mijozga uning kelajakdagi hayotini tasvirlashda spirtli ichimliklarni ayanchli oqibatlari ko'rish va faraz qilishga chorlashi kerak. Ruhshunos (psixolog) yoki psixoterapevt nafaqat fikrlashga, balki o'z his-hayajonini ifoda qilib, olishga ham o'rgatadi. O'z kelajagini tasvirlash uchun kerakli iboralarni topa bilish foyda beradi. Agarda, o'smir o'z deviant xulqi siz kelajagini tasvirlaganda, ijobiy his-tuyg'uni namoyon qilsa, demak, shunday xulqqa erishish chora-tadbirlari dasturini tuzish maqsadiga muvofiq bo'ladi. O'zaro tushunishga erishilsa, kelishuv asosida psixoterapevtik muolajalarni olib boorish o'smirda butun muolaja davrida maqsadga intilib turishni ta'minlaydi. Kelishuv og'zaki yoki yozma kontrakt tuzilib, unda faoliyatning maqsadi, usuli, sharti, muddati, shuningdek, o'zaro manfaatli nuqtalari belgilanadi.

Taraflar barchasi kontrakt shartini bajarishga mas'ul. Kontrakt shartlari buzilsa, nima bo'lishni taraflar kelishi bolgan bo'lishi kerak. Mijozning muammosini ishlab chiqish asosiy ustuvor vazifadir. Mijoz maslahat beruvchi yordamida quyidagi savollarga javob berishga harakat qilishi kerak. "Uning yomon xulq-atvorni namoyish qilishdan maqsadi nima?" "Bundan qanday qoniqish hosil qiladi?" "Deviant xulqdan ozod bo'lib, u nimani yo'qotadi?". Bu savollarga javob berishga o'smir qiyinalishi

mumkin. Agar o'smir ochiq muloqotga, ichidagi his-tuyg'ularni namoyish qilishga qarshilik qilsa, o'zini o'rganishning boshqa usullardan foydalanish mumkin. Masalan, bu "men va giyohvandlik", "giyohvand moddalar-siz hayot" mavzudagi rasmlar bo'lishi mumkin. Agar shaxs qat'iy turib muammolarni inkor etib, yaxshi tomonga o'zgarishni istamasa, faol bo'lganlarga murojaat qilinadi. Uning oilasi va referent guruhi (unga ta'sir qiluvchi odamlar) bunda hamkor bo'lishlari kerak. Ko'pchilik bo'lib, unga ta'sir qilish o'z samarasini beradi. Buning uchun deviant xulqli o'smirlarga qadrli bo'lgan insonlar yig'iladi. Yig'ilganlar suhbatga alohida tayyorgarlik ko'rishadi.

Bunda turli me'yordan chekinishlarni yaqqol namoyon qiluvchi hayotiy misollar keltiriladi. Ularning fojiaiy yakuni gapirib beriladi. O'smir bilan ishlashdan avval unga ta'sir etuvchi guruh repetitsiya o'tkazi boladi. Bu jarayonni shunday tashkillashtirish lozimki, barcha deviant xulqli o'smirlar uchun obro'ga ega guruh vakillari ta'sir kuchiga ega bo'lgan gaplarni ishlatib, o'smirning o'zini tanqid qilamolda, qayta tarbiyalasinlar. Keyinchalik o'smirlarga tuzalish imkoniyatini beruvchi istalgan vositani tanlash imkoniyatini berish kerak. Ba'zi hollarda, nechog'liq og'ir

#### Adabiyotlar

1. Umarov B.M. Muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. Uslubiy qo'llanma. –T.: 1998, 46-b.
2. Umarov B.M. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashda psixologik xizmatning o'rni. Uslubiy qo'llanma. –T.: 2008, 86-b.
3. Porter M. Mejdunarodnaya konkurensiya. –M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 1993.
4. Migranyan A.A. Teoreticheskie aspekti formirovaniya konkurentosposobnix klasterov.
5. Kamolova A.O. Pedagogik kasbi boshqa hamma kasblarning paydevoridir. Science and Education, 4(5), 2023. 988-992-6.

**REZYUME.** Maqolada shaxsning og'ishgan xulqi – bu umumqabul qilingan yoki rasman o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlarga mos tushmaydigan axloqiy sifatleri va uning turli ko'rinishlarida namoyon bo'lishi yoritilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье описывается девиантное поведение человека - моральные качества, не соответствующие общепринятым или официально установленным социальным нормам и его проявление в различных формах.

**SUMMARY.** The article describes deviant human behavior - moral qualities that do not correspond to generally accepted or officially established social norms and its manifestation in various forms.

### O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH OMILLARI, MEXANIZMLARI VA JIHATLARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK TAHLILI

**N.K.Yuldasheva** – katta o'qituvchi  
Andijon davlat universiteti

**Tayanch so'zlar** kasb, qiziqish, layoqat, moyillik, qobiliyat, metod, o'quvchilar.

**Ключевые слова:** профессия, интерес, способности, склонности, способности, метод, ученики.

**Key words:** are profession, interest, ability, inclination, ability, method, students.

Psixologiya fanida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish sohasida muayyan ilmiy izlanishlar olib borilgan, o'ziga xos yondashishlar amalga oshirilgan.

O'rganilayotgan muammo bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, turli olimlar tomonidan o'quvchilarning kasbga yo'naltirish jarayonini, jumladan, ularni kasbiy qobiliyat, moyillik qiziqishlarini aniqlash orqali ularni mehanizmlarini ishlab chiqishni o'rganishga katta qiziqish bo'lishiga qaramasdan, bu fenomen o'z mazmuniga ko'ra murakkab va ko'p qirrali bo'lib, turlicha talqin etiladi. Bundan ko'rinadiki, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish masalalari hozirgi kun uchun yangilik bo'lmay, balki azaliy muammo sifatida o'rganib kelinmoqda.

A.P.Seyteshev o'z ilmiy tadqiqotlarida subyektiv omillar qatoriga bilishga va kasbga qiziqish, moyilliklarni, muayyan bir kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonishning psixologik mexanizmi sifatida esa turli qobiliyatlarni kiritgan [1].


Tadqiqot ishimizda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish omillarini tekshirish uchun sinaluvchilarga mualliflik ishlanmamiz sanalgan "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq etish so'rovnoma" bilan murojaat qildik.

Sinaluvchilarning tahlillarga ko'ra, 128 nafar 7-sinf o'quvchilari tadqiqotga jalb qilingan (2.1-rasmga qarang).

bo'lsa ham o'z holiga qo'yish usuli ham natija berishi mumkin.


Usulning ma'nosi – o'smirning xulqiga, xulq-atvor oqibatlariga o'zini mas'ul va javobgar qilish.

**Xulosa.** Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, deviant xulqli o'smirlar bilan ishlashda ularni tuzatish yani mutaxassis – ruhshunos o'z mijoziga kerakli bo'lgan usul va vositalarini taklif qiladiki, bu vositalar ijobiy o'zgarishlarini olib kelsin. Albatta o'smir bilan ruhshunos hamkorlikda faoliyat olib borishi uchun oradagi munosabat halollikka, javobgarlikka, mas'uliyatlikka, bir-birini qo'llab-quvvatlash, hurmat qilishga asoslangan bo'lishi lozim. "Huquq buzarlikka moyil o'smirlarning deviant xatti-harakatini pedagogik profilaktika qilishda muammo doirasini minimallashtirish" mavzusi bo'yicha o'tkazilayotgan ilmiy tadqiqot ishining samaradorligini oshirish maqsadida bir qator olimlar tomonidan ishlab chiqilgan metodikalar asosida savolnomalar, testlar, anketa savollari ishlab chiqilib, o'smirlarda shakllanib ulgurilgan salbiy, deviant xatti-harakatni keltirib chiqaruvchi omillar va sabablarini aniqlash, ota-onalar, maktab rahbarlari, o'qituvchilar, psixologlarga amaliy yordam sifatida quyidagi yo'nalishlarda tadqiqot tajribalarini olib borishni tavsiya qilamiz.




2.1-rasm. 7-sinfda o'qiyotgan o'quvchilarining ijtimoiy mavqe bo'yicha ma'lumot (n=128)

O'quvchilarining ijtimoiy mavqiyiga (IPS ning 1.6-savoli) ko'ra, ishtirokchilarning 38 nafari ishchi oilada hisoblasa, 49 nafari esa xizmatchi oila vakili deb bilishadi. Shuningdek, ziyoli oilada yashayotgan 25 nafar respondent tashkil etdi, aralash mavqeli ishtirokchilar 16 nafarni tashkil etishgan. O'quvchilarini ijtimoiy mavqeini aniqlashdan asosiy maqsad, xizmatchi, ishchi oilada tarbiyalanayotgan ota-onalari kasb-hunarga yo'naltirishga alohida e'tibor qaratiladi.



2.2-jadval. 2.2-rasm. Bo'sh vaqtingizda nimalar bilan shug'ullanishni xush ko'rasiz bo'yicha ma'lumot (n=128)

IPSning 2-savoli natijalariga ko'ra, so'rovnoma qatnashgan respondentlarimiz orasidan 38,0 % sport bilan shug'ullanish yoki erkin tabiatda sayr qilish istagi tashkil etdi. 27,3 % esa rassomlik yoki musiqa asboblari ishlatishga qiziqishi aniqlandi. 23,1 % ishtirokchilar fantastik va ilmiy-ommabop kitoblarni o'qish bilan shug'ullanish aniqlandi. Rasmiy web saytlardan foydalanish 33,4 foiz ekanligi aniqlandi. Bu natijalardan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar,




IPS ning 3-savoli "Sizga qaysi fanlar yoqadi?" – degan savolga respondentlar so'rovnoma berilgan 14 ta holatda ular o'z variantlarini taqdim etishgan. Psixologik tadqiqotlardan ma'lumki, kasbiy qiziqishlari bo'yicha berilgan savolga javob berishda o'quvchilar faolroq bo'lishdi. Shu bois respondentlarimizning 51,34 foizi – texnika va internet faniga qiziqishi yoshlarimiz faolligi uchun yuqori ko'rsatkich aniqlandi; 41,68 foizi biologiya va kimyo faniga qiziqishini; 30,49 foizi matematika va fizika fanlariga qiziqadi, rassomchilik va musiqa nisbatan individual qiziqish ko'rsatkichi 18,23 foizni tashkil qilganini ko'rishimiz mumkin. Chunki, bu fanlarga qiziqish individual qobiliyat asosida rivojlanishi uchun bu fanga nisbatan qiziqish past ko'rsatkich berdi. (2.3-rasm).

"Sizni qanday turdagi faoliyat qiziqitiradi?" – degan savolga (IPS ning 4-savoli) o'quvchilarni kelajak kasblariga nisbatan turli faoliyat turlariga qiziqishi bir-biridan tubdan tafovutlanishini ko'rsatdi. Aniqlanilishicha, 71,21 foiz respondent "odamlarga yordam berish va maslahat berish" turiga qiziqish yuqori ekanligini ko'rish mumkin, 56,12 foiz sinaluvchi uchun "tajribalar o'tkazish va izlanishlar olib borish" bilan bog'liq qiziqish turlariga moyilligi borligi aniqlandi. "Muammolarni hal qilish va loyihalar ishlab chiqish" turi bo'yicha 36,1 foiz qiziqishlar

faol ekanligini aniqlandi. Ana bir turi ya'ni, "she'r yoki hikoyalar yozish, rasmlar chizish" turi bo'yicha 41,34 foizni tashkil qildi.

(2.4-jadval).



2.4-jadval. 2.4-rasm. Respondentlarning sizni qanday turdagi faoliyat qiziqitiradi degan savol bo'yicha ko'rsatkichlari (n=128)

Tadqiqotimizda ishtirok etgan o'quvchilarning fikricha, kelajakda kasb-hunar tanlashiga sabab bo'lgan omillar reytingi quyidagicha: 27 foiz respondent kasb tanlashiga «kasbiy moyillik» muhim degan fikrni bildirishdi. 23 foiz o'quvchilar «qobiliyat»lari sabab, kasb tanlashga jazm etishgan. 30 foizi «kasbiy qiziqishlari»ni hisobga olib kasb tanlashini ma'lum qilishdi. 25 foiz o'quvchilar esa "Ota-onani roli" ya'ni kelajakda ota-onasini kasbini egallashini ichki omil sifatida e'tirof etishadi. 11 foiz sinaluvchida «xulq-atvoridagi xususiyatlar» o'z imkoniyatlarini va o'zini ro'yobga chiqarishi sabab bo'lib xizmat qilgan. Bunday ustuvorlikdagi ichki undalmalarning tanlanilishi, odatda, respondent o'quvchilarning o'quv faoliyati muvaffaqiyatiga bergan bahosiga, kasb tanlashida uchraydigan muammolarni yechishdagi shaxsiy imkoniyatiga, qiyinchiliklarni yengishdagi irodaviy sifatiga, qolaversa kasbni to'g'ri tanlash qobiliyatiga ham bog'liqdir (2.4-jadval).

Aynan shu ichki imkoniyatlarga tayanib kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirish, o'z navbatida, o'quvchilarga kelajakdagi kasbiy faoliyat turining o'ziga va tevarakat-rof dagilarga naf keltirishi, kasbiy kamol topishiga ko'zi etishi o'ziga xos turtki bo'luvchi omil vazifasini bajargan.

Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan qaraganda bu omillarning konkret shart-sharoitlar bilan identiv namoyon bo'lishi o'quvchi yoshlardagi ijtimoiy xulq va muloqot jarayonida shakllanadigan shaxsiy-kasbiy qiziqish va ichki moyillarning ustuvor omil ekanligi bilan izohlanadi. Mehnat bozoridagi o'zgaruvchan muhit va undagi nobarqarorlik yoshlarimizni to'g'ri kasb-hunar egallash yo'lida o'quvchilardan puhta reja asosida faoliyat yuritishlikni taqozo etadi. Shu jihatdan olib qaraganda kasbiy kamolotga erishish shaxsiy-kasbiy sifatlar orqali ham belgilanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, respondentlarda shaxsiy kasbiy qiziqishni oshirish va kasbiy moyillik zarurati bilan bog'liq ustuvor motiv, bir qancha ijtimoiy sabablar, ota-ona, o'qituvchi, moddiy, ma'naviy omillar o'quvchilarni kasbga yo'nalganlikni taminlashga sabab bo'ladi deb xulosaga kelishimiz mumkin.

#### Adabiyotlar

1. Сейтешев А.П. Пути профессионального становления учащейся молодежи. –М.: «Высшая школа», 1988.
2. Abramova G.S., Stepanovich V.A. Деловые игры: теория и организация. –Ekaterinburg: «Delovaya kniga», 1999. –С. 192.
3. Avdeev V.V. Психотехнология решения проблемных ситуаций. –М.: «Feliks», 1992. –С. 128.

**РЕЗЮМЕ.** Ushbu maqolada o'quvchilarni kasb-hunarga bo'lgan qiziqishi, layoqati, moyilligi omillari, mexanizmlarini aniqlash bo'yicha ijtimoiy-psixologik so'rovnoma natijalarining psixologik ilmiy tahlili va ularni amaliyotda qo'llash borasida ma'lumotlar yoritilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье представлен психолого-научный анализ результатов социально-психологического опросника по определению факторов и механизмов интереса, способностей, склонности студентов к профессии и их применение на практике.

**SUMMARY.** In this article, the psychological scientific analysis of the results are covered the socio-psychological questionnaire to determine the factors and mechanisms of students' interest, ability, inclination to the profession and their application in practice.

## SHARQ MUTAFAKKIRLARINING KASBIY SHAKLLANISH MUAMMOSIGA DOIR MA'NAVIY-PSIXOLOGIK QARASHLARI

**I.A.Yusupjonova** – *psixologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori*  
*Andijon davlat universiteti*

**Tayanch so'zlar:** psixologiya yo'nalishi talabalarining kasbiy rivojlanish jarayoni, pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyatlari, bo'lajak psixologning kasbiy ongi, kasbiy motiv va motivatsiya, o'quv мотив.

**Ключевые слова:** процесс профессионального становления студентов-психологов, особенности педагогического общения, профессиональное сознание будущего психолога, профессиональная мотив и мотивация, учебная мотивация.

**Key words:** the process of professional development of psychology students, specific features of pedagogical communication, professional consciousness of a future psychologist, professional motivation and motivation, educational motivation.

Jahonda ta'lim va ilmiy-amaliy markazlarda talabalar kasbiy shakllanishini psixologik shartlarini ishlab chiqarish uchun zarur imkoniyatlarni yaratish masalasiga alohida e'tibor berilib, kasbiy shakllanish tushunchasining mohiyati, kasbiy shakllanishdagi ziddiyatlari va ularning kelajakdagi faoliyatiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi, talabalarida kasbiy rivojlanish samaradorligiga erishish mexanizmi muammolari doirasida izlanishlar olib borilmoqda va talabalarining kasbiy shakllanishining psixologik xususiyatlari va ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi uchun zarur shart-sharoitlar, har tomonlama bilim, zamonaviy dunyo uchun zarur bo'lgan muayyan ko'nikmalarni egallashga yo'naltirilgan bilim berish mexanizmlarini takomillashtirish, ularning jamiyatdagi kasblar haqidagi savodxonligini oshirishni kafolatlovchi innovatsion-integrativ usullarni qo'llash doirasidagi zamonaviy ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarni o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki, inson hayotida kasbiy faoliyatni to'g'ri belgilash shaxsning o'zini ro'yobga chiqarish hamda yetuk kadr bo'lib yetishishida muhim o'rinni egallaydi. Bunda, insonning psixologik imkoniyatlari ko'lamidan oqilona foydalanish, ijtimoiy istiqbollarni belgilash masalasi har bir davlatning, xalqning oldida dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Zero, har bir shaxsning o'z kasbni anglagan holda tanlashi kasbiy samaradorlikka erishishda va jamiyat taraqqiyotida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Sharqda yoshlarga ta'lim va tarbiya berish, ularga kasb-xunar o'rgatish Qadimiy an'alaridan xisoblanadi. Ayniqsa, xunarmand va kosiblar me'mor va naqqoshlar, dexqon va chorvadorlar, o'z farzandlari yoki shogirdlarini tarbiyalashga kasb-sirlarini o'rganishga juda katta ahamiyat berganlar. Xalqimizning yosh avlod tarbiyasiga bu qadar e'tibor berishini ko'rsatuvchi turli-tuman naqlar va rivoyatlar maqollarning asrlar osha to'planib kelganligini ham alohida qayd etish o'rinlidir. Jumladan, "Ustozdan o'zmagan shogird, shogird emas", "Hunarli kishi xor bo'lmas" yoki "Bir yigitga yetmish hunar oz" kabi ko'plab hikmatli so'zlar borki, ular qadim-qadimdan otobobolarimiz yosh avlodni ruhan va jismonan barkamol hamda o'ziga munosib biror-bir kasb-kor egasi bo'lib yetishishlariga da'vat etib kelganlarining yaqqol isbotidir. Sharq mutafakkirlari ta'limotida o'gil va qizlarga ta'lim va tarbiya berish kuni barga ularni kasb-hunarga o'rgatish goyasi ham muxim o'rin egallaydi. Bundan ko'rinadiki, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish masalalari hozirgi kun uchun yangilik bo'lmay, balki azaliy muammo sifatida o'rganib kelinmoqda [2,3,4]. Sharq mutafakkirlarining g'oyalarida shaxsning kasb-hunarga ega bo'lishi, xususan kelgusida muayyan kasb-hunarga tayyorlanayotgan bo'lg'usi kasb egalari to'g'rida qarashlar keng yoritilgan. Jumladan, Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Maxmud Qoshg'ariy, Amir Temur, Umar Xayyom, Abdulla Avloniy va boshqalarning asarlarida kasb-hunar bilan shug'ullanishda muayyan sifatarga ega bo'lish, kasbiy rivojlanishning shartli sifatida tanlangan kasb ilmini maqsadli, maxsus o'qish va o'rganish, shuningdek, o'zida nazariy hamda amaliy bilimlarni doimiy takomillashtirib borish to'g'risida ahamiyatli fikrlar bayon etilgan [2]. Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy kasb-hunar to'g'risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlarni berganlar, chunonchi ta'lim-so'z va

ko'nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish-xarakat ekanligini, muayyan kasb-hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb-hunarning chinakam shaydosi bulishini aytgan. Bu mulohazalardan ko'rinib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur xayotiy vosita bo'lib kelgan. Forobiyning fikricha, insonning kasb-hunar va san'atdagi fazilatiga kelsak, bu fazilat tugma emasdir, aks xolda uning fikru – fazilatida mutlaqo kuch va ulug'lik bo'lmas edi. Nazariy va buyuk fikriy fazilat ulug' tugma fazilat va ulug' (kasb-hunar) fazilati odat - malaka bulib kolgan odamda bu fazilatlar irodani hosil qilishning va odatga aylantirishning sababi buladi, bunday odamlar cheksiz, juda kuchli tabiat va irodaga egadirlar. Agar insonda mana shunday go'zal xususiyatlar yoki fazilatlar birlashsa, uyg'unlashsa, shundan sung u uzidagidek guzal fazilat va irodani xalqlar va shaxar axillarida xosil qilish yullarini o'rganishi kerak. Lekin xalqlar va shaxar axillarida axloq, odob, rasm-rusm, kasb-xunar, odat va irodani hosil qilgani uchun insondan zo'r kuch va qudrat talab qilinadi. Abu Nasr Forobiyning ta'kidlashicha, "Ta'lim-degan so'z xalqlar va shaxarliklar o'rtasida nazariy fazilatlarini birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tugma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir. Ta'lim faqat so'z va o'rganish bilangina bo'ladi. Tarbiyachi esa amaliy ish tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-xarakat, kasb-xunarga berilgan bo'lishi, o'rganishidir" - deydi. Forobiyning fikricha, baxtning turli darajalarining bir-biridan afzalligi uch xil alomatga qarab aniqlanadi. Biz quyida ko'rib chiqayotgan hunar va san'atlarning bir-biridan afzalligi ham xuddi shu alomatlariga qarab aniqlanadi. Hunar va san'atlar qaysi tur va soxalarga taalluqli ekanligiga ko'ra bir-biridan afzal ko'rinadi. Abu Rayxon Beruniy inson kamolotida mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi. U xar bir xunar egasini mexnatiga qarab turlarga bo'ladi. Og'ir mexnat sifatida binokor, ko'mir qazuvchi, xunarmand, fan soxiblari mehnatini keltiradi [3,4]. Beruniy bolalarni mehnatga o'rgatish metodlari, yo'llari haqida ham fikr yuritadi. Masalan, bolalarni eng kichik yoshdan mehnatga o'rgatish kerak, deydi. Mexnat tarbiyasi o'sha davr tarbiya an'anasiga binoan vorislikka katta axamiyat beradi. Hunarmandchilikning bunday yakka xolda o'rgatilishi malakali kasb egalarning yetishib chiqishiga yordam bergan, xalol va vijdonan mehnat qilishga yo'llaganki, bu insonning kamolga yetishida muhim pogona bo'lgan. Zero, qadimdan xar bir yetuk inson shohmi yoki oddiy fuqaromi hunarning bir yoki bir necha turini bilishi zarur sanalgan. Shunga buyuk shaxslar ham, beklar ham, mol-mulk egalari bo'lgan boylar ham oddiy fuqaro xam o'z farzandini bilimli bo'lishi bilan birga hunarli bo'lishiga ham e'tibor bergan va bu yozilmagan qonunga barcha birdek amal qilgan. Chunki kishilik jamiyati paydo bo'lgandan boshlab, kishilar o'z mehnati va hunari bilan kun kechirishga majbur bo'lgan va bu hayot taqozosi asoratida qabul qilingan. Shuning uchun ham Beruniy inson har tomonlama kamolga yetishi uchun u ilmi bulishi bilan birga mehnatsevar va hunar egasi bo'lishi ham kerak deydi. bu Ali ibn Sinoning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari xam diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o'rgatmoq shart, deydi. Yosh yigit biror hunarni o'rgansa, uni hayotga tatbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta'minlaydigan bo'lsagina

otasi uni uylantirib qo'ymogi lozim, deb hisoblaydi. O'spirin hunar egallashi bilan unda nafaqat axloqiy xislar, balki xarakterning irodaviy hislatlari xam tarkib topa boshlaydi. Hunar egallash orqali o'spirinlardan sabr-bardoshlik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi insoniy sifatlar shakllanadi. Ibn Sino har bir insonning mijozidan kelib chiqqan holda unga aloxida e'tibor berish kerakligini ta'kidlashi tufayli juda katta amaliy ish qilganligiga guvoh bo'lish mumkin. Uning fikricha, har bir inson faqat unga tegishli bo'lgan xususiyatlarigagina egadir, unga o'xshash insonlar kamdankam bo'ladi [3,4]. Yusuf Xos Xojibning o'sha Davrda kosib hunarmandlarga naqadar xayrixoxligi o'z-o'zidan emasdi. Chunonchi, davlatning tinch osoyishtaligi, jaxonda tutgan mavqei, boyligi, xalqning farovonligi ana shu toifadagi kishilarga bogliq edi. Zero, kasb-hunar ta'limning ijtimoiy-siyosiy, moddiy va madaniy taraqqiyotining o'lchov birligi sanalardi. Yusuf Xos Xojib jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligida muxim o'ringa ega bo'lgan dexqonlar, chorvadorlar, savdogarlar, tabiblar, olimlar haqida xam muhim fikrlar bayon etadi va har birining jamiyatdagi o'rnini ko'rsatib beradi. Chunonchi, dehqonlar va chorvadorlarning ham ijtimoiy, iqtisodiy hayotda tutgan urnini yukori baxolaydi va ular mehnati eng ulug' va sharfli muqaddas ekanligini ta'riflaydi. Ko'rinib turibdiki, olim jamiyatning rivojlanishiga hissa qo'shgan har bir kasb-hunar egasini ulug'laydi va ularni qadrlash zarurligini ta'kidlaydi [3,5]. Sharq mutafakkirlaridan yana biri Kaykovusdir. Kaykovusning "Qobusnoma" asari 44 bobdan iborat bo'lib, 4 bobi diniy bilimlar haqida bo'lsa, qolgan 40 ta bobi ta'lim- tarbiyaga bag'ishlangan. Mutafakkir Kaykovusning yaratgan asari juda qimmatlili bilan agralib turadi. Chunonchi asarda hunar va kasb tanlashga bag'ishlangan alohida bob bo'lib, bunda kasbi va hunari bilan o'zi va oilasidan tashqari jamiyat ravnaqiga ham ulkan hissa qo'shishini yozib qoldirgan. Bundan tashqari farzandlar tomonidan ota-onani hurmat qilish, ularni e'zozlash kabi fazilatlarining shakllanishi muhimligi ta'kidlanadi. Ilmiy jihatdan bilim olish, san'atni anglash va uni egallashga harakat qilish, harbiy sohadagi mashqlar va ularni bilishning zarurligi ta'kidlanadi. Bundan tashqari ro'zg'or yuritish uchun zarur bo'lgan savdo-sotiq ishlarini bilish, dexqonchilik bilan shug'ullanishga e'tibor qaratish, turli kasb-hunarlarini egallashga intilish kabi masalalarga jiddiy e'tibor qaratilgan. Kaykovus insonlarning jamiyatda tutgan o'rniga ko'ra uchta toifaga ajratgan: aqlli, haqo'y va juvonmard odamlardir. Kaykovus ilm bilan birga kasb-hunarining zarurligini alohida ta'kidlab, inson har qancha oliy nasab bo'lsa ham, lekin kasb kori bo'lmasa, aholining izzat hurmatidan umid qilmasa ham bo'lishini, ulug'lik nasl-nasab emas, balki aql va bilimda ekanligini aytadi. Kaykovus jamiyat taraqqiyotida ilm bilan birga kasb-xunarning zarurligini ta'kidlaydi: "Agar kishi har qancha oliy nasab va asl bo'lsa-yu, ammo kasbi bo'lmasa, u xaloyiqning izzat va hurmatidan noumid bo'lur. Ulug'lik aql va bilim qiladur, nasl-nasab emas. Ammo sen hunar bilan

bir nomga ega bo'lgil". Shuning uchun ham asarda turli kasb egalari ulug'lanadi. Kasb-hunar o'rganishni bilim olish bilan qo'shib olib borishni tavsiya etadi. Fanni amaliyot bilan uzviy aloqada deb qaraydi. Kaykovusning bu qarashlari o'sha davrning ilg'or qarashlaridan sanaladi. Ayniqsa, uning turli kasb-hunar vakillari xaqidagi fikrlari amaliyotga tatbiq etishda o'ta muximligi bilan diqqatga sazovor. Masalan, "Dabirlik va kotiblik zikrida" bobida yozma nutqni yaxshi egallash, chiroyli yozish va mashk qilishni maslaxat beradi [6]. Sa'diy bilim olish bilan birga xunarning xali inson uchun qay darajada afzalligini uqtiradi. Chunki "hunar qaynar buloq, tuganmas davlat, - deydi u, agar hunarmand molidan maxrum bo'lsa qayg'usi yo'qdir. Hunarmand qaerga borsa, qadrlanadi va uyning turidan joy oladi. Hunarsiz odam esa, xamisha mashaqqat chekadi, tilanchilik qiladi". Bu - Sa'diyning inson uchun ilm-hunarining qay darajada ulug'ligini ta'kidlovchi fikrlarining ifodasidir. Sa'diyning "Guliston" asari axloqiy ta'limoti bilan ayniqsa mashxurdir. Zero, mazkur asarda insoniylik, saxovat, qanoat, adolat kabi hislatlar ulug'lanadi. Jomiy ham xuddi Forobiy singari biror foydali kasb-hunarni egallashni yoshlarning asosiy burchi deb xisoblaydi. U bir odam ikki ishni eplay olmasligini ta'kidlaydi, faqat muayyan bir hunar bilan shugullanish uni puxta o'zlashtirish lozimligi haqida gapiradi [4,6]. Jomiy hunar egallashni u bilan shugullanishni xar qanday boylikdan afzal ko'radi, yoshlarni hunar egallashga chaqiradi. Jomiy o'sha davrda bilim va hunar egallamay, uzining nasl-nasabi bilan maqtanib yurgan ota-onasining molu davlatiga ishonib taralla-bedod qilib yurgan yoshlarni qattiq tanqid qiladi. Uning fikricha, bunday yoshlar biror ijobiy fazilatga ega emas, ular xosil bermaydigan mevasiz daraxtga o'xshaydilar, bunday odamlarning jamiyatga nafi tegmaydi. Jomiy bilim-hunarsiz kishini o'tindan boshkaga yaramaydigan mevasiz daraxtga o'xshatadi. U har bir yoshni ota obrusi, shon-shuxratidan magrurlanmay, o'z yo'lini tanlashiga, ilmu-xunar o'rganishga undaydi. Shuningdek, xunar o'rganish xar bir kishi uchun u yoshmi, keksami, shoxmi, fuqaromi, barchaga barobar, - deb ta'kidlaydi. Demak, Jomiy inson uchun ilmu-hunarining qay darajada zarurligini to'g'ri talkin qilgan. Sharqning qomusiy olimlaridan Davoniy bolalarning kasb-hunar egallashi tugrisida ham e'tiborga sazovor fikrlar bildirgan. Muallim talabalarning qobiliyatini qaysi kasb bilan qiziqishini juda yaxshi bilishi lozim. Davoniyning kasb-hunar egallash to'grisida ijobiy qarashlaridan biri shuki, u birinchi navbatda oddiy xalq mehnatini, hususan, dexqon mexhnatini kuylaydi, inson faqat o'z xalol mehnati tufayli baxt-saodatga erishuvi barkamol shaxs bo'lib yetishishi mumkinligini isbotladi. Shuning uchun u kasb-hunar egalarni doimo hurmatlash, mehnatini qadrlashga chaqiradi [3,5,6].

Mazkur maqolada talaba shaxsida kasbiy shakllanishining ilmiy-nazariy tahlili bayon etildi. Shuningdek, Sharq allomalari o'quvchi shaxsida kasbiy shakllanishi va uni tadqiq qilish uslubi aniqlandi.

#### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagil nutqi. 2020 yil 30 sentyabr. - <https://president.uz/uz/lists/view/3864>
  2. Абдуллаева М.М. Шахсиятнинг профессионал ўзига хослиги: психосемантик ёндашув. / М.М.Абдуллаева. // Психологик журнал / Ёд. А.В. Брушлинский, И.И. Шесноков. 2004. 25-жилд № 2. 2004 йил март-апрел ойлари. - С. 86-96.
  3. Гайнутдинов Р.З. Диссертация... кандидата психологических наук: 19.00.03. -Ташкент: 2010. -С. 110.
  4. Jalilova S.X., Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Kasb psixologiyasi.O'quv qo'llanma. 2010.13-25-6.
  5. Qodirov Q.B. O'qituvchining psixologik kompetentsiyasiga doir ayrim mulohazalar.Zamonaviy ta'lim.2015. №4. 56-61-6.
  6. Siriev N. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasasi magistrantining malakasini oshirishning psixologik jihatlari: Dissertatsiya avtoreferati. ... psixologiya fanlari nomzodi: 19.00.07. -Toshkent: 2000. 20-b.
- РЕЗЮМЕ.** O'rganilayotgan muammo bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, talabalar kasbiy tanlash va kasbiy motivatsiyasining muammosi sharq mutafakkirlari tomonidan keng doirada tadqiq qilin. Shu bilan birga, kasbiy o'zlikni anglash va aniqlashga taalluqli umummetodologik va nazariy muammolar nazariy tahlil qilingan.

**РЕЗЮМЕ.** Анализируя научную литературу по изучаемой проблеме, данное исследование показывает, что проблема профессионального выбора и профессиональной мотивации студентов широко изучается восточными мыслителями. При этом теоретически анализируются общие методологические и теоретические проблемы, связанные с пониманием и определением профессиональной идентичности.

**SUMMARY.** Analyzing the scientific literature on the studied problem, this study shows that the problem of students' professional choice and professional motivation is widely studied by Eastern thinkers. At the same time, general methodological and theoretical problems are theoretically analyzed related to the understanding and definition of professional identity.

## **O'ZBEK OILALARIDA ZO'RAVONLIKNI IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**X.Ziyavutdinova** – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori  
Andijon davlat universiteti

**Tayanch so'zlar:** zo'ravonlik, oilaviy zo'ravonlik, ayollarga nisbatan zo'ravonlik, zo'ravon shaxs, ruhiy kamsitilish, iqtisodiy zo'ravonlik, jismoniy zo'ravonlik, psixologik zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik.

**Ключевые слова:** насилие, домашнее насилие, насилие в отношении женщин, жестокая личность, психическая дискриминация, экономическое насилие, физическое насилие, психологическое насилие, сексуальное насилие.

**Key words:** violence, domestic violence, violence against women, violent personality, mental discrimination, economic violence, physical violence, psychological violence, sexual violence.

Turmush o'rtog'i tomonidan zo'ravonlikning namoyon bo'lishining umumiy va o'ziga xos shakllari mavjud. Zo'ravonlikning umumiy shakllarga jismoniy zo'ravonlik (itarib yuborish, siltab yuborish, mushtlash, tepish yoki buyumlar bilan urish va boshqalar), psixologik zo'ravonlik (jinsiy aloqani cheklash, jinsiy qobiliyatsizlik, bepustlik kabi haqoratli shaklda ayblash bilan jazolash), jinsiy zo'ravonlik (jinsiy aloqani cheklash bilan jazolash, jinsiy oqizlikda ayblash, bepustlik va boshqalar), iqtisodiy (kam daromad uchun ayblash, daromadni yashirish, moliyaviy qarorlarni mustaqil ravishda qabul qilish, xarajatlarni qat'iy nazorat qilish, ekspluatatsiya) va qurbon ustidan nazoratni o'rnatish uchun bolalardan foydalanish (turmush o'rtog'ini shantaj qilish maqsadida ernaing farzandlariga jismoniy va ruhiy zo'ravonlik qilishi, bolalarni manipulyatsiya qilishdan foydalangan holda ota-ona huquqlari uchun kurash, muayyan xarakter xususiyatlari va xatti-harakatlari tufayli bolalar oldida kamsitish, buzg'unchi mafkuralarga jalb qilish).

Oxirgi shaklda zo'ravonlikning ikki turi bir-biriga bog'langan - turmush o'rtog'iga nisbatan zo'ravonlik va bolaga nisbatan zo'ravonlik. Turmush o'rtog'iga zulm o'tkazish maqsadida bolalarga nisbatan zo'ravonlik bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) va bilvosita (ikkilamchi) amalga oshiriladi. Bevosita zo'ravonlik klassifikatsiyasi nikoh zo'ravonligining yuqorida ko'rib chiqilgan turlariga to'g'ri keladi: jismoniy, jinsiy, psixologik zo'ravonlik, beparvolik va ma'naviy shafqatsizlik. Zo'ravonlikning mazkur ko'rinishlarida bolalar hayoti va sog'lig'iga bevosita zarar yetkaziladi. Bilvosita zo'ravonlik deganda bolaning shaxsiga salbiy hissiy va psixologik ta'sir tushuniladi. Ushbu holat uning ota-ona oilasida zo'ravonlik guvohi bo'lish yoki "vosita" bo'lib xizmat qilishi natijasidan kelib chiqadi. Ko'pincha bolalar o'z his-tuyg'ularini ochiq ifoda etmaganliklari sababli bunday salbiy ta'sirlar ko'zga ko'rinmaydi. Shuning uchun bunday oilalarning bolalari "ko'rinnmas qurbonlar" deb ataladi. Ko'pincha bolalar o'ziga nisbatan bo'layotgan hissiy va psixologik zo'ravonlikdan xabardor bo'lmasliklari mumkin.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda bolalarga nisbatan oilaviy zo'ravonlikning quyidagi o'ziga xos shakllarini keltirishimiz mumkin: ijtimoiy mavqe zo'ravonligi, oiladagi zo'ravonlik, homiladorlikni saqlab qolish yoki homiladan voz kechish to'g'risidagi yagona qaror, turmush o'rtog'ining ota-onasi bilan munosabatlarni buzish, erkakni otasi va onasiga qarshi qo'yish kiradi.

Ijtimoiy maqomdagi zo'ravonlik - farzand bilan aloqa qilishni taqiqlash orqali otalik maqomidan mahrum qilish bo'lib, er-xotinlar arjashgandan so'ng bolalarni sobiq eridan izolyatsiya qilish holati sezilarli darajada oshadi. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda ajralishdan so'ng bolalarning 90-95 foizi avtomatik ravishda onaga o'tadi. Aksariyat hollarda, otalar o'z farzandlari bilan "neytral" hududda onaning qarindoshlari (masalan, qaynona) nazorati ostida uchrashishga majbur bo'lishadi. O'yinchoq, shirinliklar, kiyim-kechak va hokazolarni sotib olishda ham shunday holat yuz beradi [3:42]. "To'laqonli ota"ning ijtimoiy mavqei sekin-asta "yakshanbalik ota" maqomiga aylanadi. Ammo bu ajratilgan vaqt ichida na ota, na farzand o'z majburiyatini to'liq anglay olmaydilar, shuning uchun bunday sanalar quvonch keltirmaydi, balki tushkunlikka tushiradi.

Ikkinchidan, aslida sodir bo'lmagan zo'ravonlik yoki

asossiz shikoyat bilan turmush o'rtog'i mehnat jamoasiga yoxud huquqni muhofaza qilish organlariga ariza berib, unga "zo'ravon" maqomini berish. Bu holat insonning yaqin kishilari va tanishlari orasida, mehnat jamoasida, ijod bilan shug'ullanayotgan tashkilotlarida sha'niga nomunosib ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Oilaviy zo'ravonlik uy yumushlariga e'tiborsiz bo'lish, turmush o'rtog'ini rad etish, e'tiborsizlik, g'amxo'rlik qilishdan mahrum qilish kabi holatlarni o'z ichiga oladi. Zo'ravonlikning bu shakli, ayniqsa, bemorligi tufayli yoki doimo tashqi yordamga muhtoj bo'lgan odam nochor ahvolda bo'lgan hollarda yuz berishi mumkin.

Homiladorlikni bekor qilish yoki saqlab qolish bo'yicha yagona qaror ayol ayol zo'ravonligining istisno shakli hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 4-bob 21-moddasiga muvofiq bolalar tarbiyasi va oilaviy turmushning boshqa masalalari er-xotinlar tomonidan er-xotinning tengligi tamoyillariga asoslangan holda birgalikda hal qiladilar [3]. Ayol tomonidan bolaning tug'ilishi yoki tug'ilmasligi bo'yicha yagona qaror qabul qilish holatida erkakning oilaviy hayotda teng ishtirok etish huquqi buziladi.

Turmush o'rtog'ining ota-onasi bilan munosabatlarning yomonlashuvi, erkakni otasi yoki onasiga qarshi qo'yish yoxud ernaing boshqa qarindoshlariga nisbatan qo'pol va haqoratli holatlar er-xotinning o'zaro munosabatlarida keskinlikning oshishiga olib keladi. Bu vaziyada ayoli va ota-onasi tomonidan berilgan qarama-qarshi maslahatlar erkakni chalg'itadi. Ayol tomonidan farzandlarni bobosi va buvisiga qarshi qo'yishi vaziyat yanada og'irlashtiradi.

Ayollarga nisbatan oilaviy zo'ravonlik sabablari va shakllarini tadqiq etishda, yuqoridagi kabi holatlarga erkaklarning qanday munosabat bildirishlarini ko'rib chiqamiz. Erkaklar kuchli psixologik ta'sirlar tufayli umrbod jarohatlanadilar. Ya'ni ular uyat, sharmandalik, o'z-o'zini kamsitish, aybdorlik hissi bilan yashay boshlaydilar. Mazkur hislar bilan ular oilani saqlab qolish uchun ayoli bilan uzoq vaqt yashashi mumkin, ammo yig'ilib qolgan alam va munosabatlardan norozilik keyinchalik oilaning darz ketishiga olib keladi. Turmush o'rtog'idan zo'ravonlikni boshdan kechirgan erkak abadiy sinishi, boshqalar oldida obro'sizlanishi, er va otalik ijtimoiy rollarini bajara olmaydigan darajaga tushib qolishi mumkin. Bular autoagressiyaga moyillik, suitsidal kayfiyatlar, doimiy tushkunlik, nafrat, qasos olish istagini keltirib chiqaradi. Natijada erkaklarda giyohvandlik, spirtli ichimliklarga ruju qo'yish, shuningdek, ko'pincha turli hil g'ayriqonuniy guruh va mazhablarga qo'shilib ketish holatlari kuzatiladi.

Shunday qilib, ayollar turmushidagi zo'ravonlikning namoyon bo'lish sabablari va shakllarini tahlil qilish nafaqat ushbu ijtimoiy hodisaning asosiy xususiyatlarini olish, balki uning salbiy oqibatlarini va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash imkonini beradi.

Ayollarga nisbatan zo'ravonlik mavzusi murakkab, ko'p qirrali va fanlararo muammo hisoblanadi. Ayollarga nisbatan zo'ravonlik nafaqat o'zining xarakterli belgilarining xilma-xilligi, turlari va shakllar bilan balki ko'plab fanlar tomonidan o'rganilayotgan ushbu hodisaning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan omillar va shart-sharoitlarning xilma-xilligi bilan bog'liq. Ilmiy manbalarda oilada turmush ayollarga nisbatan zo'ravonlik sabablarini tushuntiruvchi ko'plab makro va mikro nuqtai nazarlar

mavjud bo'lib, ularni bir qancha yondashuvlarga birlashtirish mumkin.

*Psixologik yondashuv* tarafdorlari zo'ravonlik kelib chiqish sabablarini shaxsning ijtimoiy sharoitga yetarli darajada psixologik moslashuvi, shuningdek, ma'lum darajada o'zini namoyon qilishga yordam beradigan xarakter xususiyatlarini ko'rib chiqadilar. K.Xorni o'z tadqiqotlarida shaxslarning inqirozli holatlari muammolarini o'rganib, zo'ravonlikni shaxsning asosiy tashvihlari bilan bog'liqligini aniqlab, agressiya shaxsni psixologik himoya turlaridan biri ekanligini ta'kidlaydi [4:98].

Gumanistik yo'nalishning yorqin vakili K.Rodgers zo'ravonlik hodisasini ta'riflar ekan, uni shaxs psixologik himoyasining bir turi sifatida tushuntirib, tajovuzni shaxsning erkinligining cheklash va tanlash imkoniyatiga majburiy munosabati hamda shaxs tomonidan tahdid deb qabul qilingan holatga javob deb qaraydi [5:128].

E.Fromm esa o'z tadqiqotlarida sadizm hodisasiga alohida e'tibor qaratadi. Uning ta'kidlashicha, sadizm-boshqa odamga zarar yetkazish istagi emas, balki boshqa odamni o'z kuch va irodasiga to'liq bo'ysundirish, uni o'z xohishiga bo'ysunuvchi obyektga aylantirishdir. Boshqa odam ustidan to'liq hukmronlik qilish istagi-sadizimning mohiyatidir [6:242].

Tadqiqotchil olimlar T.B.Dmitriyeva va B.V.Shostakovich zo'ravonlikni keltirib chiqaruvchi umumiy psixologik xususiyatlar deb quyidagilarni ko'rib chiqadilar:

- tajovuzkor reaksiyalarga moyillik yoki salbiy ta'sirlarga hissiy reaktivlikning kuchayishi [7:323];
- yuqori avtoritarizm;
- o'zini hurmat qilishning pastligi yoki yetarli emasligi;
- o'ziga nisbatan ishonchning yetishmasligi, o'zidan shubhalanish [7:23];
- rigidlik (xulq-atvor va qaror qabul qilishda moslashuvchanlikning yo'qligi);
- muloqot ko'nikmalarining yetishmasligi (har qanday nizo va kelishmovchilikni hal qilish jismoniy kuch yoki og'zaki tajovuz yordamida sodir bo'ladi);
- qo'zg'alish va asabiylikning kuchayishi;
- asabiylik va stress holatida his-tuyg'ularni boshqara olmaslik (V.A.Shakina tadqiqotlarida keltirilishicha, oilaviy jinoyatlarning 76 foizi janjal paytida sodir bo'lgan);
- hukmronlik (ko'pincha yuqori zo'ravonlik nazorat, kuch va o'zini o'zi namoyon qilish vositasiga aylanadi);
- patologik rashk [8:47].

Turli xil tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zo'ravonlarning barchasi umumiy xarakter xususiyatlariga ega bo'lib, bunday shaxslar "emotsional sovuqlik va befarqlik, hamdard bo'la olmaslik va o'zini boshqalar o'rniga qo'ya olmaslik, kutilmagan tashqi ta'sirlarga o'ta sezgirlik va zaiflik bilan ajralib turadi" [8:20].

#### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni.//lex.uz
2. "Xotin – qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasining oila kodeksi. // URL:http://www.lex.uz.
4. Шишкин О. Разведенный отец / О.Шишкин // Огонек. 2008. – С 42.
5. Киреев Г.Н. Сущность насилия. -М.: 1990.18-6.
6. Джавадов Ф.М. Квалификация насильственных преступлений, совершенных с применением оружия. Автореф. дисс. канд. юрид. наук. -М.: 1985. -С. 31.
7. Сердюк Л.В. Насилие. Криминологическое и уголовно-правовое исследование. –М.: 2002. –С. 179.
8. Dobash R.F., Dobash R.P. Violence against wives: a case against patriarchy. –N-Y.: 1979.

**REZYUME.** Ushbu maqolada oilalarda er-xotin o'rtasidagi zo'ravonlik, ayollarga nisbatan zo'ravonlik muammosi, uning ko'rinishi, turlari, kelib chiqish sabablari va bu muammoni olidini olish bo'yicha xulosa va takliflar beriladi. Oilaviy zo'ravonlikning bu turi er-xotin o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'lib, bunday zo'ravonlikning o'ziga xosligi er-xotinning gender farqlari, erkaklarning dominant pozitsiyasi va ayollarning xatti-harakatlari ustidan nazorat qilish natijasidir kelib chiqadi.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье представлена проблема домашнего насилия между супругами, насилия в отношении женщин, его проявления, виды, причины и профилактика данной проблемы. Этот вид домашнего насилия проявляется в отношениях между супругами, а специфика такого насилия является результатом гендерных различий пары, доминирующего положения мужчин и контроля над поведением женщин.

**SUMMARY.** In this article, the problem of domestic violence between spouses, violence against women, its appearance, types, causes and prevention of this problem is presented. This type of domestic violence is manifested in the relationship between spouses, and the specificity of such violence is the result of the gender differences of the couple, the dominant position of men and the control over the behavior of women.

*Konfliktli yondashuv.* Mojarolar oson hal qilinadigan va hal qilib bo'lmaydigan ko'rinishda bo'ladi. Nizolarni keltirib chiqaruvchi sabablar darhol bartaraf etilsa, oson hal qilinadigan nizolar deb hisoblanadi. Hal qilib bo'lmaydigan ko'rinishdagi nizolar barqaror mojarolar bo'lib, sabab saqlanib qoladi, uzoq vaqt davomida er-xotinning oilaviy muammolari bo'yicha yagona to'xtamga kelolmaydilar. Nizolarni hal qilish darajasi oilaviy munosabatlarda madaniyati va turmush o'rtoqlarning tarbiyasiga bog'liq.

Oilaviy hayotda nizolarga olib keladigan ko'plab sabablar mavjud. Ko'pgina tadqiqotchilar sabablarning tasnifini berishadi. Masalan, S.V.Kovalyov nizolarning barcha sabablarini guruhlariga birlashtiradi:

- oiladagi mehnatning nomuvofiq va adolatsiz taqsimlanishi, er-xotin o'z huquq va majburiyatlarini bilmasligi, turmush o'rtoqlardan birining uy ishlari yetarli hissa qo'shmasligi natijasida yuzaga keladigan nizolar;
- turmush o'rtoqlar yoki ulardan birining har qanday ehtiyojlarini, shu jumladan jinsiy istaklarini surunkali qoniqtirmaslik asosida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar;

- ta'lim, xarakter va boshqa psixologik kamchiliklar va nuqsonlar sababli kelib chiqadigan nizolar[6:46].

S.V.Kochetkova o'tkazgan tadqiqot so'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 38 foizi oilaviy nizolar muammolari tinch yo'l bilan hal qila bilmaslik, oilaviy munosabatlarda madaniyatining pastligi va o'z manfaatlarini himoya qila olmasligi tufayli deb javob bergan bo'lsalar, 37,4 foizi oila a'zolarining shaxsiy fazilatlarini va ular tarbiyasidagi kamchiliklar tufayli yuzaga kelishini ta'kidlaganlar [6:115].

Qanday ko'rinishdagi konflikt bo'lishidan qat'iy nazar, uning zahirida tomonlarning qarama-qarshi pozitsiyalari, maqsadlari, ularga erishish usullari yoki raqiblarning manfaatlarini, istaklari, mayllari turadi. Konfliktli vaziyatning kuchayishi uchun tomonlardan biri boshqa tomonning manfaatlarini buzadigan harakatni amalga oshirishi kerak [8:68].

Mazkur muammoning yechimi bo'yicha takliflar: OAV jamoatchilik fikrini o'zgartira olishga ega bo'lgan shaxslarni ushbu mavzudagi diniy va dunyoviy chiqishlarini ta'minlash; zo'ravonlikni kamaytirishda OAV, videoroliklar yaratishda o'zbek xalqining milliy urf-odatlariga tayangan holda, professional ekspertlarni ko'proq jalb etish; aholi orasida huquqiy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni olib borish; zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlar bilan ishlovchi rehabilitatsiya markazlari faoliyatini yanada takomillashtirish uchun ularda hisob-kitob, tikuvchilik, tadbirkorlik asoslari, shuningdek motivatsion treninglar o'tkazilishi zo'ravonlik holatiga tushgan xotin-qizlarni jamiyatga integratsiyasiga ko'maklashadi.

## USTAZLAR SHEJIRESI

### ИЛИМ ПИДАЙЫСИ, ЖӘМИЙЕТ ЖАНКУЙЕРИ

**М.М.Есебаев** – филология илимлари бойынша философия докторы  
Эжинияз атындағы Нөкис мамлекетлик педагогикалык институты



Белгили жазушы ҳам илимпаз Кеңесбай Алламбергенов өз өмір жолын Республикамыздың илимий-изертлеу, тәлім-тәрбия ислерине бағышлап, оған минсиз хызмет еткен ҳам қарақалпақ фольклортаныу иилими ҳам көркем әдебиятының рауажланыуына

белгили дәрежеде ат салысқан көп қырлы талант ийеси еди.

Ол 1954-жылы Қараөзек районында тууылады. Орта мектепти питкергеннен соң 1972-жылы Қарақалпақ мамлекетлик институтына оқыуға кирди ҳам 1976-жылы табыслы тамамлады. Дәслеппи мийнет жолын 1976-жылы «Жеткиншек» газетасында әдебий хызметкер, соң кәсип-өнер билим журтында қарақалпақ тили ҳам әдебияты пәни муғаллими, «Әмиўдәрәя» журналының бас редакторы, Бердақ атындағы Қарақалпақ мамлекетлик университети менен Эжинияз атындағы Нөкис мамлекетлик педагогикалык институтында оқытыушы, оқыу ислери бойынша декан орынбасары, Қарақалпақ әдебияты кафедрасы баслығы, факультет деканы, оқыу ислери бойынша проректоры лауазымларында иследи.

Кеңесбай Алламбергенов 1980-жыллардың басында жазылған «Қуслар қайтқан күн», «Қыйын өткел» атлы повестлер ҳам гүрриңлер топламлары менен Жас жазушылардың Ташкент, Москва қалаларында өткерилген семинарларының жеңимпазы, Қарақалпақстан Жаслары аўқамы сыйлығының лауреаты атағын алған. 1983-жыл «Дәрбент» атлы туңғыш романы менен Қарақалпақстан Жазушылар аўқам, Кәсиплик аўқамлар шөлкеми ҳам жаслар аўқамы менен бирликте жәрияланған «Мийнет эстафетасы конкурсының лауреатын жеңип алды. К.Алламбергеновтың бир қатар повесть, гүрриңлери өзбек, қазақ, ноғай, орыс тиллеринде басылып шыққан.

«Дәрәя тартылған жыллар» романы 2003-жылы Түркияда жәрияланған «Қарақалпақ әдебиятының антологиясы» нда түрк тилинде де жарық көрди.

К.Алламбергенов өткен әсирдің 80-жылларынан баслап әдебияттаныу илими тарауанда табыслы дәретиўшиликти мийнет етти. Ол «Қарақалпақ әдебиятында айтыс», «Қарақалпақ халық дәстаны «Едиге», «Миллий идеология ҳам қарақалпақ фольклоры», «Хәзирги әдебий жөнелис», «Қарақалпақ әдебияты», «XX әсир қарақалпақ әдебияты», «Ғәрезсизлик дәуири қарақалпақ әдебияты» сыяқлы бир неше монография, сабақлық, оқыу қолланбалары менен бир қатарда 300 ден аслам илимий мақалалардың авторы. Оның авторлығында қарақалпақ халық

дәстаны тийкарында «Әмир Темур ҳам Ер Едиге», «Уллы атланыс» ҳам «Қырық қыз» драмасы Бердақ атындағы қарақалпақ мамлекетлик музыкалы акедемиялық театрында сахналастырылды.

К.Алламбергенов 1985-жылы кандидатлық, 1997-жылы докторлық диссертациясын жақлады, 1994-жылы доцент, 1998-жылы профессор илимий дәрежесин алыуға еристи. 1993-жылы «Дәрәя тартылған жыллар» романы ушын Қарақалпақстан Республикасы Бердақ атындағы мамлекетлик сыйлықтың лауреаты болды. Жазушы 2018-жылы Қарақалпақстан халық жазушысы атағын алды.

Устазымыз өзиниң жұмыс искерлиги дәуиринде шебер шөлкемлестиреуши, мийнет сүйгиш, патриот инсан сыпатында көпшиликтиң ядында қалды. Ол тийкаргы жұмысынан басқа жәмийетлик басламада бир қанша жұмыслар алып барды. 1990-жылы 20-августта жаңадан дүзилген педагогикалык институт ушын өз журналы болыуы керек еди. Усы басламаны Академик Ж.Базарбаев институт кеңесиниң күн тәртибине қойды ҳам совет ағзалары тәрәпинен бир аўыздан макулланды. Усы басламаны қоллап қуўатлап К.Алламбергенов журналға керекли болған юридикалык хуҷжетлерин таярлап журналды ашыуға еристи. Бул жаңадан ашылған журналдың атын «Қарақалпақстан муғаллими» деп атады. Хәзирги күнде бул журнал «Илим ҳам жәмийет» аты менен жүритилмекте.

Бул журналдың редакция курамы белгиленди: Бас редакторы Академик Жуманазар Базарбаев болды, редактор етип профессор Кеңесбай Алламбергеновты бекитти, жуўаплы хаткер, журналист Азат Жумабаев, сүўретлеу редакторы Марат Есебаев, корректор Мырзагүл Сейтжанова, ағзалары, шайыр Шарапатдин Аяпов, Қабыл Мәмбетовлар болды.

Дәслеки жыллары «Қарақалпақстан муғаллими» журналының тиражы 17 мыңға жетти. Себеби, Қарақалпақстан Республикасы Билиминдириу Министирлигине қараслы барлық мектеплер журналға жазылатуғын еди. Булардың барлығын ректор Ж.Базарбаев пенен профессор К.Алламбергенов өзлери шөлкемлестирди. Журнал Республика бойлап үгит нәсиятланып барылып, мектеплер ушын керекли методикалык усылдағы мақалалар жарық көрип турды. Мектептиң алдыңғы тәжирийбели жетекши муғаллимлериниң мақалалары да жәрияланып барылды.

К.Алламбергенов журналды хәр түрли рубрикалар менен байытты. Мысалы: «Илим ҳам техника», «Ана тарийхымызды үйренемиз», «Тәлимниң теориялық тийкарлары», «Руўхыйлық, миллий қәдирятлар ҳам тәлим тәрбия», «Поэзия», «Проза», «Танысыңыз, жаңа сабақлықлар, қолланбалар, хрестоматиялар», «Медицина тәлим

тийкарлары», «Экономикалық тәлим дәуір талабы», «Миллий мектеп машқалалары», «Әдебиеттану», «Тил билими», «Әдепнама», «Мухаббат, семья, тәрбия», «ҚМ сәнелери», «ҚМ»ның жас алымлер минбери», «Педтехнология методика хәм тәжирийбе», «Устазлар шежиреси», «ҚМ»ның қызықлы ўақыялар мүйеши» усындай көп ғана рубрикалар менен келген мақалаларды тематикаға бөлетуғын еди.

К.Алламбергенов институтымыздың оқыў тәрбия ислеринде де минсиз хызмет етти. Мәмлекетимиз өз ғарезсизлигине ерискеннен кейин Өзбекстан Республикасы соның ишинде Қарақалпақстан Республикасында улыўма билим бериў мектеплери, улыўма орта билим бериў мекемелери, Жоқары оқыў орынларында пәнлерди жаңа ғарезсизлик идеясы тийкарында жаңадан жаратыў, олардың бағдарламаларын дүзиў сол тийкарда оқыў сабақлықларын жаратыў сыяқлы билимлендириўде үлкен машқалалар болды. Соның менен бирге «Ана тилимиз»ди оқытыў оны қалай жетистириў кереклиги ҳаққында машқалалы мәселелер болды.

Усындай үлкен машқалаларға байланыслы «Қарақалпақстан муғаллими» журналы менен НМПИдиң қарақалпақ тили кафедрасы менен биргеликте «Миллий жазыўымызды қалай жетилистиремиз?» деген темада дөңгелек стол сәўбетин шөлкемлестирди. Бул дөңгелек столға К.Алламбергенов басшылық етти. Мысалы: Усы дөңгелек стол сәўбетиниң материаллары «Қарақалпақстан муғаллими» журналы 1993-жыл №2-3 санларында жәрияланды. Бул дөңгелек столға белиги тилши хәм әдебиетши илимпазлар қатнасты А.Нажимов, М.Дәўлетов, П.Аллашев, Қ.Камалов, А.Бекбергенов, Ж.Қайырбаев, Ә.Алымов, О.Доспановлар қатнасты. Сол тилимиздиң әхмийетли мәселелери ҳаққында усыныслар, ҳәр түрли пикирлер билдирилди.

К.Алламбергенов усындай күнниң машқаласы болып турған мәселелер бойынша көп дөңгелек стол этирапында сәўбетлесиў, пикир алысыў, ол бойынша ис илажлар ислеў, оның шешимин табыў ушын белсендилик көрсетти.

Усы жыллары «Қарақалпақстан муғаллими» журналы 2002-жылы №1-2 санларында «Сабақлық оқыў қолланбаларына қосымшалар» деген рубрикада К.Алламбергеновтың «Хәзирги әдебий жөнелис» (оқыў қолланбасы)нда мысалы, онда «Қарақалпақ әдебиатында ғарезсизликтин биринши күнлеринен баслап усындай қадаған етип тасланған темаларды халыққа көркем етип ашып бериў мәселесинде батыл үн қоса баслады. Т.Қайыпбергеновтың «Кеўлимниң қамусы», «О дүньядағы атама хатлар» роман-қомуснамасы менен повесть-эсселери», Ә.Пахратдиновтың «Сөйленбеген тарийх», К.Алламбергеновтың «Дәрйя тартылған жыллар» романы, Г.Есемуратованың «Қызым саған айтаман», «Дүйдендеги дәптер», А.Абдиевтиң «Жин-жыпырлар уясы», И.Юсуповтың «Мәмелек ой», «Посейдонның ғәзеби», Ш.Аяповтың

«Жан халаты» поэмасы жарық көрди. Жаңа ўақыт нәпеси әдебиетқа жаңа тема, жаңа қаҳарманлар образын алып кирди. Қарақалпақ әдебиатындағы усындай үлкен машқалаларды К.Алламбергенов алып шығып, бул шығармаларды оқыў процесине енгизиў хәм бул шығармаларды илимий объектине айландырыў мәселелерин ортаға қояды.

К.Алламбергеновтың «Қарақалпақстан муғаллими» журналының 2002-жыл №3-4 санларында «Методикалық қолланбалар оқыў бағдарламалары» деген рубрикада «ХХ әсир қарақалпақ әдебиаты» (үлги оқыў бағдарламасы) жәрияланды. Бул «ХХ әсир қарақалпақ әдебиаты»н қалай оқытыў керек, оған қайсы жазаўшы шайырлардың қандай шығармаларын алыў керек деген мәселелер көрилип шығып оның бағдарламасын дүзди.

К.Алламбергенов усындай оқыў тәрбия ислерине байланыслы «Әдебиеттану», «Әдебиеттану тийкарлары», «Қарақалпақ әдебиаты тарийхы», «Қарақалпақ фольклоры», «Ерте дәуір қарақалпақ әдебиаты тарийхы» пәнлерин оқытыўдың әхмийетли мәселелери бойынша бир қанша илимий мақалалар жәриялады оның бағдарламаларын дүзди.

К.Алламбергенов Республикамыздың хәм институтымыздың руўхый ағартыўшылық ислериниң жанкүйери еди. Себеби Қарақалпақстан жазыўшы шайырларының дөретиўшилик жолын кең жәмийетшиликке, келешек жасларға үгит-нәсиятлаў соның менен бирге миллий кәдириятларымызды қайта тиклеў, өткен әсир ата-бабаларымыздан қалған бай әдебий мийрасларды үйрениў, оларды телерадио хәм баспа сөз, ғалаба хабар қураллары арқалы халқымызға жеткерип барды. Соның бир мысалы ретинде Әжинияз бабамыздың туўылғанына 195 жыллық юбилей сәнесинде Мойнақ районы «Бозатаў» АПЖ аймағындағы Шағырлы аўылында профессор Кенесбай Аллаамбергеновтың басламасында шөлкемлестирілген «Әжинияз бағы» жаратылды. Ол усындай пидайы инсан еди, қайбир иске қол урса оның ақырына шекем жеткерий ушын тынып-тыншымай бар күшин жумсайды.

К.Алламбергенов өзиниң дөретиўшилик еткен дәўиринде қарақалпақ әдебиатының ири жанрларының бири проза жанрында бир қанша гүрринлер, повестьлер, романлар хәм драмалық шығармалар дөретип өзинен үлкен әдебий мийрас қалдырды.

К.Алламбергенов өзиниң өмири даўамында қайсы тараўда жумыс ислеген болса да оның гүллеп раўажланыўына оны үлкен мәртебеге ерисиўине өзиниң бар билимин жумсады, пидайылығы, мийнет сүйгишлиги, шөлкемлестириўшилик уқыбы менен шын жүрегинен хызмет етти. Устазымыз К.Алламбергеновтың еле халқымызға беретутығын көп еди, көп режелери бар еди. Тәғдирдиң ислерине шара жоқ, устазымыздың жатқан жери жайлы, топырағы торқалы болсын, руўхлары шад болсын!

## M A Z M U N Í

### BAS MAQALA

|                                                                                                    |   |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------|---|
| <b>Prenov B.B.</b> Qaraqalpaqstandaǵı matematika ilimi rawajlanıwı táriyxına qısqasha sholıw ..... | 3 |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------|---|

### PEDAGOGIKA ILIMLERI

#### Pedagogika teoriiyası hám tariyxı

|                                                                                                                                                                              |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Abdurazakova N.</b> Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini matn tahlili asosida baholash .....                                                      | 5  |
| <b>Агжанов Т.</b> Турли билим соҳаларига нисбатан компетенцияни шакллантириш моделларини яратиш методологияси .....                                                          | 7  |
| <b>Allambergenova R.D.</b> Balalarda koordinatsiyalıq qábiyetlerdi rawajlandırıwda gimnastikalıq elementlerden paydalanıw ózgeshelikleri (5-6 jasar balalar misalında) ..... | 9  |
| <b>Atadjanova D.A.</b> The usage of technology in foreign language learning environment .....                                                                                | 11 |
| <b>Babayarov M.X.</b> Milliy sport turlariga oid atamalar polisemiyasi .....                                                                                                 | 12 |
| <b>Babasheva G.B.</b> Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini chuqur o'zlashtirilishga qo'yilgan zamonaviy talablar .....                                                     | 15 |
| <b>Bekniyazov B.S.</b> Taym-menedjment umumta'lim maktablarini boshqarish samaradorligini oshirish vositasi sifatida .....                                                   | 17 |
| <b>Biysenbaev Q.</b> Qaraqalpaq balalar oyın folklorınıń etnopedagogikalıq ózgeshelikleri ....                                                                               | 18 |
| <b>G'aniyeva A.T.</b> Bo'lajak o'qituvchining kasbiy rivojlanishida kognitiv texnologiyalarning o'rni .....                                                                  | 20 |
| <b>Kadirov U.E., Tursunov S.Q.</b> Ta'limiy resurslar yaratishda web-texnologiyalardan foydalanish .....                                                                     | 22 |
| <b>Khojaniyazova A.A.</b> The state of teaching the Russian language in educational institutions of the Republic of Karakalpakstan .....                                     | 24 |
| <b>Киличева Ф.Б.</b> Использование технологии развития критического мышления при обучении русскому языку .....                                                               | 26 |
| <b>Kosbergenov R.M.</b> O'qituvchilarni tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari .....                                   | 27 |
| <b>Nurmaxanov K.E.</b> Bo'lajak o'qituvchilarning axborot kompetentsiyasini shakllantirish .....                                                                             | 29 |
| <b>Пирниязова Ш.О.</b> Бошланғич синф ўқувчиларида дарсларнинг матн билан боғлиқ босқичларга кизиқиш уйғотиш .....                                                           | 32 |
| <b>Risnazarova A.R.</b> Talabalardıń sociallıq beyimlesiwinde kommunikativ kónlikpelerdi rawajlandırıwdıń áhmiyeti .....                                                     | 34 |
| <b>Саримсакова Н.К., Хакимова Г.Т.</b> Орфоэпическая компетенция в структуре коммуникативного взаимодействия .....                                                           | 35 |
| <b>Saytbekova S.</b> Zamanagóy tálim procesinde didaktikalıq metodların klassifikaciyalaw .....                                                                              | 37 |
| <b>Сейтенова В.А.</b> Теоретические основы обучения переговорам в контексте профессионально-делового общения .....                                                           | 39 |
| <b>Seytmuratov T.Q.</b> Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning jismoniy tarbiyada maqsadga muvofiqligi .....                                                    | 41 |
| <b>Tajieva A.U.</b> New approaches in preparing future english teachers .....                                                                                                | 42 |
| <b>Tleumuratova N.M.</b> O'quvchilarning analitik tafakkurini rivojlantirish ilmiy pedagogik muammo sifatida .....                                                           | 45 |
| <b>Толыбаева Г.Н.</b> Изучение значимости разработки модели искусственного интеллекта для распознавания каракалпакского языка жестов .....                                   | 47 |
| <b>Turimbetova Z.B.</b> Hikoya qilishning qayta hikoya qilishdan farqli vazifalari .....                                                                                     | 49 |
| <b>Уразимова Т.В.</b> Мектепке шекемги жастағы балаларда операциялық ойлауды қәлиплестіріудің психологиялық айрықшалықлары .....                                             | 51 |
| <b>Shamuratova E.S., Sagidullaeva Sh.B.</b> O'z-o'zini rivojlantirish asosida o'quvchilar so'z boyligini o'stirishning lingvodidaktik, lingvopsixologik xususiyatlari .....  | 53 |

#### Tálim - tárbiya teoriiyası hám metodikasi

|                                                                                                                                |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Abdimuratov P.S., Seytanov B.T.</b> Student jaslarida hújdanlı, ádep-ikramlı qarım-katnas pazıyletlerin rawajlandırıw ..... | 55 |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

|                                                                                                                                                          |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Abdimurotov O.U.</b> Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilariga mustaqil ta'limni samarali tashkil etish vositalari .....    | 56 |
| <b>Astankulova D.F.</b> 10-12 yoshli badiiy gimnastikachilarni halqa bilan bajariladigan mashqlarga o'rgatishda egiluvchanlik sifatining ahamiyati ..... | 60 |
| <b>Атаджанов Х.</b> Web дастурлаш фанидан мустақил таълимни ташкил қилишда онлайн тизимлардан фойдаланиш усуллари .....                                  | 62 |
| <b>Bekbagambetova J.R.</b> Qaraqalpaq xalıq dástanları mısasında oqıwshılardıǵa óz ara birge islesiwdi úyretiwdiń áhmiyeti .....                         | 64 |
| <b>Davletmuratov J.K.</b> Oliy ta'lim muassasalarida materialshunoslik fanini o'qitishda kreativ texnologiyalardan foydalanish .....                     | 66 |
| <b>Qaljanov P.</b> Yoshlarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda ta'lim-tarbiya tamoyillari .....                                                    | 68 |
| <b>Matyakubova X.M.</b> Mahorat darslari orqali talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirish .....                                              | 70 |
| <b>Orinbetov N.T.</b> Umumkasbiy va ixtisoslik fanlarni integratsiyalash uchun veb-ilovalardan foydalanish .....                                         | 72 |
| <b>Pazilov T.A.</b> Xalq pedagogikasi vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish vositasi .....                                                          | 74 |
| <b>Saparova A.A.</b> Joqari matematikani oqitwda case study texnologiyasidan paydalanw .....                                                             | 76 |
| <b>Seytjanova U.Q.</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kolloborativ ta'lim texnologiyasi asosida o'qitish .....                              | 78 |
| <b>Turmanov Q.A.</b> Informatika sabaqlari sipat natijeligin asirwda mashqalali talim texnologiyalaridan paydalanw .....                                 | 80 |
| <b>Yuldosheva S.A.</b> Kam komplektli sinflarda mustaqil ishlarni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari .....                                           | 81 |

#### PSIXOLOGIYA ILIMLERI

|                                                                                                                                          |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Abdurayimov S.O.</b> Talabalarda baxtli oila to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishining psixologik determinatlari .....               | 84  |
| <b>Aribjanova U.A.</b> O'smirlarda daxldorlik fazilati ijtimoiy muammo sifatida .....                                                    | 85  |
| <b>Хакимова И.Б.</b> Психологические особенности цифровых технологий на развитие личности детей дошкольного возраста .....               | 87  |
| <b>Кенжебаева К.</b> Психолого-педагогические особенности организации учебной деятельности с детьми подросткового возраста .....         | 89  |
| <b>Klicheva Z.P.</b> Psixologiyaliq oyinlar ham olar jardeminde shahs ozgesheliklerin qaliplestiriw usillari .....                       | 91  |
| <b>Mominova X.E.</b> Kichik maktab yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashning psixologik xususiyatlari .....                            | 93  |
| <b>Odiljonova A.A.</b> Kreativlik xususiyatlarini genetik omillarga bog'liqligini o'rganishning empirik asoslari .....                   | 95  |
| <b>Saidova F.N.</b> Shaxs psixologik munosabatlarining mohiyati va o'ziga xosligi .....                                                  | 97  |
| <b>Suleymanova T.G.</b> Stress xolatlarini engib o'tishning ijtimoiy psixologik usul va vositalari .....                                 | 99  |
| <b>Turumbetova Z.</b> Talabalarda xulq og'ishini diagnostika qilish va korrektsiyalashning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....      | 101 |
| <b>Yuldasheva N.K.</b> O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish omillari, mexanizmlari va jihatlarining ijtimoiy-psixologik tahlili ..... | 103 |
| <b>Yusupjonova I.A.</b> Sharq mutafakkirlarining kasbiy shakllanish muammosiga doir ma'naviy-psixologik qarashlari .....                 | 105 |
| <b>Ziyavutdinova X.</b> O'zbek oilalarida zo'rvonlikning ijtimoiy psixologik xususiyatlari .....                                         | 107 |

#### USTAZLAR SHEJIRESI

|                                                            |     |
|------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Есебаев М.М.</b> Илим пидайысы, жәмийет жанкүйери ..... | 109 |
|------------------------------------------------------------|-----|

## PEDINSTITUT – 90 JASTA

*Keń dúnyaǵa kózin ashqan elimniń,  
Sen teberik dargayısıń bilimniń  
Ibrayım Yusupov*

Qaraqalpaq xalqınıń XX ásir tariyxında Pedinstituttıń búgingi 90 jıllıq tariyxı xalqımız tariyxınıń da ajıralmas bir bólegi esaplanadı. Bul bilim dargayı óz dáwirinde elimizge pedagog kadrlardı, sonday-aq, jámiyetlik-ekonomikalıq hám siyasiy ğayratkerlerdi tayarlaw arqalı xalqımızdı dúnya civilizaciyasına ulastırdı hám oǵan úles qosıwǵa imkaniyat jarattı.



### **XIX ásir qaraqalpaq ádebiyatınıń kórnekli wákili, klassikalıq shayır Ájiniyaz Qosıbay ulınıń tuwılǵanına 200 jıl**



*Bul dúnyanıń kórki adam balası,  
Adamnıń da kókke jeter nalası.  
Kónildiń kóp bolar qayǵı japası,  
Xosh qılıqlı sáwer yardan ayrılса.*

\*\*\*

*Jol bilmesen, jol sorańız bilgennen,  
Gúder úzbe iqrarına turǵannan,  
Yaman menen qırıq jıl dáwrın súrgennen,  
Yaqshı menen bir dem sáwbetler jaqsı.*

Respublikamızdaǵı tuńǵış bilim dargayınıń 90 jıllıq torqalı toyı, sonday-aq, usı oqıw ornına atı berilgen ullı klassik shayırımız Ájiniyaz Qosıbay ulınıń 200 jıllıq saltanatlı merekesi ilayıqlı túrde nıshanlap atır. Bul pedagogikalıq instituttıń professor-oqıtıwshıları hám student jaslar jámaáti menen birge Respublikamızdın kópshilik zıyalılarında da ruwxıy kóterińkilik payda etpekte.

## ÁJINIYAZ ATINDAĞI NÓKIS MÁMLEKETLIK PEDAGOGIKALÍQ INSTITUTÍNÍN 90 JÍLLÍQ BAYRAM KESHESINEN KÓRINISLER



Ájiniyaz atındağı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutına 90 jıl tolıw múnásibeti menen «Qaraqalpaqstandağı birinshi ilim-bilim dárgayına 90 jıl» atamasındağı respublikalıq konferenciya hám koncert baǵdarlaması bolıp ótti.



Bayram múnásibeti menen instituttń bir qatar professor-oqıtıwshıları sıylıqlandı.

## **Dıqqat, jazılıw – 2025!**

Húrmetli, jurnal oqıwshıları! Eger, Siz ilim, tálim-tárbiya hám oqıtıwdıń jańa zamanagóy usılları, jańalıqları menen óz waqtında jaqınnan tanıspaqsı, ózińizdiń usı tarawdaǵı jetiskenliklerińiz hám oy-pikirlerińiz benen ortaqlaspaqsı bolsańız, «Ilim hám jámiyet» jurnalına 2025-jıl ushın jazılıwǵa mirát etemiz.

Bizniń jurnalımızda barlıq tarawlar boyınsha ilimiy, ilimiy-metodikalıq maqalalar járiyalanadı.

«Ilim hám jámiyet» jurnalı Ózbekstan Respublikası Ministirler kabineti janındaǵı Joqarı Attestaciya Komissiyası kollegiyasınıń qararı menen tómende kórsetilgen pánler boyınsha ilim doktorı dárejesin alıw ushın maqalalar járiyalanıwı tiyis bolǵan ilimiy basılımlar dizimine kirgizilgen:

- 01.00.00 – fizika-matematika ilimleri;
- 03.00.00 – biologiya ilimleri;
- 05.00.00 – texnika ilimleri;
- 07.00.00 – tariyx ilimleri;
- 10.00.00 – filologiya ilimleri;
- 11.00.00 – geografiya ilimleri;
- 13.00.00 – pedagogika ilimleri;
- 19.00.00 – psixologiya ilimleri.

### **Jazılıw bahası - 400.000 (tórt júz mıń) swm.**

|                                                                |                                                          |
|----------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------|
| <i>Redakciya mánzili: Nókis qalası, P.Seytov kóshesi, n/j.</i> | <i>«Ilim hám jámiyet» jurnalınıń esap beti:</i>          |
| <i>Indeks: 230100, Telefon: +998612294086; +998933652520.</i>  | <i>BANK: MB BB XKKM Toshkent shahri</i>                  |
| <i>JURNALDÍŇ BASÍP SHÍǴARÍLÍWÍNA</i>                           | <i>Esap beti: 2340 2000 3001 0000 1010</i>               |
| <i>JUIWAPKER: Ájiniyaz atındaǵı NMPI baspaxanası.</i>          | <i>MFO: 00014; INN: 201 122 919</i>                      |
|                                                                | <i>Jeke esap beti: 4001 1086 0354 0170 9410 0350 005</i> |

|                                                                                                                                  |                                                                                                                                                           |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <i>Maqalalardıń mazmunına hám durılıǵına avtorlar juwapker, olardıń pikirleri redakciyanıń pikirleri bolıp esaplanbaydı</i>      | <i>Jurnalǵa jıl dawamında jazılǵan avtorlardıń miynetleri birinshi gezekte járiyalanadı. Maqala kólemi 6 betten kem bolmaıwı, 8 betten aspaıwı kerek.</i> |
| <i>Jurnal 1992-jıldan shıǵa basladı<br/>ISSN 2010-720X<br/>Indeksi: Jeke puqaralar ushın — 2101.<br/>Mákemeler ushın — 2102.</i> | <i>Basıwǵa ruxsat etildi: 29.10.2024<br/>Buyırtpa: №0099 Format: 60x84 1/8<br/>Kólemi: 14 b/t. Jurnal jılına 6 márte shıǵadı.<br/>Reestr № 089632</i>     |